va merosini o'rganish deb bildilar. Bu orqali, birinchidan, Jadidlar Turkiston xalqini boy madaniyati va tarixi haqida, ma'rifatga chorlash, xalqni milliy o'zligini anglashga doir g'oyalarni badiiy ijodiyotlarida aks ettirishga harakat qildilar. Badiiy ijod ular uchun ma'naviy qurol vazifasini o'tadi.

Ikkinchidan, ularning tarixiy va adabiy mavzudagi asarlari millatni uyg'otishga qaratilgan bo'lib, milliy merosni qadrlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Uchinchidan, milliy til va adabiyotning rivoji ular faoliyatining asosiy maqsadi bo'ldi. Jadidlar milliy tilni rivojlantirish jamiyatning ma'naviy yangilanishi va o'zligini anglashining muhim vositasi sifatida ko'rdilar va, asosiysi, buni badiiy ijodda asosiy qurol sifatida qo'lladilar. Behbudiy va Fitrat kabi yetakchilar adabiyotni xalqni ma'rifiy va milliy jihatdan uyg'otish vositasi deb bilganlar va o'zbek tilini rivojlantirish va badiiy adabiy asarlar yaratishga katta hissa qo'shdilar.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев III.M. <http://ngo.uz/uz/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o'qituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutki>.
2. Алимов Насимжон. Жадидлар меросини ўрганиш, англаш – илдизи бақувват дарахтга айланиш имконидир.<https://uza.uz/posts/457334>
3. Абдурахмаонов М. Жадидчилик миллий ҳаракатининг янги ўзбекистон барпо этишдаги ўрни ва роли.Sentral asian journal of edication and innovation. 2024, 10 orteabr, page 35.
4. Қодирова Сарвиноз. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/sanat/sarvinoz-qodirova-uzbek-teatri-kecha-va-bugun/>
5. Do'stov B. Jadidlarning O'rta Osiyoda milliy dramaturgiya va teatr rivojlanishiga qo'shgan xissalari. "Mahmudxo'ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag'ishlangan" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi TO'PLAMI. "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi, 2025 y, 57-bet.
6. Ma'mudho'ja (Behbudi). Nadur teatri? // Oyina.- 1914.- No 29.- B. 550.
7. Axmedov D. Millat uyg'onishining mash'ali: Mahmudxo'ja Behbudiy ma'naviy va ma'rifiy faoliyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi TO'PLAMI. "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi, 2025 y, 190-bet.
8. Махмудова Г. Жадидизм ва Туркистонда ахлокий-эстетик фикр тараккиёти. Т: Davr Press, 2006. Б-109.
9. Artistic creativity as important attribute of the spiritual world of a person A.M.Mavlonovna.International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 3 (4), 38-44 стр.
10. Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. Шеърлар, масаллар, ривоятлар, драмалар. Т.: F.Ғулум,-1979, 230-бет.



Farangiz ANVAROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: farangizanvarova9624@gmail.com

TerDU dotsenti, DSc N.Yo'ldoshev taqrizi asosida

DEN BRAUNNING "FARISHTALAR VA IBLISLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN "HELL" VA "DAMN" SO'ZLARINING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola Den Braunning "Farishtalar va Iblislar" asarida uchraydigan "hell" va "damn" so'zlarining semantik tahliliga bag'ishlangan. Semantikaning tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri ekanligi badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida ham yaqqol ko'zga tashlanishi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Unda ushbu so'zlarning asl lug'aviy ma'nolari va konnotativ ma'nolari o'rtasidagi ba'zi tafovutlar tahlil qilingan. Semantik jihatdan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan bu ikki so'zning asarning turli o'rinlarida mos ravishda sinonim sifatida qo'llanilganligi bir qancha misollar yordamida ko'rib chiqilgan. "Hell" so'zining ibora tarkibida kelishi va ba'zi o'rinlarda pozitiv ma'noni ham ifodalab kelishi bo'yicha ham misollar berilgan.

Kalit so'zlar: Semantika, semantik tahlil, sinonim, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, tarjima jarayoni.

A SEMANTIC ANALYSIS OF THE WORDS «HELL» AND «DAMN» USED IN «ANGELS AND DEMONS» BY DAN BROWN

Annotation

This article is devoted to the semantic analysis of the words "hell" and "damn" found in "Angels and Demons" by Dan Brown. There are opinions and comments about the fact that semantics is one of the main branches of linguistics, which is clearly visible in the process of translating works of fiction. It analyzes some differences between the original denotative meanings and connotative meanings of these words. The fact that these two words, whose meanings are close to each other in terms of semantics, are used as synonyms in different places of the work is considered with the help of several examples. There are also examples of how the word "hell" appears in the phase and in some places it also expresses a positive meaning.

Key words: Semantics, semantic analysis, synonym, denotative meaning, connotative meaning, translation process.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОВ «HELL» И «DAMN», ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В «АНГЕЛЫ И ДЕМОНЫ» ДЭНА БРАУНА

Аннотация

Данная статья посвящена семантическому анализу слов «hell» и «damn», встречающихся в произведении Дэна Брауна «Ангелы и демоны». Существуют мнения и комментарии о том, что семантика является одним из основных разделов языкознания, что хорошо видно в процессе перевода художественных произведений. Анализируются некоторые различия между исходными словарными значениями и коннотативными значениями этих слов. На нескольких примерах рассматривается тот факт, что эти два слова, значения которых близки по семантике, используются как синонимы в разных местах произведения. Также есть примеры того, как слово «hell» появляется во словосочетании и в некоторых местах оно выражает и положительный смысл.

Ключевые слова: Семантика, семантический анализ, синоним, денотативное значение, коннотативное значение, процесс перевода.

Kirish. XX asrning boshlariga kelib tilshunoslikning boshqa sohalarini kabi semantikaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. So'zning ikki tomoni: shakl va ma'no bo'lib, ma'no jihatiga bo'lgan qiziqish ko'proq. So'zning ma'nosini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi – semantika. So'zning o'z ma'nosi va badiiy asarlarda uchraydigan qo'shimcha ma'nolarini o'rganish turli tadqiqotlarning obyektiga aylanib ulgurgan. O'zbekistonda ham boshqa tillarda yozilgan badiiy asarlarning tarjimasiga bag'ishlangan ishlarni ko'plab uchratamiz. Bu kabi ishlarda, asosan, original inglizcha varianti va o'zbekcha tarjimalari chog'ishtirilib, ba'zi o'zgarishlar o'zaro taqqoslanadi.

Asosiy qism. Semantika yunonchadan olingan bo'lib, "bildiruvchi, ifodalovchi" degan ma'noni bildiradi va ikki xil talqin qilinadi. Birinchisi, til yoki uning biron bir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizm, so'z birikmasi, gap) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot; ikkinchisi, turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi sanaladi. Semantikaning o'rganish objekti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolarini tizimdir. Semantika fan sifatida XIX asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha yana turli tarmoqlarga bo'lingan. Ular quyidagilar:

Leksik semantika - so'z ma'nosini o'rganadigan semantika bo'limi. U so'zlarning bir yoki bir nechta ma'noga ega

ekanligini va ular bir-biri bilan qanday leksik aloqada turishini tekshiradi.

Frazaviy semantika - gaplarning mazmunini kompozitsiyaviylik hodisasini yoki so'zlarni tartibga solish orqali yangi ma'nolar yaratishni o'rganadi.

Rasmiy semantika - til va ma'no o'rtasidagi munosabatlarning aniq asoslarini ta'minlash uchun mantiq va matematikaga tayanadi.

Kognitiv semantika - ma'noni psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqadi va til qobiliyati va dunyoni tushunish uchun ishlatiladigan kontseptual tuzilmalar o'rtasidagi yaqin aloqani nazarda tutadi [7].

Leksik semantika ba'zi umumiy ma'no xususiyatlariga ega bo'lgan turli so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, masalan: 1. Monosemiya: so'zlarning yagona ma'nosi ya'ni bitta so'z faqat bitta ma'noga ega bo'ladi. Bunga misol qilib ko'proq terminlarni olishimiz mumkin; 2. Ko'p ma'nolilik: so'zlar bir nechta xil ma'noga ega bo'lishi mumkin; 3. Omonimiya: imlosi bir xil yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlarning turli ma'nolari ya'ni "tut" so'zini oladigan bo'lsak, ham harakatni bildiradi, ham mevali daraxtning nomi hisoblanadi; 4. Paronimiya: juda o'xshash so'zlar, lekin ularning ma'nosi boshqacha, masalan, "ellik va enlik" yoki "davo va da'vo"; 5. Sinonimiya: shakl jihatidan farq qilsada, bir xil ma'no anglatuvchi so'zlar ya'ni kulmoq, tirjaymoq va tabassum qilmoq kabilar. Sinonimlar ayni bir til vakilida ayni

bir davrda qo'llanadigan bir turkum doirasidagi so'zlardan tashkil topadi. Ular chet tilidan, shevalardan adabiy tilga so'z o'zlashtirish hisobiga boyiydi [4]; 6. Antonimiya: qarama-qarshi ma'noli so'zlar, masalan, yorug'-qorong'u kabi [7].

Ma'noni ifodalash semantik tahlilda juda muhim, chunki: 1. Bu gapning lingvistik elementlarini lingvistik bo'lmagan elementlar bilan bog'lashda yordam beradi; 2. Bu aniq ma'lumotlarni leksik darajada ifodalashga yordam beradi; 3. Bu to'g'ri ma'lumotlarni tahlil qilish va tekshirishga yordam beradi [5].

Ma'no haqida gap ketar ekan, denotativ va konnotativ ma'no turlariga to'xtalishimiz o'rindir. So'zning denotativ ya'ni atash ma'nosi uning til tizimida muhim lug'aviy birlik ekanligini anglatadi. Konnotativ ma'no esa so'zning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ya'ni uning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi va uslubshunoslikning muhim obyektiga aylantiruvchi ma'nosidir.

V.N. Teliyaning ta'rificha, konnotatsiya bu til birliklari semantikasiga uzual va okkazonal ravishda kiradigan, nutq sebekting borliqni jumlada ifodalashda uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir [6].

Ma'lum bir so'z nutqdan tashqarida o'zining asl, lug'aviy ma'nosiga ega bo'lsa, turli kontekstlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin, ayniqsa, badiiy asarlarda bunday holat ko'p uchraydi. Bundan ko'zlangan maqsad, albatta, ta'sirchanlik va hissiy bo'yqordorlikni oshirish desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Den Brauning "Farishtalar va Iblislar" asarida ham bunday holatni kuzatishimiz mumkin. Ushbu asarda qo'llanilgan "hell" va "damn" so'zlari bunga misol bo'la oladi.

Bu ikki so'zning asl, lug'aviy ma'no-lariga to'xtaladigan bo'lsak, "hell" so'zi diniy va mifologik kontekstda "do'xax" yoki "janozat" degan ma'noni anglatadi. Odatda, bu so'z yomon ishlarga mukofot sifatida, axloqiy yoki ruhiy jihatdan jazolanish joyi sifatida tasvirlanadi. Masalan, "He believes that evil people will go to hell after they die – U yomon odamlar o'lgandan keyin do'xaxga ketadi, deb ishonadi". Hell so'zi qadimgi inglizcha "helle" dan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z ham Skandinav madaniyatidagi "janozat" yoki "do'xax" joyini anglatgan. Bu so'zning ildizi "helen" leksikasi bilan bog'liq bo'lib, u "berkitish", "yashirish" ma'nosini anglatadi. Sinonimi – inferno, antonimi – heaven.

Oxford lug'atiga ko'ra, "hell" so'zi turli dinlarda shaytonning ruhdagi hukmronligi va aybdorlarning o'limidan so'ng yer ostidagi doimiy olovli joyda jazolanishi bilan tasvirlanadi. Masalan, "Irreligious children were assumed to have passed straight to the eternal fires of hell". Yana bir ma'nosi - qattiq azobli holat yoki jarayon. Masalan, "He made her life hell". Ba'zida esa bu so'z jahl, hayratlanish yoki hurmatsizlik ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, "Oh hell – where will this all end?".

"Damn" so'zining asosiy ma'nosi "lahzali jazosini berish", "yomonlash" yoki "la'nati" degan ma'noni anglatadi. Odatda, hissiy va shaxsiy noqulaylikka olib keluvchi holatlarda qo'llaniladi. Ushbu ibora ko'pincha hissiy chiqishlarda, kuchli ruhiy holatlarda yoki shaxsiy munosabatlarda qo'llaniladi. U, asosan, qahrilanish yoki ma'lum bir narsaning salbiy tomonini va ko'pincha la'natni ko'rsatish uchun ishlatiladi. "Damn" so'zi lotincha "damnare" (jazo berish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ingliz tilida esa bu so'z tarixiy ravishda ko'p asrlar davomida ishlatilgan. Sinonimi – condemn, antonimi – bless.

Oxford lug'atida "damn" so'zi Xudo tomonidan ayblanib, do'xaxdagi abadiy va cheksiz jazodan azoblanish kabi tarjima qilinadi. Yana bir ma'nosi – kuchli tanqid qilish demakdir. Masalan, "The book damns her husband". Yoki jahl va g'azablanish kabi ma'nolarni ham anglatadi. Masalan, "Damn! I completely forgot!". Xuddi shu ma'noda sifat so'z turkumi bo'lib ham keladi. Masalan, "Turn that damn thing off!".

"Farishtalar va Iblislar" asarining deyarli har bir bobida bu so'zlardan birini uchratishimiz mumkin. Chunki asar roman-triller bo'lib, unda asosiy voqealar rivoji asar qahramonlarining g'azabi va nafratiga sabab bo'ladi. E'tiborli tomoni shundaki, bu so'zlar asarda sinonimlar tarzida ishlatilgan. Quyida bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz:

A familiar woman's voice shouted at him. "Place the damn call!" Asarning 38-bobida keltirilgan ushbu jumla o'zbek tiliga shunday tarjima qilingan: - Tanish ayolning ovozi unga baqirdi. – La'nati telefonga meni ulab bering! Ushbu misoldagi "damn" so'zi o'zbek tiliga "la'nati" deb tarjima qilingan. Tarjimon to'g'ridan-to'g'ri tarjima usulidan foydalangan va maqsadga erishilgan ya'ni gapning mazmuni uning original varianti bilan semantik jihatdan bir xil.

Glass walls, he told himself. But damn thick glass. Asarning 86-bobidan olingan bu jumla o'zbek tiliga shunday tarjima qilingan: "Devorlar shishadan qilingan, - dedi u o'ziga. – Lekin, jin iursin, qalin shishadan qilingan". "Damn" so'zi bu yerda "jin ursin" deb tarjima qilingan. Asarda bu so'z ko'p hollarda "damn it" ko'rinishida uchraydi.

"What the hell are you talk –" Olivetti stopped short, his eyes rocketing wide as though he'd just been punched in the gut. Asarning 41-bobida keltirilgan diologdan parcha o'zbek tiliga shunday tarjima qilingan: - Jin ursin, nima haqida gapiryapsiz... - Olivetti birdaniga to'xtab qoldi. Xuddi hozirgina unga musht tushirishganday ko'zlari chanog'idan chiqib ketgudek qaradi. Tarjimon bu o'rinda kontekstning ma'nosidan kelib chiqqan holda "hell" so'zini "jin ursin" deb tarjima qilgan ya'ni so'zning konnotativ ma'nosini yaratgan. Bu bilan tarjimon "hell" so'zini "damn" so'zi bilan sinonim sifatida qo'llagan. Balki, inglizlarning og'zaki nutqida bu so'z shunaqa ma'no anglatar.

Langdon wheyeled, reality returning as his eyes dropped where she was pointing. "Bloody hell!" he shouted, jumping backward. Asarning 65-bobidan olingan navbatdagi jumla o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: Lengdon tez o'girilib qaradi va haqiqiy dunyoga qaytib, qiz ishora qilayotgan tomonga – o'zining oyoqlari ostiga qaradi. - Bu nima balo?! – deya Lengdon chetga sakrab, xitob qildi. Ushbu misoldagi "Bloody hell!" birikmasi "Bu nima balo?!" deya tarjimona tomonidan mohirona tarjima qilingan. Bu o'rinda "hell" so'zi o'zining asl ma'nosida emas, balki idiomaning bitta tarkibiy qismi bo'lib kelgan va tarjima jarayonida ma'no saqlab qolingan.

Why couldn't the Swiss Guard trace that damn caller? The Illuminati assassin is the key! He knows where the antimatter is ... hell, he knows where the cardinals are! Catch the killer, and everything is solved. Asarning 45-bobida keltirilgan endigi jumlada ham "damn" so'zi, ham "hell" so'zi ketma-ket qo'llanilgan. Keling, o'zbek tilidagi tarjimasini ko'rib chiqamiz: - Nega Shveytsariya gvardiyasi bu la'nati qo'ng'iroq qayerdan qilinganini aniqlay olmadi? Shu qotil – barcha muammolarning asosiy sababchisi! U antimateriyaning qayerdaligini biladi, kardinallarning qayerdaligini biladi! Qotilni ushlang, shunda hamma muammo hal bo'ladi, - deya zorlandi Vittoriya. Bu o'rinda tarjimon "damn" so'zini "la'nati" deya o'z ma'nosida tarjima qilgan, ammo "hell" so'zi tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan ya'ni tarjima qilinmagan, o'rinda ko'chirma gap tarkibida muallif gapini keltirib o'tgan " – deya zorlandi Vittoriya" tarzida. Bu yerda "zorlandi" so'zi ayni qahramonning nutqidagi qanaqadir xavotirni bildirib turibdi.

"Hell" asarda o'z ma'nosida ham ishlatilgan. Quyida asarning 89-bobidan olingan misolning tarjimasi bilan birgalikda tahlil qilamiz: The guard nodded. "Don't spill any. Smells like heaven, but burns like hell." – To'kib yuborma, - deb javob berdi soqchi tasdiqlagandek bosh igr'ab. – Jannat hidini beradi, lekin do'xax alangasi bilan yonadi. Bu jumlada "hell" so'zi o'zining asl ma'nosida kelgan. Buni kontekstdan kelib chiqib aytak ham bo'ladi, chunki "heaven" so'zining antonimi sifatida yonma-yon kelgan.

The muted, yellow papyrus left no doubt in Langdon's mind as to its age and authenticity, but excluding the inevitable fading, the document was in superb condition. Slight bleaching of the pigment. Minor sundering and cohesion of the papyrus. But all in all ... in damn fine condition. Asarning 52-bobidan olingan navbatdagi misol o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: Sarg'aygan, biroz rangi qochgan papiirusni ko'rib, uning qadimiyligi va haqiqiyligiga shubha qolmadi. Uning eskiligini hisobga olmaganda, hujjat juda yaxshi holatda edi. "Pigment sal rangsizlashgan ... papiirus yuzasi qirilgan ... lekin umuman olganda juda yaxshi holatda", – deya o'yladi Lengdon. Navbatdagi misolda esa biz umuman boshqa bir ma'noga duch

kelamiz. Agar parchaning ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u butunlay ijobiy ma'noda ekanligini bilib olish juda oson. Hech qanday nafrat yoki biror narsadan g'azablanish ohangda gap ketmayapti. Aksincha, qandaydir bir qadimgi qo'lyozmaning yaxshi saqlanganligi haqida aytilyapti va "damn" so'zi pozitiv fikrni to'ldirish maqsadida qo'llangan. Bu holat kamdan-kam uchraydi.

Xulosa. So'zning ma'nosi bilan ish olib borish tilshunoslikning har bir sohasi uchun xosdir. Ayniqsa, badiiy adabiyotda bu muhim sanaladi. Badiiy asarlarda bitta so'z turli ma'nolarda kelishi mumkin. Chunki ma'lum bir milat dunyoqarashi, e'tiqodi va madaniyati badiiy asarlarda o'z aksini topadi. Shuning uchun tarjimondan ulkan salohiyat talab qilinadi. Balki, tarjima sohasiga kamdan-kam kishi qo'l urishi bejizga emasdir.

ADABIYOTLAR

1. «Semantics: An Introduction to Meaning in Language» - Kate Kearns (Cambridge University Press, 2000).
2. «Semantics: A Coursebook» - James R. Hurford, Brendan Heasley, and Michael B. Smith (Cambridge University Press, 2007).
3. Dan Brown. "Angels and Demons". – USA: "Pocket books", 2000.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: "Mumtoz so'z", 2010.
5. Allaberganova N.M. "Semantik tahlil", - International scientific journal "Interpretation and researches", 2023.
6. Nasirdinov O.A. "Leksik va tarkibiy semantika – semantikaning turlari sifatida", – «Экономика и социум» №7(110) 2023.
7. Zaynobbiddinova G.B. "So'z semantikasining asoslari", – "International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory", 2025.
8. Abdullaeva Marhabo Raxmonkulovna. "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima yaratishi va o'ziga xos xususiyatda", - Innovation, integration va ta'lim bo'yicha xalqaro ma'lumot jurnali. 2021.
9. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – T., 2016.
10. Дэн Браун "Фаришталар ва Иблислар". – Тошкент, ИЛМ-ЗИЁ ЗАКОВАТ, 2023.
11. <https://uz.wictionary.org/wiki>.



Gulhoyo ACHILOVA,
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
E-mail: guliachilova9@gmail.com

TerDU katta o'qituvchisi, PhD G'.Arapov taqrizi asosida

HISTORICAL ROOTS OF THE MATERNAL IMAGE IN UZBEK AND WORLD LITERATURE

Annotation

This article offers a comprehensive analysis of the genesis of the maternal image in both world and Uzbek literature, as well as its archetypal manifestations within the broader context of global cultural traditions. The study is grounded in a multidisciplinary examination of ancient literary monuments, including the "Avesta", classical mythological systems, and relevant anthropological and cultural research. Special attention is devoted to the mechanisms through which maternal representations have been formed within mythological, religious, and cultural frameworks, and to the functional significance of these representations in the broader processes of societal development.

Key words: Maternal archetype, "Avesta", mythology, cultural studies, ancient civilizations, mother goddesses.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ОБРАЗА МАТЕРИ В УЗБЕКСКОЙ И МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье проводится комплексный анализ генезиса материнского образа в мировой и узбекской литературе, а также его архетипичных проявлений в более широком контексте мировых культурных традиций. Исследование опирается на междисциплинарное изучение древних литературных памятников, включая "Авесту", классические мифологические системы, а также соответствующие антропологические и культурологические исследования. Особое внимание уделено механизмам формирования материнских репрезентаций в мифологических, религиозных и культурных рамках, а также функциональной значимости этих репрезентаций в более широких процессах социального развития.

Ключевые слова: Материнский образ, "Авеста", мифология, культурология, древние общества, богини-матери.

ONA OBRAZINING O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDAGI TARIXIY ILDIZLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona obrazining jahon va O'zbek adabiyotidagi genезisi hamda uning global madaniy an'analar doirasidagi arxetipik shakllari chuqur va tizimli tahlil etiladi. Tadqiqot qadimgi davr adabiy yodgorliklari, xususan, "Avesto" matni, klassik mifologik tizimlar, shuningdek, zamonaviy antropologik va madaniyatshunoslik izlanishlari asosida ko'p tarmoqli metodologik yondashuv orqali olib borilgan. Ushbu maqolada ona obrazining mifologik, diniy va madaniy tizimlarda qanday shakllangani, ularning jamiyat taraqqiyoti jarayonlarida qanday funksional vazifalarni bajargani tahlil etiladi. Ona obrazining shakllanish mexanizmlarini ochib berish orqali maqola, shuningdek, qadimgi jamiyatlarda ona va onalik fenomenining qadriyat tizimlari va ijtimoiy tuzilmadagi o'rnini aniqlashga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: Ona obrazi, Avesto, mifologiya, madaniyatshunoslik, qadimgi jamiyatlar, ona ma'budalari.

Kirish. Ona obrazining adabiyot va madaniyatda aks ettirilishi insoniyat tafakkuri va madaniy xotirasining muhim qatlamlaridan biridir. Mazkur tadqiqotning asosiy muammosi, ona obrazining qadimgi mifologik, diniy va madaniy kontekstlarda qanday aks etganini o'rganishdan iboratdir. Onalik tasvirlarining qadimgi madaniyatlarda qanday shakllanganini tushunish, insoniyat tarixining ilk bosqichlaridan boshlab o'zgaras qadriyatlar va ijtimoiy rollarning shakllanishi haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Tadqiqotning maqsadi, qadimgi sivilizatsiyalarda ona obrazining mifologik, diniy va madaniy tizimlarda qanday ifodalanganini, bu obrazlarning insoniyatning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir: qadimgi madaniyatlarda ona obrazining mifologik va diniy tasvirlarini tahlil qilish; ushbu obrazning insoniyat madaniyati va adabiyotining rivojlanishiga qo'shgan hissasini o'rganish; Ona obrazining xilma-xil madaniyatlardagi ramziy ma'nolarini solishtirib ko'rish; qadimgi madaniyatlarda onalik haqidagi tasavvurlarning zamonaviy adabiyot va tadqiqotlarda qanday aks etganini ko'rsatish.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ona obrazini o'rganish nafaqat qadimgi e'tiqodlarni tushunishga, balki insoniyat madaniyatining shakllanish jarayonlarini chuqurroq anglashga ham yordam beradi. Onalik haqidagi mifologik va diniy tasavvurlar, qadimgi jamiyatlarning axloqiy va ijtimoiy tuzilmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, bu obrazlarni o'rganish orqali biz qadimgi madaniyatlardagi o'ziga xos qadriyatlar, urf-odatlar va dunyoqarashlarni yanada

yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u qadimgi madaniyatlarda ona obrazining rivojlanishini o'rganib, bugungi kunda bu tasvirlarning adabiyot va san'atda qanday aks etishini izohlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimgi jamiyatlarda onalarning haqiqiy roli va o'rnini baholash yozma manbalarning yetarli emasligi sababli murakkab bo'lsa-da, mutaxassislar antropologiya, tarix, dinshunoslik va sotsiologiya sohalarida, masalan, sopol bo'laklari, mato qoldiqlari va qabr toshlarini o'rganish orqali mavjud bilimlarni kengaytirishga harakat qilmoqdalar. Yozuvchilar ko'pincha erkaklar manfaatlari uchun yozgan va ayollar, onalik, bolalik munosabatlarini oddiy va odatiy deb hisoblaganligi sababli, oddiy ayollar hayoti haqida hujjatlar kam uchraydi. Sinfy farqlar, etnik kelib chiqish va diniy e'tiqodlar har bir kishining rolini va vazifasini belgilab, hatto uni cheklab qo'ygan. Shuningdek, yosh ayollarning turmush qurishi va farzandli bo'lishi deyarli barcha madaniyatlar uchun umumiy talablardan bo'lgani sababli, jamiyat hayotining bu jihatlarini batafsil hujjatlashtirishga ehtiyoj sezilmagan[1]. Shunga qaramay, ona obrazlari mifologik, diniy va madaniy tizimlarda muhim rol o'ynagan. Ushbu obrazlarni o'rganish nafaqat qadimgi e'tiqodlarni tushunishda, balki insoniyat madaniyatining rivojlanishini anglashda ham katta ahamiyatga ega. Bu mavzu Jeyms Jorj Freyzer ("The Golden Bough"), Mircha Eliade ("The Sacred and the Profane"), Jozef Kempbel ("The Hero with a Thousand Faces"), Kerol P.Krayst ("Rebirth of the Goddess"), Zigmund Freyd va Karl Gustav Yung ("Archetypes and the Collective Unconscious") kabi olimlar tomonidan antropologiya,

dinshunoslik, mifologiya, madaniyatshunoslik va feministik tadqiqotlar doirasida keng o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy, mifologik va adabiy tahlil metodlari qo'llanilgan. Manbalar sifatida "Avesto" kabi qadimiy yodgorliklar, "Iliada" va "Gilgamesh" dostonlari, shuningdek, Robert Greyves, Mariya Gimbutas va Miriam Robbins Dekster kabi olimlarning asarlari tahlil qilindi. Tadqiqotda ona obrazlarining adabiyotdagi ifodalarini har xil madaniy va diniy kontekstda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – qadimgi adabiyot va mifologiyadagi ona obrazini tizimli ravishda o'rganish va bu obrazlarning insoniyat madaniyatining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlashdir. Tadqiqot uchun zarur axborot manbalari sifatida birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalaniladi. Birlamchi ma'lumotlar sifatida qadimiy mifologik matnlar, diniy manbalar, adabiyotlar va antik davrga oid san'at asarlari tahlil qilinadi. Ikkilamchi ma'lumotlar sifatida esa, mavjud ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, kitoblar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda diskurs tahlil usuli orqali so'zlar va obrazlarning qanday shakllanganligi, ularning madaniy va diniy tizimlar bilan bog'liqligi o'rganiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda o'rganilgan qadimiy madaniyatlarda ona obrazining tasvirlari, avval belgilab olingan tahlil metodologiyasiga asoslanib, bir nechta muhim natijalarni yuzaga keltirdi. Bular quyidagi jihatlar bilan ifodalanadi:

1. Mifologik va diniy kontekstda ona obrazlari. Tadqiqotda qayd etilgan mifologik va diniy matnlarda ona obrazlari, asosan, ikki muhim elementda tasvirlanadi: "ilohiy va himoya qiluvchi ona" hamda "hayotning boshlanishi va qayta tug'ilishning ramzi sifatidagi ona". Gimbutas va Greyvesning tadqiqotlari asosida, ona obrazlari hayot va o'lim jarayonlarini boshqaruvchi kuch sifatida ko'rsatilgan. Greyvesning "oq ma'buda" konsepsiyasi onalikni uch asosiy fazada tasvirlaydi: Bokira qiz (Virgin), Ona (Mother) va Kampir (Crone), bu tasvirlar qadimiy shoirlar va mifologiyalarda tabiiy va ruhiy yangilanishni, hosildorlikni va qayta tug'ilishni ifodalaydi.

Greyves ona xudolarini tabiatning turli elementlari orqali quyidagicha tasniflaydi: 1. Yer xudolari: Geya, Dimetra, Sibili. Ular hosildorlik va yerning ozuqa beruvchi kuchlarini ifodalaydi; 2. Suv xudolari: Tetis, Seleysha. Suv ona xudolari hayotning boshlanishi va his-tuyg'ularning manbai sifatida namoyon bo'ladi; 3. Olov xudolari: Vesta, Hestiya. Yaratish va halokatni birlashtiruvchi onalik kuchining ifodasi[2].

2. Neolit jamiyatlarida ona tasvirlari. Mariya Gimbutas o'zining "The Civilization of the Goddess" ("Ma'budalar sivilizatsiyasi") asarida neolit davridagi qadimgi matriarxal madaniyatlarni o'rganishga bag'ishlab, ma'buda ona tushunchasining madaniy va diniy tasnifi taqdim etadi. Gimbutas, asarida, ma'buda onalar neolit jamiyatlarining markaziy diniy figuralari bo'lganini ta'kidlab, ularni ramziy, arxeologik va mifologik jihatdan turkumlaydi. U ona ma'budalarini ularning funktsiyalari va ramziyligi asosida uch asosiy toifaga ajratadi: a) hayot ma'budasi; b) o'lim va qayta tug'ilish ma'budasi; c) oy ma'budasi.

Olima, hayot ma'budasining asosiy vazifasi tug'ilish, hosildorlik, hayotning boshlanishi va o'sish jarayonlarini boshqarish ekanini va yumaloq shakllar, tuxum, urug'lar, gullar va o'simliklarning uning ramziylari hisoblanishini ta'kidlaydi. Hosildorlik ma'budalari sifatida Ishtar, Demetra va yer onasi Geyalarni misol sifatida keltiradi. O'lim va qayta tug'ilish ma'budalari sifatida Kali (hind mifologiyasi), Persefona (yunon mifologiyasi) kabi ramzlar — ilon, spiral, yutuvchi hayvonlar, suyaklar va qabrlar orqali ifodalanadi. Oy ma'budalari esa Hekate (oy va sehr ma'budasi), Artemis (yunon ov ma'budasi) orqali oy, suv, qushlar va baliqlar orqali ko'rsatiladi[3].

3. Antik adabiyotlarda ona obrazlari. Miriam S. Balmutning "The Iliad and the Role of Women" asarida, "Iliada"dagi ona obrazlari ularning jamiyatdagi roliga qarab turkumlangan. Tadqiqotda o'rganilgan ona obrazlarining ba'zi muhim aspektlari quyidagilardir:

himoya qiluvchi va ilohiy ona (Tetis),

qayg'u va motam tutayotgan ona (Gekuba),

himoya qiluvchi, lekin yordam bera olmaydigan ojiz ona (Andromaxa).

Bu tasvirlar, urush va qahramonlik mavzulariga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ona obrazlarining axloqiy va hissiy jihatlarini shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi[4].

Miriam Robbins Dekster o'zining "Whence the Goddess: A Source Book on Women in Religion" asarida antik adabiyotlardan biri bo'lgan "Gilgamesh" dostonidagi ona obrazlarini quyidagicha tasniflaydi: a) ilohiy va himoya qiluvchi ona (Ninsun), b) yaratuvchanlik va donolikning onalik arxetipi (Ninsun), c) xudolar va odamlar orasidagi vositachilar (Ninsun), d) onalikning emotsional va ramziy ta'siri (Ninsun), e) Shamhatning ona sifatidagi roli (Enkidu uchun). Dekster, Ninsun va Shamhatni ona arxetiplari sifatida tahlil qilib, ularning roli faqat hissiy bog'lanish yoki parvarishlashdan iborat emasligini, balki ular mifologik qahramonlar sifatida ilohiy qudrat, yuksak donolik, himoya qilish va yaratish qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi[5].

4. Buddizmda onalik tasviri. Paskal Engelmayerning tadqiqotida, qadimiy buddizmda onalikning tarbiyaviy va ruhiy o'rni tahlil qilinadi. Mahāpajāpati Gotamī va Visāxā Migāramātā kabi ayollarni misol keltirib, ular o'z onaligi orqali buddizm ta'limotlarini tushunish imkonini yaratgan. Tadqiqot natijasida, qadimiy hind jamiyatida onalikning biologik chegaralaridan tashqari, xizmat va fidoyilik sifatida ham namoyon bo'lgani ta'kidlanadi[6].

5. Onalikning siyosiy roli. Tadqiqotda onalikning siyosatdagi o'rni ham muhim jihat sifatida tahlil qilindi. Aleksandr Severusning onasi Yuliya Mamaea, Kleopatra Teaning siyosiy faoliyatlari va Yaponiyaning imperatorlik hokimiyati kontekstida, onalar siyosiy strategiyalar va qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynagan. Bu natija onalikning siyosiy ta'sirini mustahkamlashda qanday kengaytirilgan rol o'ynaganini ko'rsatadi, shuningdek, onalar o'z farzandlari orqali hokimiyatni saqlab qolish va merosni davom ettirishda katta ta'sir ko'rsatganini aniqlaydi[7].

6. Onalik va dinshunoslik. Dana Kuper va Kler Felanning tahriridagi "Motherhood in Antiquity" kitobida onalik va diniy tushunchalar o'rtasidagi aloqalar tahlil qilingan. Dvora Lederman-Danielning tadqiqotida, Isroil tarixidagi buyuk onalar – Debora va Miryam kabi shaxslar onalikning diniy va ijtimoiy o'rni haqida yangi qarashlarni shakllantirgan. Ular, erkak hukmronligidagi jamiyatda, onalikni inqilobiy va muqobil siymo sifatida namoyon etgan[8].

7. "Avesto"da onalik va bola obrazlarining timsollanishi. Tadqiqotda "Avesto"dagi qadimiy tasavvurlarda ona obrazining hosildorlik, himoya va ezgulik timsoli sifatida aks etishi aniqlangan. Ardisura Anaxita va Spenta Armayiti obrazlari, birinchi navbatda, ona tabiat va hosildorlikning ramzlari sifatida ko'rsatilgan. Bu mifologik personajlarning suv va yer kabi tabiat kuchlari bilan bog'liqligi, onalikni faqat biologik emas, balki ruhiy va ijtimoiy ta'sirga ega, hayotni boquvchi va rivojlantiruvchi qudrat sifatida tasvirlashga imkon beradi[9].

8. Onalik va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Zardushtiylik ta'limotida ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar tarbiya va axloqiy masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tabiatning muqaddas kuchlari, jumladan, onalik va bola o'rtasidagi munosabatlar, nafaqat biologik masala, balki jamiyatda axloqiy va ijtimoiy qiymatlarni shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynagan[10].

9. Mifologik va diniy tasavvurlarni tahlil qilishda olingan natijalar. Tadqiqotda "Avesto"dagi qadimgi mifologik personajlarning tasvirlari, aniqroq aytganda, onalik va hosildorlikni ifodalovchi obrazlar, jamiyatning qadimgi tafakkuridagi tabiiy va ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qilgan. Anaxita va Spenta Armayiti kabi obrazlarning tasvirlanishi, qadimgi madaniyatlarda ona va bola o'rtasidagi aloqaning faqat biologik emas, balki ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi[9].

Yuqoridagi tahlil natijalari asosida, ona obrazlari qadimiy madaniyatlarda biologik emas, balki ijtimoiy, diniy va siyosiy kontekstda ham muhim rol o'ynagan. Tadqiqotda olingan natijalar, qadimiy madaniyatlarda ona va bola o'rtasidagi aloqaning nafaqat biologik, balki madaniy va diniy jihatlarini ham o'z ichiga olganligini ko'rsatadi. Ma'lumotlar tahlili, onalik va bola obrazlarini qadimiy jamiyatlarda ijtimoiy struktura va

hokimiyat bilan chambarchas bog'langanligini ta'kidlaydi. Bu natijalar, o'z navbatida, tadqiqotning keyingi qismida kengroq muhokama qilinadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda O'zbek adabiyotida ona va bola obrazlarining tarixiy ildizlarini o'rganish orqali, bu obrazlarning jahon madaniyati va, xususan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqotda, ona va bola tasvirining qadimgi mifologiya va diniy manbalarda qanday ifodalanishi, "Avesto", "Iliada", "Gilgamish" dostonlari va boshqa qadimiy manbalar orqali talqin etilganligi yoritildi. Shu bilan birga, ona obrazlarining ijtimoiy, siyosiy va diniy kontekstda qanday rivojlanishi, ular orqali insoniyat madaniyatining eng qadimgi qadriyatlari qanday shakllanganligi tahlil qilindi.

Tadqiqotda olingan asosiy natijalar shundan iboratki, qadimiy manbalarda ona obrazlari faqat biologik emas, balki

ijtimoiy, siyosiy va diniy kuch sifatida ham tasvirlangan. Ushbu obrazlar ko'pincha hosildorlik, himoya va ezgulik timsoli sifatida qaralgan. Onalik obrazlari ko'plab madaniyatlarda birgalikda yaratuvchanlik, o'lim va qayta tug'ilishning sirli kuchlarini ifodalovchi ramzlar sifatida namoyon bo'lgan. Onaning diniy, siyosiy va ijtimoiy ahamiyati qadimgi jamiyatlarda ko'plab muhim qarorlar va ijtimoiy inqiloblarning markazida bo'lgan.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ona va bola tasvirining o'zaro bog'liqligi, ayniqsa qadimgi adabiyotlarda va mifologiyada aks etgan ona-odam, ona-tabiati, ona-din tasvirlarining o'zaro aloqadorligi o'rganildi. Tadqiqotning ahamiyatli xulosalaridan biri shuki, ona va bola obrazlari qadimgi mifologik va diniy tizimlarning markazida bo'lib, ular faqatgina biologik ona va bola o'rtasidagi aloqani emas, balki jamiyat va tabiat bilan bog'liq chuqur falsafiy, diniy va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettirgan.

ADABIYOTLAR

1. Cooper, D., & Phelan, C. (Eds.). (2019). *Motherhood in Antiquity: The Maternal in the Ancient World*. London: Routledge.
2. Graves, R. (1948). *The White Goddess: A Historical Grammar of Poetic Myth*. London: Faber & Faber. (Rev. ed. 1952, 1961; New York: Creative Age Press, 1948; New York: Alfred A. Knopf, 1958.)
3. Gimbutas, M. (1991). *The Civilization of the Goddess: The World of Old Europe*. San Francisco: Harper.
4. Balmut, Miriam S. *The Iliad and the Role of Women*. 1985. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
5. Dekster, Miriam Robbins. *Whence the Goddess: A Source Book on Women in Religion*. 1990. New York; Oxford, Etc: Pergamon Press.
6. Woodward, F. L., trans. *The Book of Gradual Sayings*, vol. I. London: PTS, 1995. Mahāpajāpatī 21 (Anguttara Nikāya I 24); Visākhā: 24 (A I 26).
7. Engels, David. Middle Eastern 'Feudalism' and Seleucid Dissolution. In *Seleucid Dissolution: The Sinking of the Anchor*, edited by Kyle Erickson and Gillian Ramsey, Wiesbaden: Harrasowitz Verlag, 2011.
8. Ardner, Edwin. Belief and the Problem of Woman. In *Perceiving Women*, edited by Shirley Ardner, New York: Halsted Press, 1978, 1–27.
9. Eshmurodov, Madamin. [Matn]: Monografiya. "Avesto" da tabiat kul'tlari talqini. M. Eshmurodov. Xorazm: Ogahiy nashriyoti, 2024. 176 b.
10. Akramov, Xasan. "Avesto"da sog'lom avlodni tarbiyalashning sotsial jihatlarini xususida. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(1), (2023). 885-893.



UDK:8-312.7:809.1(021)

Orif BOZOROV,

Qarshi Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, PhD

E-mail: bozorov-orif67@mail.ru

Qarshi davlat universiteti professori, f.f.d. D.Turayev taqrizi asosida

IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA TARIXIY – IJTIMOY VOQELIK TASVIRINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo adabiyotshunosligida epistolyar asarlar taraqqiyotiga e’tibor qaratilgan, jumladan, romanlarni tadqiq etish badiiy adabiyotning san’at turi sifatida tasavvur qilish imkoniyatlari xususida. Epistolyar janr tarixiy-ijtimoiy, maishiy voqelikni individual rakursdan yoritish, tarixiy voqelikka olingan qahramon taqdiri va inson ruhiyatini ochishga imkon berishdagi o’ziga xos xususiyatlari to’g’risida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: Epistolyar, xat, xabar, lirik, eligiya, ritorika, maktubot, rasoil, barokko.

СВОЕОБРАЗНОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ ИСТОРИКО-СОЦИАЛЬНЫХ СОБЫТИЙ В РОМАНЕ «БОНУ» ИКБОЛА МИРЗО

Аннотация

В данной статье обращено внимание на процесс развития эпистолярных произведений в мировом литературоведении. В частности, речь идет о возможностях исследований романов в качестве одной из сфер искусства в художественной литературе. Также представлены мнения об освещении в индивидуальном ракурсе историко-социальной, бытовой реальности, судьбы героя в исторической действительности и об особенностях в раскрытии человеческой психики в рамках эпистолярного жанра.

Ключевые слова: Эпистоляр, письмо, сообщение, лирика, элегия, риторика, расоил, барокко.

A PECULIAR DEPICTION OF HISTORICAL AND SOCIAL EVENTS IN THE NOVEL “BONU” BY IQBOL MIRZO

Annotation

This article focuses on the process of development of epistolary works in the world literature. In particular, we are talking about the possibilities of researching novels as one of the areas of literature. Opinions are also presented on the coverage of historical, social, everyday reality, the fate of the hero in historical reality and on the features of human psyche disclosure within the framework of the epistolary genre from an individual perspective.

Key words: Epistolary, letter, message, lyrics, elegy, rhetoric, racoil, baroque.

Kirish. Epistolyar romanlar asosan, ishqiy-sentimental xarakterda, oshiq-ma’shuqlarning yozishmalaridan iborat bo’ladi. Biroq ijodkor g’oyaviy-badiiy niyatga ko’ra shu yozishmalar orqali ham ijtimoiy voqelik manzaralarini berishi mumkin. Aslida roman spetsifikasi qahramon sarguzashtlari yoki konsentrik fabula asosida muayyan tarixiy davrning keng manzaralari orqali siyosiy, ijtimoiy, axloqiy muammolarni aks ettirishni nazarda tutadi. Jahon adabiyotining har qanday yetuk romanida shunday. Binobarin, romanning epistolyar xarakterda bo’lishi ham janrning bu spetsifik xususiyatini keskin o’zgartirib yubormaydi. Kuzatishlarimiz shuni ko’rsatdiki, “Bonu”ni to’la ma’noda ijtimoiy roman deyish mumkin. Chunki yozuvchi Bonuning sarguzashtlari orqali tarixiy-ijtimoiy davrga o’z bahosini bergan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqbol Mirzoning “Bonu” romani milliy tarixning muayyan davriga xos ijtimoiy voqelikni keng tasvirlashdan iborat g’oyaviy-badiiy maqsadda yozilgan. Adib buning uchun yosh ayol Bonuni bosh qahramon sifatida tanlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy hayot manzaralari talabalarning paxta yig’im-terimiga o’tlanishidan boshlanadi. Adib o’nlab yillar mobaynida butun boshli xalqni – rahbaridan tortib maktabning go’dak o’quvchilarigacha qattiq xo’rlagan adolatsizlikni Bonuning talabaligi manzarasida real chizib ko’rsatadi. U paytlarda “xalqning ongu shuuriga paxta muqaddas deb singdirilib, g’o’za iloh darajasiga olib chiqib qo’yilgan edi”. Bonu kollejda o’qiydi, hasharga ketish arafasida qo’l telefoniga pul tushirmoqchi bo’ladi, mana shu kichik tafsilotlar bu voqealar mustaqillik yillarida bo’layotganini anglatadi. Chunki sho’ro davrida kollej ham, qo’l telefonlari ham bizda bo’lmagan. Demak, Iqbol Mirzo adiblar ichida birinchilardan bo’lib mustaqillik davrining sho’ro inersiyasida davom etayotgan salbiy voqeligini, jumladan paxta yakkahokimligini ham qalamga olgan.

“Bonu” romani epistolyar shaklda yozilgan bo’lsa-da, ko’proq odatdagi epik prozani esga soladi. Chunki unda voqealar shu darajada batafsil, kichik-kichik tafsilotlari bilan, dialoglar

ham to’liq-to’liq beriladi. Bonu telegram ijtimoiy tarmog’i orqali xat yozayotgandan ko’ra, qo’liga qalam olib batafsil kundalik yozayotganga, o’tmish voqealarni o’zi uchun ipidan-ignasigacha xotiradan o’tkazayotganga o’xshaydi. U go’yo kundalikdan iborat katta bir roman yozgan, o’shani bo’lib-bo’lib xat shaklida telegramdan yozuvchiga jo’natgan kabi taassurot tug’iladi. Chunki asarda xatdan ko’ra an’anaviy proza usuli ustuvorroq; xatning an’anaviy shablonlari hamma vaqt ham ishlatilmaydi.

Roman oilaviy-maishiy hayot sahnalari, Bonuning xotiralari, muhabbat iztiroblari, oilasidagilar bilan katta-kichik to’qnashuvlari tasviridan boshlanganadi-yu, Bonu hayoti fonida millat hayotining katta ijtimoiy voqealari tasviriga o’tiladi. Adib bir ayol kechmishlari fonida millat hayotining katta tarixiy davrini, shu davrning muhim ijtimoiy voqealarini badiiy tafakkur sathiga olib kiradi.

Ota vafotidan keyin Bonuning akasi qarzini to’lash bahonasi bilan bobosining hovlisini sotuvga qo’yadi. “Erimning Rossiyaga borib ishlab topganini...” deydi akaning xotini. Mana shu joydan romanga mehnat muhojirligi mavzusi kirib keladi. Ishsizlik, yo’qchilik akani ish izlab xorijga ketishga majbur qiladi. Bu yoqda esa ro’zg’or g’oridan tashqari “bir-birini yetaklab keladigan ma’raka”lar – janoza, begoyi juma, uchlik, yettilik, yigirma kabi ortiqcha rasm-rusumlar ham oilaning iqtisodiy ahvolini tang qiladi.

Umuman olganda, oila a’zolari o’rtasidagi munosabatlar, uning ko’pincha moddiylikka asoslanishi ham milliy muhitdagi katta ijtimoiy fojia o’laroq idrok etiladi. Aynan mol-mulk, pul tufayli aka onasi va singlisini aldaydi, ularni yolg’iz tashlab ketadi, qarindoshlari Bonu va onasiga faqat manfaat yuzasidan yaxshi yoki yomon yoki loqayd munosabatda bo’ladilar. Aynan moddiy manfaat tufayli Olmos Bonuni ming kuyga soladi. Nega? Nega ma’naviy-ma’rifiy yuksak bir xalqning avlodlari bo’lgan zamonamiz odamlari bu qadar moddiyunlashib, bu qadar tubanlashib ketdi? Ma’rifatliдек bo’lib ko’ringan odamlar nega johlilning ishini qiladi? Yuz yillar oldin jadidlar jaholat,

boylarning hamiyatsizligi, to'y-ma'rakalarning millatni xarob qilishi, odamlarning dunyoviy ilmlarni egallashga intilmasligi, amaldor va boy odamlar, hatto din peshvolarining buzuvchilik va kayf-safoga berilgani, xurofot, shundan mamlakatning xarob va qoloqlikka, tanazzulga yuz tutganligini juda qattiq tanqid qilib yozganlar. "Bonu" romanidagi voqealar yuz yildan keyin ham umummilliy kontekstda ahvol deyarli o'zgarmaganligini, yetmaganiga mehnat muhojirligi, bir-birini aldash, firibgarlik kabi zamonaviylari qo'shilganini ko'rsatadi.

Romanda xurofot ham ijtimoiy fojia o'laroq ko'zga tashlanadi. Otaning vafoti bilan bog'liq ortiqcha tadbirlar, Xoja Ubbon avliyoning mozoridagi voqealar, quritilgan ilon va chayon bilan davolaydigan, yana biri giyoh bilan davolaydigan tabiblaru oq echki-qora echki so'yish bilan bog'liq voqealar orqali adib jaholat hali katta kuch ekanligidan o'quvchini ogohlantiradi go'yo.

Bir qarashda bu voqealarning yaqin yillarda sodir bo'lganiga kishining ishongisi kelmaydi. Albatta, bu yerda cho'kayotgan odamning xasga yopishishi kabi holat ham bor. YA'ni davosiz dardga yo'liqqa sho'rlik xastalar to'g'riminoto'g'rimi har bir ishni qilishga tayyor. Odam butunlay chorasiz, umidsiz qolganda sog'lom aqlga to'g'ri kelmaydigan ishni yoki o'zi bir paytlar qoralagan harakatni qilishi bor gap; bu go'yo jamiyatga aloqasi yo'q hodisadek ko'rinadi. Ammo insonning butunlay umidsizlikka tushishi jamiyatdagi umumiy ahvol bilan zimdand bog'langandir. Chunki Bonuday imon-e'tiqodli, o'qimishli, zamonaviy ilmlardan boxabar qizning ham o'sha xurofotlarni yengib o'tolmagani faqat individual ahvoli yoki xarakter xususiyatlari bilan emas, balki jamiyat uning genlariga, ongiga zimdand singdirgan tasavvurlarga ham borib taqaladi. Uzoq davrlar hukm surgan mustamlaka, yo'qsillik, zulmu zo'ronlik, xalq xohish-irodasini mahv etgan monarxiya, avtoritarizm asta-sekin, izchillik bilan va syezdirmay odamlar ongida umidsizlik, o'z kuchiga ishonchsizlik, ko'rinmas kuchlardan madad kutish, harakatsizlik, taqdir va hokimiyat qarshisida o'zini ojizu notavon deb bilish va shundan kelib chiqadigan loqaydlik, qo'rquv, munofiqlik kabi xavfli illatlarni muhrlagan. Oliygozdagi to'rt-besh yillik o'qish, mustaqillikning bir necha yillik havosi yoki mustaqillik tufayli berilgan qisqa muddatli e'tiqod erkinligi bilan bu dahshatli illatlarni odamlar ongidan darhol sidirib tashlash oson emas. Iqbol Mirzo bir qaraganda oddiy, ammo yo'qotish, yangilash nihoyatda mushkul bo'lgan ana shunday illat va fojialarni real hayotiy voqealar orqali katta mahorat bilan ochib ko'rsatgan. Ikromiddin aka voqeasi orqali ham jamiyat inson ongiga, ongostida qoldiradigan jarohatlar, insonning "genofond"ini o'zgartirib tashlaydigan ijtimoiy buzilishlar qalamga olingan.

Bonu ducher bo'lgan, guvohi bo'lgan fojialar bir-biriga zanjirday ulanib ketaveradi. Jamiyatdagi yangilanishlarni o'z manfaatiga burib yuborgan amaldor, korchalonlarning goh pul, goh hokimiyat kuchi bilan halol tadbirkorlarni maydondan surib chiqarishi ayni roman tasvirlangan tarixiy davr voqeligidir. Bonuga betama, beminnat yaxshilik qilgan Ikromiddin ham shunday bir mulozimning ochko'zligi tufayli baloga giriftor bo'ladi. "Poytaxtga arz qilaman, haqiqat qilishar..." degan qahramon soxta ayblovlar bilan uzoq yilga qamalib ketadi. Oila bor-budidan ayrilib, yo'qil ahvolga tushib qoladi. Yuqori doiralardagi, sudlardagi adolatsizliklar, ruhiy bosim va umidsizlik, adolat o'z o'rnini topishiga ishonchning yo'qolishi halol va qonunga itoat qiladigan qahramonlarni qing'ir yo'llardan najot izlashga majbur qiladi; kimlargadir pora berish bilan ish bitirmoqchi bo'lshadi. Ammo jamiyatda qonun ustuvorligiga, haqiqat tantanasiga ishonch yo'qolganidan foydalangan firibgarlar toifasi ham shakllanib bo'lgan edi. Bonu va Shoir o'shalarga aldanib, qora mehnat, ter va qon evaziga topilgan pullaridan ajralib qoladilar. Yana bir toifa firibgarlar esa "aka mendan qarz olgan edi" degan yolg'on da'vo bilan bir nimalik bo'lib qolishga urinadi. Qo'rquv shu darajada kuchli ediki, hatto qarindoshlar ham "qo'ng'iroq qilsak bir baloga giriftor bo'lib ketmaylik degan

Odatda o'zlashgan so'zlar kirib kelayotgan tilning fonetik, grammatik, orfografik qonuniyatlari ta'siridan o'tadi. Bu jarayonlardan keyin o'zlashma so'zlarni ajratib olish birmuncha qiyin bo'lib qoladi. Bu muammo bilan birinchilardan bo'lib nemis filologlari shug'ullangan va o'zlashgan so'zlarni aniq qilib farqlab berish bir qancha sabablarga ko'ra qiyin ekanligini aytib o'tishgan. Shunga qaramay tilshunoslik olamida o'zlashgan so'zlarning tasnifi bo'yicha ko'plab ishlar bajarildi va ilmiy fikr – mulohazalar berildi[2].

Ma'lum bir tilga o'zga tildan so'zlarni turli xil sohalar orqali o'zlashtirilsa, ularning miqdori ham salmoqli bo'ladi. Hozirgi amaldagi ingliz tili so'z boyligining ko'p qismining shakllanishida ijtimoiy – siyosiy va lingvomadaniy munosabatlari sababli asosan lotin – fransuz va skandinaviy xalqlari so'zlarining o'zni kattadir. Bu so'zlar asosan kundalik hayotda ishlatiladigan agro – texnik predmetlar, voqea – hodisalarni bildiradigan so'zlar bo'lganligi uchun ular amaliy so'z boyligi degan nomga ega bo'lishdi.

Ko'p asrlar davomida xalqlarning turli sohalarida ijtimoiy – siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar natijasida so'zlarning bir tildan boshqa tilga o'zlashishini lingvokulturologik jarayon sifatida ko'rishimiz mumkin. Muloqotda so'z oluvchi til va manba til xalqlari ijtimoiy – madaniy holati deyarli bir xil bo'lsa, so'z o'zlashtirish darajasi oz miqdorda bo'ladi. Agarda bir xalq ikkinchi xalqdan rivojlanish borasida ustunroq bo'lsa, rivojlanishi pastroq bo'lgan xalqqa ijtimoiy – siyosiy va madaniy – ma'rifiy ehtiyojlarni to'ldirish maqsadida so'zlar ko'chadi. Buning natijasida o'zga xalqqa tegishli bo'lgan predmet va voqea – hodisalar qabul qiluvchi tilga kirib keladi. Bunday holatda

o'zlashtirilayotgan so'zlar asl shaklda kirib keladi va oqibatda tilning lug'at tarkibi yangi so'zlar bilan boyidi.

O'zlashtirilgan so'zlarning ijtimoiy lingvistik holati jamiyat va til orasidagi muhim munosabatlari qatorida bo'lib, jahon va mahalliy tilshunos olimlari quyidagi fikrni bayot etadilar (Kostomarov V.G[17]; Lisakova I.P[20]; Pospelova G.M[23]; Shveytser A.D[28]; Benvenist E[6] va boshqalar). "Til orqali insonning inson bilan yoki tabiat bilan munosabatini aks ettirish jamiyat haqida so'zlashni anglatadi. Bu tarixiy tasodif emas, balkim zaruriy bog'liqlikdir"[7].

Ilmiy izlanish davomida lug'at rivojida tilning ichki tuzilish qonuniyatlari bilan farqlanganda ekstralingvistik voqelikning ahamiyati haqida ham gapiramiz. Ijtimoiy lingvistika o'z nomi bilan ijtimoiy va lingvistik xarakteriga egadir. Lingvistik konsepsiyaning lingvistik tabiatini tavsiflashda lingvistik omillar, ijtimoiy holatini tavsiflashda esa faqat nolingvistik omillar hisobga olinadi. Bu o'zlashtirilgan so'zlarning kelib chiqishini va rivojini aniq tasvirlashga ko'mak beradi.

Lingvistik faktorlar tilning shakliy va tizimli xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillardir. Ekstralingvistik faktorlar – til rivojiga tashqi ta'sir o'tkazuvchi omillar misol uchun adabiyot – san'at, ilmiy – texnikaviy rivoj, psixologiya, ijtimoiy – siyosiy tizim va ko'plab omillardir.

Bir necha madaniyatning o'zaro aloqasi leksik so'z o'zlashtirishda, ya'ni chet til so'zining ona tiliga kirib kelishiga sabab bo'ladi. Bu so'zlarning paydo bo'lishi va kelajagi asosan bir jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy holatini aks etuvchi til holatiga bog'liqdir. Til holati va kommunikativ munosabati tarixan belgilanadi va o'tmishdagi vaziyatdan kelib chiqadi, shuningdek kelajakdagi rivojlanish holatini saqlaydi[16]. Bu hodisani o'rganishda ijtimoiy omillarning so'z o'zlashtirishga to'g'ridan to'g'ri ta'sirini va kirib kelgan so'zlarning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyatini ko'rib chiqishimiz kerak. Ularni tahlil qilish lingvistik va ijtimoiy xususiyatlariga bog'liqdir.

Uzoq vaqtdan buyon o'zlashma so'zlarning yaralishiga sabab bo'lgan omillar ko'plab baxslarga uchragan va munozaralar olib borilgan. So'z o'zlashtirishning lingvist va nolingvistik sabablari XIX - XX asrlar oralig'ida tadqiqotlarda keng ko'lamda ko'rib chiqilgan.(Balli Sh.[5]; Ogenko N.I.[22]). O'tgan asr o'rtalarida Boduen de Kurtene[1], V.A. Bogoroditskiy[8], V.M. Jirmunskiy[14], B.A.Larin[18] singari filologlar leksik so'z o'zlashtirishni sotsiologik ko'lamda tavsiflashgan. B.A.Larin fikricha tilning taqdiriga bevosita ta'sir etuvchi omillar bu siyosiy kuchlar, madaniyat va ijtimoiy yashash sharoitlaridir[19].

V.A.Bogoroditskiy, "Odatda so'z o'zlashtirish dastlab yuqori qatlam namoyondalari tomonidan, so'ngra oddiy xalq tomonidan kundalik nutqqa ko'chadi. Bu ko'p hollarda ijtimoiy va madaniy omillarga ko'ra so'zlarni o'zlashtirish yoki o'zlashtirmaslikka bog'liqdir" deya izohlaydi[9].

Boduen de Kurtene o'zlashma so'zlarni asosan lingvistik va ekstralingvistik omillarga ya'ni azaldan hududiy jihatdan bir – biriga qo'shni bo'lgan, qarindosh urug'chilik bilan bog'lana olgan, tillari esa umum negizga ega bo'lgan yoki o'xshash bo'lgan turlariga ajratadi. Uning nazlida asosiy sabab bu geografik jihatdan yaqin joylashuvi va qardosh millat bo'lishligidir[10].

Darhaqiqat ekstralingvistik omillarni tahlil qilayotganda lingvistik omillarga alohida e'tibor qaratish kerak.

XXI asr xorijiy filolog olimlarining asarlarida duolinguallik va ularning nufuzi, individual dualinguallik, multilinguallik[13], muammolari ham ko'rsatib o'tilgan. V.Y. Rozenzveyg asosan so'zlovchi xalqning ijtimoiy – siyosiy holatini tasvirlagan[24].

"Ma'lum bir tilning elementi boshqa bir tilda paydo bo'lib, mustaqil holda rivojlanib ketishi imkonsiz" deya so'z yuritadi E.Haugen so'z o'zlashtirishning tarixiy xususiyatiga yondashgan holda va bu jarayonning birma bir bosqichini o'rganishni e'tirof etadi[1]. V.Y.Rozenzveygning fikricha til aloqalari nazariy masaladan allaqachon davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy masalaga aylanib bo'lgan[25]. Shuningdek chet el zamonaviy tadqiqotchilar tillar bilan o'zaro bog'lanishda ekstralingvistik omillarni eng keraklik ahamiyatga ega deya ta'riflashadi. "Tillarning o'zaro munosabatida ularning o'zgarish darajasi, ma'lum bir qismi yo'q bo'lgunga qadar o'zgarishi va tezligi ijtimoiy – tarixiy sharoitga bog'liqdir"[25].

Ta'kidlab o'tilgan olimlarning o'zaro fikridan ma'lum bo'ldiki, tillarning aloqa munosabatining sotsiolingvistik mohiyatini ochishda so'z o'zlashtirish asoslari va sababi keng ko'lamda munozaralarni taqozo etyapti. Binobarin chet tilidan so'zlarning boshqa tilga ko'chishida ekstralingvistik sabablar asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bir tildan boshqa bir tilga o'zlashgan so'zlar bir xalqning tarixiy – madaniy, ijtimoiy – siyosiy jarayonidagi xilma xil qatlamlarga

aloqador turli tushunchalarni bildiruvchi, ma'lum bir ijtimoiy qatlam tomonidan bir ma'no va mazmunda ishlatiladigan til birliklaridir. Demak, fan-texnika rivojlanishi davom etgan sari ingliz tilidan kirib kelayotgan o'zlashma so'zlar ham oshib boraveradi. Bu esa o'zbek tili lug'at boyligi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday til lug'at miqdori obyektiv va subyektiv omilga bog'liq holda oshib boraveradi va hech qanday til bunday tashqi omillarning ta'sirizis rivojlana olmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Haugen E. The ecology of language - Stanford, 1972.- XIYV – 345 p
2. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T. O'qituvchi. 1979. 6-bet.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-tom. 498-bet.
4. Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug'at. –T. O'zbekiston. 1983. 6-bet.
5. Балли Ш. Французская стилистика. - М.: Иностранная литература, 1961.-394 с.
6. Бенвенист Э. Общая лингвистика. Под ред. Ю.С. Степанова. - М.: Прогресс, 1974. - 447 с.
7. Бенвенист Э. Общая лингвистика. Под ред. Ю.С. Степанова. - М.: Прогресс, 1974. - 31 с.
8. Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. М. -Л.: Соцэк-гиз, 1935.-218 с.
9. Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. М. -Л.: Соцэк-гиз, 1935.-29 с.
10. Бодуэн де Куртенэ И.А. Проблемы языкового родства. // Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Изд-во АН СССР, 1963. - т.2. - 342 -С. 347.
11. Бодуэн де Куртенэ И.А. Проблемы языкового родства. // Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Изд-во АН СССР, 1963. - т.2. - 342 С.
12. Габинский М. Проблема лексического заимствования и единый критерий. //Учёные записки Института языка и литературы АН МССР, т. 10,1961.-С. 149-160.
13. Гавранек Б. К проблематике смешения языков. // Новое в лингвистике, вып. 6. - М.: Прогресс, 1973. - С. - 86.
14. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание: Избранные труды. - Л.:Наука, 1976.– 692с.
15. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание: Избранные труды. - Л.:Наука, 1976. – 169с.
16. Жлукгенко Ю.А. Языковые ситуации и взаимодействие языков. - Киев: Наукова думка, 1989. - 3 с. 204 с.
17. Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. - М.: Педагогика Пресс, 1994. -248 с.
18. Ларин Б.А. К лингвистической характеристике города. // История русского языка и общее языкознание. - М.: Просвещение, 1977. - С. 189 - 199.
19. Ларин Б.А. К лингвистической характеристике города. // История русского языка и общее языкознание. - М.: Просвещение, 1977. - С. 192.
20. Лысакова И.П. Тип газеты и стиль публикации. Опыт социолингвистического исследования. - Л.: ЛГУ, 1989. - С. 14 - 22.
21. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т: 1995. 35-bet.
22. Огиенко И.И. Иноземные элементы в русском языке. История проникновения заимствованных слов в русский язык. - Киев, -1915. - 186 с.
23. Поспелова Г.М. Социальные ориентации общества в зеркале прессы. // Вестник МГУ. Серия 10. Журналистика, 1991. - № 5 - 6. - С. 22 - 34, 44 -59.
24. Розенцвейг В.Ю. Основные вопросы теории языковых контактов. // Новое в лингвистике, вып. 6.1972. - С. 18
25. Розенцвейг В.Ю. Основные вопросы теории языковых контактов. // Новое в лингвистике, вып. 6.1972. - С. 5-22.



UDK:811.08

Dilfuzaxon QOZOQBOYEVA,
ADChTI dotsenti, PhD
E-mail: shohbegim@list.ru

ADU dotsenti, PhD D.Shokirova taqrizi ostida

TURLI TIZIMLI TILLARDA LOR TERMINLARINING XALQ VA ILMIY TILDA QO'LLANILISHI VA FARQLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi LOR (laringologiya, otologiya, rinologiya) sohasiga oid asosiy terminlarning xalq tilidagi va ilmiy tilidagi nomlanishi va ularning qo'llanishi masalasi boy ma'lumotlar va misollar asosida keng va tizimli tarzda tahlil qilinadi. Har bir terminning o'zbek, rus hamda ingliz tillaridagi shakllari, kontekstga ko'ra ma'nolari hamda oddiy va ilmiy so'zlashuvda qanday o'rin tutuvchi jihatlari ko'rsatiladi. Misollar yordamida ilmiy va xalq terminlarining farqlari, bemor va mutaxassislar o'rtasida yuzaga keladigan kommunikativ qiyinchiliklar va ularning samarali hal qilinish yo'llari muhokama qilinadi. Bu tahlil LOR sohasida terminlarning to'g'ri tanlash va ishlatilishi orqali tibbiy axborot almashinuvi va bemor bilan o'zaro muloqotni yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: LOR, terminologiya, laringologiya, otologiya, rinologiya, xalq tili, ilmiy til, tibbiy kommunikatsiya, sinonimik atamalar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И РАЗЛИЧИЯ ЛОР-ТЕРМИНОВ В ПОПУЛЯРНОЙ И НАУЧНОЙ РЕЧИ В ЯЗЫКАХ С РАЗНЫМИ СИСТЕМАМИ

Аннотация

В работе рассматриваются отличия и особенности употребления основных терминов по ЛОР (ларингология, отология, ринология) на английском, узбекском и русском языках, как в научной, так и в повседневной речи. Включены примеры реальных ситуаций, связанных с интерпретацией и переводом терминологии в разграничении научных и народных выражений. Статья подробно иллюстрирует роль точных и популярных наименований с точки зрения эффективной межличностной коммуникации, информирования пациентов и успешного ведения врачебной практики.

Ключевые слова: ЛОР, терминология, ларингология, отология, ринология, просторечие, научный язык, медицинская коммуникация, синонимичные термины.

USAGE AND DIFFERENCES OF LOR TERMS IN POPULATION AND SCIENTIFIC SPEECH IN LANGUAGES WITH DIFFERENT SYSTEMS

Annotation

This article presents a comprehensive comparison of scientific and vernacular use of LOR (Laryngology, Otolology, Rhinology) terminology in English, Uzbek, and Russian, supplemented by illustrative examples. The analysis investigates how terms shift in meaning and application across languages and registers, with examples highlighting practical challenges in communication and translation. These observations illustrate the vital role of clear terminology selection for successful doctor-patient interaction and cross-professional understanding.

Key words: ENT, terminology, laryngology, otology, rhinology, colloquialisms, scientific language, medical communication, synonymous terms.

Kirish. Tibbiyot fani taraqqiyoti zamonaviy bilim va texnologiyalarning tubdan o'zgarishi bilan birga, terminlarni aniq va mos ishlatishni ham talab qilmoqda. Ayniqsa, LOR (laringologiya, otologiya, rinologiya) sohasida bemor bilan shifokor o'rtasida yoki mutaxassislararo hamkorlikda terminlarning aniq va to'g'ri tanlovi samarali aloqaning asosi bo'la oladi. Shu ma'noda, ilmiy atamalar va oddiy xalq tili atamalarining o'zaro munosabati, har birining ahamiyati va cheklovlari haqida miqdoriy va sifatli misollar keltirish, mavzuni yanada yoritishga xizmat qiladi. Zamonaviy tibbiyotda ishlatiladigan ilmiy terminlarning soni va ko'lamiga o'zgarishlar bo'ladi. Ayniqsa, yangi texnologiyalarning tatbiqi natijasida terminologiya yanada boyib bormoqda, bu esa shifokorlar va ilmiy tadqiqotchilar orasida terminlardan to'g'ri va yagona foydalanish zaruratini tug'diradi. Aks holda, noaniqlik yoki noto'g'ri tushunishlar bemorlarga noto'g'ri tashxis qo'yilishiga yoki davolanish jarayonida xatoliklarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, tibbiyotda terminlarni to'g'ri va bir xil mazmunda ishlatish qoidalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ilmiy terminlarning oddiy xalq tiliga mos tarjima qilinishi orqali bemor va aholining tibbiyot sohasiga oid bilim va tushunchalari oshadi, bu esa o'z navbatida sog'liqni saqlash tizimi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

LOR terminologiyasi – klinik semantika, muloqot soddaligi va xalqona ekvivalentlarni o'zida mujassam etgan juda murakkab tizimdir. Tibbiyot adabiyotlarida “medical plain

language” (yengil tibbiy til) haqidagi konsepsiya mavjud: bu, bemorning kundalik nutqidan ilmiy yozuvga so'z tanlashdagi tafovutlarni, sinonimlar va shikoyatlarni umumlashtiradi. Ingliz, rus va o'zbek tillarida ham bemor shakllantiradigan (sintetik, xalqona) atamalar va shifokor ishlatadigan (analitik, ilmiy) terminlar mavjud: masalan, “quloq og'rihi” — “earache”, “болит ухо” va “otitis media” — barchasi bir muammoni turlicha ataydi, lekin klinik protokolda faqat ilmiy versiya rasmiy hisoblanadi.

Terminologik tafovutlarga bir necha nazariy sabablar bor:

Lingvistik turlicha struktura. O'zbek va rus tilida ko'pincha simptom yoki tashqi belgilar asosida atamalar yasaladi (masalan, “burun oqiyapti”, “насморк”), ingliz va ilmiy tilda esa kasallik nomi yoki lotin-ellin ildizi qo'llaniladi (“rhinitis”).

Sinonimiya va polisemantik holatlar. Bir-biriga yaqin, lekin turli ma'no va kontekstlarda ishlatilishi sababli noto'g'ri tarjima yoki noto'g'ri tuzatmalarga olib kelishi mumkin.

Madaniyat va kommunikatsiya. Bemorning kasallik haqidagi tasavvuri va so'z tanlovi sog'liqni saqlash sohasidagi natijaga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy adabiyotlar, masalan, “Oxford Handbook of ENT and Head and Neck Surgery”da bemor shikoyatini yozib olish va uni standart klinik terminlarga aylantirish usullari keng yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ayniqsa zamonaviy lug'at va monografiyalar, ushbu terminlarning xalq va ilmiy kontekstda qo'llanishi, sinonimik va semantik tafovutlarni aniq ko'rsatadi.

Oxford Handbook of ENT and Head and Neck Surgery (2021)da LOR terminlari to'liq tizimlashtirilgan, har bir kasallik uchun xalqona iboralar va qisqargan atama variantlari keltirilgan.

“Оториноларингология” rus monografiyasida (Пальчун, 2020) klinik tavsif bilan birga, bemor va shifokor orasidagi suhbat namunalari yordamida til va termin tanlashdagi muammolar ko'rsatiladi.

So'nggi maqolalar (Springer, 2021) esa zamonaviy tibbiy axborotlarning o'zaro almashinuvida yagona terminologiya muhimligini alohida ta'kidlaydi.

Shuningdek, internet resurslari va amaliy intervyular natijasida xalq tilidagi iboralar, mintaqaviy farqlar, shifokorlarning kasbiy nutqidagi o'ziga xosliklar ham ko'rib chiqildi.

Ushbu tahlil uchun asosiy LOR terminlari (masalan, “rhinitis”, “otitis”, “laryngitis”, “tonsillitis” va boshqalar) ingliz, o'zbek va rus tillarida puxta tanlab olindi. Terminlarni tanlashda ularning tibbiy terminologiyadagi aniq ta'riflari, sinonim va xalqona ishlatish shakllari ham inobatga olindi. Har bir termin bo'yicha ilmiy tibbiy hujjatlar, monografiyalar, maqolalar, sohalik maxsus tibbiy lug'atlar, shuningdek, tajribali LOR shifokorlari, otorinolaringologiya amaliyoti bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, va kundalik hayotda bu terminlarni ishlatadigan oddiy bemorlar nutqidan to'plangan real namunalar asosida keng qamrovli ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Natijada, har bir terminning sinonim va xalqona nomlari, shuningdek, ularning kasbiy so'zlovchilar va oddiy odamlardagi ishlatilish chastotasi va nutqdagi o'rni turli didaktik va sotsiolingvistik jihatlarida chuqur taqqoslab tahlil qilindi. Ma'lumotlar misollar orqali terminlarning xilma-xil kontekst va kasbiy ixtisoslik, til darajasidagi qo'llanilishi batafsil yoritib berildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tilida, masalan, “rhinitis” atamasi faqat kasbiy-lingvistik kontekstdagina “yengil burun yallig'lanishi”ni bildiradi. Ingliz tilida oddiy odamlar o'zaro so'rashganda ko'pincha “runny nose” yoki “cold” deb atashadi. O'zbek tilida esa kundalik hayotda “burun shamollashi”, “burun oqarishi” istilohlari keng tarqalgan, biroq tibbiy yozuv va so'zlashuvda ko'proq “rinits” ishlatiladi. Rus tilida esa ilmiy tibbiy atama - “ринит”, lekin oddiy odamlar ko'proq “насморк” deyishadi. Masalan, shifokorga murojaat qilgan bemor: “Doktor, menga nasmark tegib qoldi”, deb murojaat qilsa, shifokor kartada “Острый ринит” yoki “Острый насморк” deb yozadi.

Boshqa misol: “otitis” (quloq yallig'lanishi). Ingliz tilida tibbiy hujjatlarda “otitis media” yoki “ear infection” qisqartmasi uchraydi. Oddiy so'zlashuvda esa bolasi kasal bo'lgan onaning so'zi: “My child has an earache”, yoki “He has an ear infection”. O'zbek oilalarida “Quloq og'ridi”, “quloq shamolladi”, “quloq yallig'landi” degan iboralar ko'proq ishlatiladi. Tibbiy ko'rik natijasida esa kartada “otit” yoki “otitis” yoziladi. Rus bemorlari ese bolalarida “otit” bo'lsa, “У ребёнка болит ухо, наверное, это отит” deb murojaat qilishadi.

Yana bir keng tarqalgan termin – “pharyngitis”. Ingliz tilida bu so'zni “sore throat”, “inflammation of the throat” orqali ifodalaydi, shuningdek, tibbiy yozuvlarda “pharyngitis” aniq tashxis sifatida beriladi. O'zbek tilida oddiy insonlar “tomoq og'rishi” yoki “tomoq yallig'lanishi” deydi, biroq mutaxassislar “faringit” so'zini ishlatishadi. Rus tilida esa “фарингит”, oddiy so'zlashuvda “болит горло”. Masalan: “Bolanzida tomoqda yallig'lanish bor – faringit”, yoki bemor aytadi: “Meniki shunchaki tomoq shamollagan”, shifokor esa: “Bu faringit ekan”.

Ushbu misollar orqali har bir til va kontekstda terminlarning kundalik va ilmiy shakllari mavjud bo'lib, bemor va mutaxassis o'rtasida to'g'ri va samarali aloqa qilish uchun kontent tanlash zarurligi ayon bo'ladi. Kundalik hayotda ishlatiladigan atamalar ba'zida ilmiy til bilan solishtirganda ancha soddaroq yoki tushunarli bo'lishi mumkin, biroq tibbiyot sohasida aniq va chalkashliksiz tushuncha almashinuvi uchun ko'pincha ilmiy terminologiyadan foydalanish lozim bo'ladi. Shu sababli, mutaxassislar va bemorlar o'rtasida samarali va ishonchli muloqot o'rnatishda, har doim kontekstga mos, to'g'ri tanlangan terminlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, sog'liqni saqlash sohasida xizmat ko'rsatayotgan mutaxassislar uchun ham, bemorlar uchun ham yaxshiroq

tushunish va, natijada, davolash jarayonining samarali bo'lishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. O'rganilgan misollar shuni ko'rsatadiki, ilmiy terminlar kasb vakillari o'rtasida noaniqliklarning oldini oladi va xalqaro kommunikatsiyani osonlashtiradi. Misol uchun, chet davlatlardan kelgan bemor bilan ishlashda shifokorlar “rhinitis”, “otitis”, “pharyngitis” atamalaridan foydalansa, ular faqat aniq kasallikni bildiradi va noto'g'ri talqinlar deyarli yuzaga kelmaydi. Bu ayniqsa zamonaviy tibbiyotda dolzarb hisoblanadi, chunki ilmiy tildan foydalanish natijasida shifokor va bemor yoki shifokorlar o'rtasidagi muloqotda xato va tushunmovchiliklar bartaraf qilinadi. Bundan tashqari, tibbiyot mutaxassislari o'zaro xalqaro tajriba almashish jarayonida umumiy ilmiy atamalarga tayangan holda samarali hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqa tarafdin, xalq terminlari oddiy odamlar uchun tushunarliroq va esda saqlashga oson. Masalan, “quloq shamollash” yoki “tomoq og'rish” iboralarini keng tarqalgan bo'lib, bu atamalar yordamida shifokorlar bemorga kasallik haqida oddiy va tushunarli ma'lumot bera oladilar. Shu bilan birga, odamlar orasida keng ishlatiladigan ushbu so'z va iboralar kasalliklarning belgilarini osonroq tanib olish va boshlang'ich bosqichlarda profilaktika choralarini ko'rishda yordam beradi. Aslida, zamonaviy tibbiyot amaliyotida ilmiy va xalq tilining uyg'unligi betakror ahamiyat kasb etadi: mutaxassislar ilmiy aniq terminlarni ishlatishlari-da, ular zarur hollarda oddiy atamalar orqali bemorlarga kasallik tafsilotlarini sodda va tushunarli qilib yetkazishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Lekin, xalq terminlarining universal emasligi va mintaqaviy xususiyatlari tufayli ba'zan kasallik to'g'risida noto'g'ri tasavvur yoki chalkashliklar ham paydo bo'ladi. Masalan, “burun shamollash” atamasi ko'plab hollarda nafaqat oddiy shamollashni, balki boshqa kasallik yoki holatlarni, shuningdek, allergiyaga bog'liq bo'lgan rinopatiya holatiga ham nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bu esa kasallikni aniqlash jarayonida va aniq tashxis qo'yishda xatolikka olib kelishi yoki xatolik ehtimolini ancha oshirishi mumkin. Ayrim hududlarda bir kasallik o'rniga butunlay boshqa nomlar ishlatilishi, yoki mahalliy dialekt va urf-odatlariga asoslangan izohlar ham bo'lishi mumkin. Bu vaziyatda ham bemorlar, ham tibbiyot xodimlari o'rtasida tushunmovchilik, noto'g'ri axborot almashinuvi yuzaga chiqadi. Shunday ekan, shifokor xalq tilidagi terminologiyani ham, ilmiy nomlarni ham juda yaxshi bilishi, har ikki holatda ham kasallikning to'g'ri manosi va ko'lamini tushuntira olishi, bemorlarni aniq va ravon axborot bilan ta'minlashi juda muhim hisoblanadi. Faqat shundagina kasallikni to'g'ri baholash va muvaffaqiyatli davolash imkoniyati oshadi.

Bundan tashqari, ilmiy atamalarni xalq tilida aniq va sodda izohlab berish, har bir terminga hayotiy misollar keltirish orqali bemor va mutaxassislar o'rtasida ishonch va to'g'ri muloqotni rivojlantirish mumkin. Masalan, bolalarda “tonsillitis” tashxisi qo'yilganda, onalarga bu “bodomcha bezlari yallig'lanishi” ekani, uning asosiy belgisi tomoq og'rishi va harorat oshishi orqali ifodalanishini aniq-yu lo'nda tushuntirish zarur. Shuningdek, oddiy tilda tushuntirish bemorlarning o'z salomatligi haqida to'liq va to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishiga, kasalliklarning oldini olish choralarini bilib olishiga yordam beradi. Har bir ilmiy atama uchun amaliy ko'rinishda, ya'ni hayotdan olingan yoki kundalik hayot uchun tushunarli bo'lgan misollar berish, bemorlarning shifokorning tavsiyalariga to'liq amal qilishiga, tashxis va davo jarayonini to'g'ri anglab yetishiga ko'maklashadi. Bundan tashqari, shifokor va bemor o'rtasida ochiq muloqot o'rnatilib, davo samaradorligi oshadi, noto'g'ri tushunchalarning oldi olinadi. Misol uchun, “tonsillitis” atamasini oddiy tilga o'girib, uning sabab va oqibatlarini onalarga batafsil izohlab berish, ularni xotirjam qilish bilan birga, kerakli profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida bajarishga yordam beradi.

Xulosa. Keltirilgan misollar va tahlillar asosida xulosaga kelish mumkinki, xalq va ilmiy nomlardagi LOR terminlarining har biri o'ziga xos ahamiyat va rolga ega. Ayniqsa, tibbiyot sohasida kommunikatsiyaning samaradorligi uchun turli terminlardan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy va ilmiy ishlar uchun standartlashtirilgan, ilmiy asoslangan terminlarni tanlash, mutaxassislar o'rtasida aniq va bir xil

tushuncha almashinuvi uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga, bemor va aholi bilan ishlashda, oddiy odamlar uchun tushunarli va yengil qabul qilinadigan mahalliy yoki xalqona terminlardan foydalanish ularning kasallik to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishiga, profilaktik tadbirlarning to'g'ri bajarilishiga yordam beradi. Bu ikki yo'nalishga birdek e'tibor berish, ularni mos va

uyg'unlashtirib, ilmiy va amaliy ma'rifiy faoliyatni olib borish, jamiyatda sog'lomlik darajasining o'sishiga, profilaktika va davolash samaradorligining ortishiga, tibbiyot sohasida yutuqlarning ham oshishiga xizmat qiladi. Natijada, bu integratsiyalashgan yondashuv sog'liqni saqlash sohasida umumiy taraqqiyot va ijtimoiy manfaatlarining oshishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Oxford Handbook of ENT and Head and Neck Surgery. Oxford University Press, 2021
2. Терапевтическая оториноларингология. Под ред. В.Т. Пальчуна. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2020
3. Otorhinolaryngology: Head and Neck Surgery. European Manual. Springer, 2021
4. O'zbekcha-ruscha lug'at. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020
5. Academic articles and field interviews with practicing ENT specialists



UDK: 82.01/09

Shahlo QURBONOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: shakhlokurbonova15@gmail.com

IPU dotsenti, PhD S.Shukurova taqrizi asosida

JA'HON ADABIYOTIDA URUSH VA JANG TASVIRLARI YO'QOTILGAN AVLOD KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola XX asr boshidagi keng ko'lamli urush tajribalari va jang sahnalari orqali shakllangan "yo'qotilgan avlod" tushunchasining adabiy ifodalanishini ko'p qirrali metodologiya asosida tahlil etishga qaratilgan. Tadqiqotda urush tasvirlari, adabiy realizm va postmodernistik yondoshuvlar doirasida jang sahnalari orqali inson ruhiyatidagi travmalar, ijtimoiy tanazzullar va madaniy inqirozlar o'rganildi. Adiblar tomonidan o'z shaxsiy guvohliklari va tarixiy voqealarga asoslangan qat'iy realistik yondashuvlar orqali yaratilgan asarlar, insoniyatning eng murakkab azob-uqubatlari va mavjudlikning chuqur savollarini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va tarixiy tahlil metodlari yordamida, urush sahnalari orqali "yo'qotilgan avlod" tushunchasining shakllanishi va uning ijtimoiy-madaniy kontekstidagi ahamiyatini yoritishga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Urush tasvirlari, jang sahnalari, yo'qotilgan avlod, realizm, postmodernizm, adabiy estetik, psixologik travma, ijtimoiy tanazzul.

«ОБРАЗ ВОЙНЫ И СРАЖЕНИЙ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: КОНЦЕПЦИЯ ПОТЕРЯННОГО ПОКОЛЕНИЯ»

Аннотация

Настоящая научная статья посвящена анализу литературного выражения концепции потерянного поколения, сформировавшейся в результате обширного военного опыта и сцен сражений начала XX века, с использованием многоаспектной методологии. В исследовании изучаются военные образы, реализованные через художественный реализм и постмодернистские подходы, отражающие травматический опыт человеческой психики, социальный упадок и культурные кризисы. Произведения, созданные авторами на основе их личных свидетельств и строгих реалистичных подходов, обоснованных историческими событиями, играют важную роль в изображении наиболее сложных мучений человечества и глубоких вопросов бытия. Статья направлена на освещение формирования концепции потерянного поколения посредством сцен сражений и её значения в социально-культурном контексте с применением методов литературоведения, культурологии и исторического анализа.

Ключевые слова: Военные образы, сцены сражений, потерянное поколение, реализм, постмодернизм, литературная эстетика, психологическая травма, социальный упадок.

THE CONCEPT OF THE LOST GENERATION IN THE DEPICTION OF WAR AND BATTLE IN WORLD LITERATURE

Annotation

This scientific article is devoted to the analysis of the literary expression of the concept of the lost generation, which emerged as a result of extensive wartime experiences and battle scenes at the beginning of the twentieth century, employing a multi-faceted methodology. The study examines war imagery expressed through artistic realism and postmodern approaches, reflecting the traumatic experiences of the human psyche, social decay, and cultural crises. Works created by authors based on their personal testimonies and rigorous realistic approaches grounded in historical events play an important role in depicting the most complex sufferings of humanity and profound existential questions. The article aims to elucidate the formation of the concept of the lost generation through battle scenes and its significance within a socio-cultural context, using methods of literary studies, cultural studies, and historical analysis.

Key words: Wartime images, battle scenes, lost generation, realism, postmodernism, literary aesthetics, psychological trauma, social decay.

Kirish. XX asr boshidagi g'ayriodatiy tarixiy vaziyatlar, ayniqsa Birinchi jahon urushi, insoniyat tarixida tub o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy inqirozlar va madaniy transformatsiyalar davri sifatida e'tirof etiladi. Shu tarixiy davr sharoitida, urush va jang sahnalari adabiyotda o'ziga xos mavzu sifatida namoyon bo'ldi. Urush maydonining shafqatsiz haqiqatlari, adiblar tomonidan bevosita guvohlik asosida aks ettirilib, insonning ichki ruhiy kechinmalari, azob-uqubatlari va ijtimoiy tanazzullari bilan uyg'unlashdi [1]. "Yo'qotilgan avlod" tushunchasi esa, aynan shu tarixiy tajribalar natijasida shakllanib, urush voqealarini shaxsiy va madaniy kontekstda qayta talqin etishning adabiy vositasi sifatida o'z ifodasini topdi. Ushbu maqola o'zbek va jahon adabiyoti kontekstida urush tasvirlari hamda jang sahnalari orqali yaratilgan realizmning shafqatsizligi va uning "yo'qotilgan avlod" tushunchasining shakllanishidagi o'rni ustida chuqur tahliliy yondoshuvni namoyish etadi.

Buyuk Gatsby asari, F. Scott Fitzgerald tomonidan yaratilgan, Amerikaning birinchi jahon urushidan keyingi ijtimoiy-siyosiy va madaniy inqirozlarni aks ettiruvchi eng muhim adabiy asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda yo'qotilgan avlod tushunchasi orqali, avlodning an'anaviy qadriyatlarining parchalanishi, shaxsiy identitetning fragmentatsiyasi va madaniy

inqirozning yuzaga kelishi chuqur ifodalanadi. Maqola doirasida, asardagi markaziy motiv – yo'qotilgan avlod tushunchasi – insonlarning shaxsiy iztiroblari, jamiyatning normativ strukturalari va posturush davrining madaniy realitetlari bilan yuzaga kelgan murakkab dialektik munosabatlar orqali o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, asarda aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasining adabiy diskursdagi ifodalanishini, shaxsiy va kollektiv identitetning parchalanishi hamda yangi normativlarning shakllanishini aniqlashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ilmiy tadqiqotning ko'p qirrali metodologiyasidan foydalanadi, uning asosiy yondoshuvlarini adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va tarixiy tahlil tashkil etadi. Maqola doirasida urush va jang sahnalarining badiiy ifodalanishi, realizm va postmodernizm nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda, shuningdek, lingvistik, stilistik va semantik analiz texnikalari qo'llanilib, urush tasvirlarining madaniy va hissiy qatlamlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'rganiladi [2]. Tadqiqot, urush voqealari va "yo'qotilgan avlod" tushunchasining adabiyotda qanday aks etgani, va bu jarayonlarning inson ruhiyatiga ta'siri haqida chuqur tahlil o'tkazadi. Shu bilan birga, postmodernizm va realizmning

dialektik munosabatlari hamda tarixiy-madaniy kontekstdagi tafovutlar ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrning birinchi yarmida yuz bergan keng ko'lamli urushlar insoniyat tarixining siyosiy va harbiy burilishlari bilan bir qatorda, madaniy va ma'naviy inqirozlarning tub asoslarini ham yaratdi. Ushbu davrda, urushning shafqatsiz haqiqatlari va vaziyatning murakkabligi xalqlararo munosabatlarni keskinlashtirib, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar va qadriyatlarda sezilarli sustlashuvni yuzaga keltirdi. Shu sharoitda adabiyotda yangi ifoda vositalariga bo'lgan talab ortdi, chunki urushning inson ruhiyatiga yetkazgan keskin zarbalari va halokatli oqibatlar to'liq hujjatlanishi lozim edi. Adiblar ushbu murakkab tarixiy vaziyatni qat'iy realizm uslubi orqali aks ettirishga intilib, urush maydonidagi inoyatsizlik, hayot va o'limning tutashuvi, shuningdek, insoniyatning ezilgan, o'z qadr-qimmatidan mahrum bo'lgan ruhiyati va ma'naviy sustligini jonli va deyarli haqiqatga yaqin tarzda ifodaladilar. Shu davrdagi jang sahnalari nafaqat tarixiy fakt sifatida, balki insonning ichki dunyosidagi iztiroblar, umidsizlik va ijtimoiy tanazzulni aks ettiruvchi murakkab madaniy obrazlar shaklida namoyon bo'ldi, bu esa keyingi madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun boy ilmiy material va nazariy asos sifatida xizmat qildi.

Urush va jang tasvirlarining badiiy tasviri. Urush asarlaridagi jang sahnalari yozuvchilarning shaxsiy guvohliklari, tarixiy xotiralar va adabiy tajribalarga tayanib yaratiladi. Ushbu asarlarda realizmning qat'iy uslublari, voqealarning aniq va shafqatsiz aks etishiga intilib, urush mexanizmlarini, insoniyat azoblarining estetik ifodasini yaratishda asosiy rol o'ynaydi. Adiblar, urush maydonining betakror obrazlarini, inson hayotining noaniqligi va halokatli oqibatlarini, ruhiy travmalarni va ijtimoiy tanazzullarni shaxsiy tajriba, guvohlik va chuqur falsafiy mulohazalar asosida tahlil qiladilar. Bunday yondoshuv, nafaqat tarixiy voqealarni hujjatlashtirish, balki inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib berish va ijtimoiy inqirozlarni tanqidiy ko'rib chiqish maqsadida tanlangan [3].

Shafqatsiz realizm va uning afzalliklari. Adabiy realizm, ayniqsa urush tasvirlarida, voqealarning haqiqatga yaqin aks etilishi, bezovta qiluvchi tafsilotlarning ochiq-oydin tasvirlanishi va zamonaviy adabiy nazariya asosida qayta tiklangan. Shafqatsiz realizm uslubi, urushning shiddatli va qattiq tomonlarini, insoniyatning ruhiy travmalarini hamda ijtimoiy tanazzullarini aks ettirishda samarali yondoshuv hisoblanadi. [4] Ushbu yondoshuvda, adiblar o'z shaxsiy hissiyotlari, guvohliklari va tarixiy dalillarga tayangan holda, murakkab ko'rinishda yaratilgan jang sahnalarini hayotiy, hatto ba'zan brutal darajada ifodalaydilar. Natijada, o'quvchi nafaqat tarixiy voqealarni balki insoniyatning ichki kechinmalari va madaniy iztiroblarini ham anglashga yordam beradigan boy estetik materiallarga ega bo'ladi.

Mavjudlik, erkinlik va madaniy tanazzul masalalari, ekzistensial nazariyalar doirasida kontekstualizatsiya qilinib, asardagi yo'qotilgan avlod tushunchasining shaxsiy va kollektiv identitetning parchalanishi bilan bog'liq murakkabligini yoritdi.

Ushbu yondoshuvlarning sintezi, asarning murakkab psixologik va ijtimoiy qatlamlarini puxta yoritishga va yo'qotilgan avlod tushunchasining adabiy diskursdagi o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi.

“Yo'qotilgan avlod” tushunchasining shakllanishi

“Yo'qotilgan avlod” tushunchasining shakllanishi adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida eng murakkab va chuqur eksistensial savollardan biri sifatida o'z ifodasini topadi. Birinchi jahon urushi sharoitida yuz bergan global mojaro va halokatli voqealar natijasida insoniyat chuqur ruhiy, madaniy va psixologik inqirozlarga duch keldi. Shu davrning shafqatsiz, deyarli halokatli tajribalari insonning ruhiy kechinmalarida o'z aksini topib, alohida tarixiy tajriba sifatida “yo'qotilgan avlod” atamasini shakllantirdi [4]. Adiblar o'z shaxsiy travmalari, guvohlik va tarixiy voqealarga asoslangan qat'iy realistik yondoshuvlar orqali ushbu tushunchani boyitdilar. Urush maydonidagi shiddatli azob-uqubatlari, insoniyatning ezilganligi, mavjudlikning fundamental noaniqligi va ichki bo'shliqlar madaniyatimiz va jahon adabiyotida doimiy ravishda qayta talqin

etilgan mavzu sifatida namoyon bo'ldi [5]. Adabiy asarlarda “yo'qotilgan avlod” tushunchasi orqali insoniyatning murakkab ruhiy holati, ijtimoiy strukturaviy inqirozlar va madaniy azoblari chuqur tahlil qilinib, tarixiy jarayonlar va eksistensial savollar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlik kiritildi. Shu tariqa, “yo'qotilgan avlod” tushunchasi jahon adabiyoti doirasida nafaqat tarixiy guvohlik, balki madaniy va psixologik tahlilning asosiy mavzusi sifatida ilmiy diskussiyalar, nazariy yondoshuvlar va falsafiy mulohazalarda o'ziga xos o'rin egallaydi.

Adabiyotshunoslik metodologiyasi va yangi yondoshuvlar. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan urush tasvirlari hamda yo'qotilgan avlod tushunchasini chuqur tahlil etishda ko'p qirrali metodologik yondoshuvlar, falsafiy-epistemologik tahlillar va interdisipliner metodlarning qo'llanilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondoshuvlar adabiy matnlarning keng kontekstual maydonini ochib berishga qaratilgan bo'lib, tarixiy kontekst, psixologik travmalar, estetik tafsilotlar va madaniy konstruksiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida lingvistik, stilistik va semantik analiz texnikalari yordamida asarlar chuqur o'rganilib, urush voqealari va yo'qotilgan avlod tushunchasining madaniy-hissiy va ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammolari eksperimental tarzda tahlil qilinadi [5]. Shu bilan birga, postmodern nazariya asosida shakllangan yangi yondoshuvlar realistik va idealistik tasvirlar o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni ochib berishda alohida e'tiborni talab etadi, chunki ular adabiy diskursni boyitish va zamonaviy madaniyatshunoslik tadqiqotlarini yanada chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, urush va jang tasvirlari adabiyotda o'zining eng chuqur va murakkab ta'sirini yaratadi. Urushning nozik tafsilotlarini ifodalash orqali, adiblar o'z asarlarini nafaqat tarixiy guvohlik sifatida, balki insonning ruhiy va ma'naviy iztiroblarini ifodalovchi badiiy vosita sifatida yaratdilar. Urush maydonidagi voqealar, jang sahnalari, psixologik travmalar va ijtimoiy tanazzullarni o'z ichiga olgan realizm uslubi orqali, “yo'qotilgan avlod” tushunchasining shakllanishi yanada chuqurlashgan. Tadqiqotda urushning ijtimoiy, madaniy va psixologik ta'sirlari hamda bu voqealarning adabiyotda qanday aks etishi alohida tahlil qilindi. Shuningdek, postmodernizm va realizmning o'zaro ta'siri adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalaridagi yangi nazariy yondoshuvlarni ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi [5]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, urush sahnalari va jang tasvirlari orqali yaratilgan badiiy ifodalar nafaqat tarixiy faktlar, balki insoniyatning chuqur ruhiy holatini va madaniy iztiroblarini yoritishga xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada urush va jang tasvirlari orqali shakllangan “yo'qotilgan avlod” tushunchasining adabiy, ijtimoiy va madaniy o'lchovlari chuqur tahlil qilindi. Adiblar tomonidan urush maydoni tasvirlarida qo'llanilgan qat'iy realizm va postmodern yondoshuvlarning shafqatsizligi, insoniyatning ruhiy travmalari va ijtimoiy tanazzullarini aks ettirishi orqali, tarixiy voqealarning murakkabligi va insoniy kechinmalarning boyligi namoyon bo'ladi [5]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu adabiy yondoshuvlar kelgusidagi ilmiy va madaniy tahlillar uchun mustahkam nazariy asos yaratishda, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi yondoshuv va tadqiqot metodlarini ishlab chiqishda dolzarb manba sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqola, Buyuk Gatsby asarida aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasining psixologik, madaniy va ijtimoiy jihatlarini chuqur tahlil qilgan holda, inson ruhiyati va jamiyatning murakkab dialektik munosabatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asarda aks etgan yo'qotilgan avlod tushunchasi, qahramonlarning shaxsiy iztiroblari va identitet fragmentatsiyasi orqali, posturush davr madaniyatining inqirozini aks ettiradi. Bu tushuncha, insonning shaxsiy va kollektiv identitetining parchalanishi, ijtimoiy normativlarning o'zgarishi va madaniy tanazzul bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

1. Mulkidjanov, A. (2005). Jang sahnalari va urush tasvirlari. Toshkent: Fan.
2. Rasulov, M. (2008). Realizm va postmodernizm: Urush adabiyoti misolida. Samarqand: Adibiyot.
3. Karimov, U. (2012). Yo'qotilgan avlod va madaniy inqiroz. Buxoro: Ilmiy asarlar.
4. Sodiqov, R. (2015). Adabiyotshunoslik metodologiyasi va urush tasvirlari. Toshkent: Yuksak oliy ta'lim nashriyoti.
5. Egamberdiev, N. (2018). Urush, psixologik travma va ijtimoiy tanazzul. Farg'ona: Madaniyat va san'at fakulteti nashri.



UDK:80/81

Uktamjon MARDANOV,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti
E-mail: Mardanovuktamjon@gmail.com

Navoiy davlat universiteti dotsenti G.Ernazarova taqrizi asosida

OYDIN HOJIYEVA SHE'RLARIDA QO'LLANGAN SOHAVIY TERMINLAR LINGVOPOETIKASI(MA'DANSHUNOSLIK TERMINLARI ASOSIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning lingvokulturologik, lingvopoetik jihatlarini, semantikasi va pragmatikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar asosida ona tilimizning boyligidan unumli foydalanibgina qolmasdan, uning rivojiga ham munosib hissa qo'shgan iste'dodli shoira Oydin Hojiyeva she'rlarida qo'llangan ma'danshunoslilik terminlarining lingvopoetikasi atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, lingvopoetika, lingvopoetik yondashuv, terminlar semantikasi, pragmatika, lisoniy tafakkur, ma'danshunoslilik terminlari, uslubiy xoslanish, nutqiy individuallik.

ЛИНГВОПОЭТИКА ПРЕДМЕТНЫХ ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В СТИХОТВОРЕНИЯХ ОЙДИН ХОДЖИЕВОЙ (НА МАТЕРИАЛЕ ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ТЕРМИНОЛОГИИ)

Аннотация

В данной статье дается подробный обзор лингвопоэтики терминов горного дела, используемых в стихотворениях талантливой поэтессы Ойдин Ходжиевой, которая не только эффективно использует богатство нашего родного языка, но и вносит достойный вклад в его развитие, опираясь на научные исследования, посвященные специфическим особенностям терминов, их лингвокультурологическим, лингвопоэтическим аспектам, семантике и прагматике.

Ключевые слова: Лингвокультурология, лингвопоэтика, лингвопоэтический подход, семантика терминов, прагматика, языковое мышление, горнодобывающие термины, стилистическая адаптация, речевая индивидуальность.

THE LINGUISTIC POETICS OF SPECIALIZED TERMS USED IN OYDIN HOJIYEVA'S POETRY (BASED ON CULTURAL STUDIES TERMINOLOGY)

Annotation

This article explores the linguistic and poetic characteristics of terms used in the poetry of Oydin Hojiyeva, a talented poet who has not only effectively utilized the richness of her native language but also contributed to its development. The study is based on scientific research focusing on the specific features of terms, their linguocultural and linguopoetic aspects, semantics, and pragmatics. It comprehensively illuminates the linguopoetics of cultural studies terms employed in her poetry.

Key words: Linguoculturology, linguopoetics, linguopoetic approach, semantics of terms, pragmatics, linguistic thinking, cultural studies terms, stylistic features, speech individuality.

Kirish. Tilshunoslikda XXI asr boshlaridan til tizimini antroposentrik paradigma asosida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Til tizimi til sohiblarining real voqelik haqidagi bilimlari, lisoniy tafakkuri, ma'naviyati, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, psixologiyasi, madaniyati, mentalitetini aks ettiruvchi ko'p qirrali hodisa sifatida tavsiflangan lingvistik tadqiqotlar amalga oshirila boshladi. Ammo bu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Xususan, termin muammosi, uning badiiy matnda yuzaga chiqadigan lingvopoetik xususiyatlarini yoritish, turli sohaga oid terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish xususiyatini tadqiq etish shular jumlasidandir.

Bugungi kunda tilshunoslikda terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning lingvokulturologik, lingvopoetik jihatlarini, semantikasi va pragmatikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlarida keng ko'lamda tadqiq etilmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab terminlarning badiiy matndagi xususiyatlari lingvopoetik yondashuvda, shuningdek, matn qurshovida o'rganila boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. H.Shamsiddinovning nomzodlik dissertatsiyasida she'riy tizimda terminlarning uslubiy vazifalari hamda terminlarda funksional-semantik sinonimlarning qo'llanish xususiyatlari o'rganilgan [6].

Bugungi kunda D.Jamoliddinova o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlarining, kasb-hunar leksikasining badiiy matnda muayyan poetik-estetik maqsadlarda qo'llanishini

va matnning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishini o'ziga xos tarzda yoritib beradi. Olimaning fikricha: "Hozirgi davrda terminologik birliklarni o'rganishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar terminning leksik birlik sifatidagi maqomini qayta ko'rib chiqish, uning potensial hajmi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash kabi vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Bu o'z navbatida terminlarning leksikografik manbalarda ifoda etishning yangi modellashtirish tamoyillarini ishlab chiqishga olib keladi" [1].

G.Ernazarova "O'zbek tili mineralogiya terminlarining lingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasining alohida bobini "Mineralogiya terminlarining lingvopoetik xususiyatlari"ga bag'ishlagan. Ishda terminlarning badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan funksional-uslubiy xususiyatlari, o'zbek tilida yaratilgan nazmiy va nasriy asarlarda individual-muallifiy metaforalar ko'p uchrashi, ularni tadqiq etish so'z san'atkorlarining nutqiy individualligini ochib berish bilan birga metaforalarning kognitiv hamda lingvomadaniy birlik sifatidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi, mineralogiya terminlarining o'xshatishlarni hosil qilishi qayd etilgan. Mineralogiya (ma'danshunoslilik) terminlarining badiiy matn tarkibidagi lingvopoetik qimmatini tadqiq etish, ularning o'ziga xos uslubiy-semantik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga egaligi ochib berilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarni ilmiy, amaliy va nazariy jihatdan obyektiv ravishda amalga oshirish uchun o'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan an'anaviy, sistem-struktur, antroposentrik tahlil

This article studies non-verbal means of communication. The concept of mimetic text and its linguistic features: contextual connection, brevity and accuracy; the specific aspects of mimetic texts: the harmony of visual and linguistic elements, the conveyance of emotions, interactivity are discussed. The psycholinguistic aspects of mimetic texts are partially discussed. The emotional impact and interpretation in these texts, the reduction of cognitive load, the level of social influence and communicative strategies from a pragmatic point of view, positive and negative feedback are highlighted by giving examples of mimetic images.

Key words: Mimetic text, nonverbal means, kinesics, taketics, proxemics, visual images, interactivity, image, communication, pragmatic approach.

Kirish. Umumtilshunoslikda nonverbal vositalar borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib [5], ular har bir millatning madaniyati bilan bog'liq holatda tahlil qilingan. Insonning harakat faoliyatining namoyon bo'lishi sifatida qaraladigan verbal bo'lmagan kommunikatsiya vositalarini o'rganishga qiziqish ancha vaqtdan beri turli fan sohalari olimlari tomonidan izlanilmoqda, shu bois, mimemik matn tushunchasi lingvistika va adabiyotshunoslik sohaslarida turli ilmiy tadqiqotlar natijasida shakllangan. Uning asosiy mazmuni shundan iboratki, bunday matnlar inson orasidagi aloqa vositasi sifatida nonverbal elementlarni qamrab oladi. Masalan, mimika, harakatlar va intonatsiya orqali to'ldiriladigan og'zaki yoki yozma matnlar.

Mimemik matn – bu insonning verbal va nonverbal kommunikatsiya vositalari uyg'unlashuvida yaratilgan matn bo'lib, u odatda muayyan ijtimoiy, emotsional yoki kognitiv vaziyatda qo'llaniladi. Bu matn turi lingvistika, psixolingvistika va pragmatik lingvistika nuqtai nazaridan muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Mimemik matnlar ma'lumotni faqat so'z orqali emas, balki mimika, jest, intonatsiya yoki vizual elementlar kabi nonverbal signallar orqali ham yetkazadi.

Inson harakat faoliyatining ifodasi bo'lgan nonverbal kommunikatsiya vositalarini o'rganishga qiziqish turli fan sohaslaridagi tadqiqotchilar tomonidan uzoq vaqt davomida kuzatilgan. Bu muammoga tilshunoslar ham e'tibor qaratganlar, chunki ushbu kommunikatsiya vositalari «kinesik harakatlar» nomi bilan ataladi va nutqni hamroh qilib, tilda aks etadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Maqolada asosan, tasviriy, qiyoslash, tavsiflash, tasniflash kabi tadqiq

usullaridan foydalanildi. Til inson fikrini ifodalashning asosiy vositasidir. Nutqni o'zlashtirgan odam muloqot uchun til imkoniyatlaridan foydalanadi. Shu bilan birga, imo-ishoralar, yuz ifodalari va boshqa og'zaki bo'lmagan aloqa vositalari muloqot jarayoniga yordam beradi. Aloqa “faqat to'g'ridan-to'g'ri material qobig'ida” chegaralanib qolmaydi va “aniq aloqa holatini tashkil etuvchi barcha sharoitlardan” ajratilgan [4].

E.V. Tolibinaning ta'kidlashicha, imo-ishoralar va mimikalar, ayniqsa ularning etnik talqinida, ham etnograf, ham san'atshunos, ham rassom uchun qiziqarli mavzudur [11].

Muloqotga xos bo'lgan jarayonning sinkretik xususiyatini, jumladan, kommunikatorlar tomonidan tanlangan imo-ishoralar, yuz ifodalari va turli xil tana harakatlari kabi axborotni uzatishning og'zaki va og'zaki bo'lmagan kodlarini tasdiqlash mumkin. V.G.Kris'kning ta'kidlashicha, bunday muloqot “imo-ishoralar (imo-ishora tili), yuz ifodalari, tana harakatlari va nutqdan tashqari boshqa bir qator vositalar orqali muloqot qilishdir” [6]. T.A. Gridina, N.I. Konovalova va N.A.Vorobyova, o'z navbatida, shunday deb ta'kidlaydi: “Og'zaki bo'lmagan muloqot - bu ma'lum bir vaziyatni hisobga olgan holda talqin qilinadigan nutqiy bo'lmagan belgilardan foydalangan holda odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning maxsus turi” [1].

Mimikaning birinchi darajali kontseptualizatsiyasi sezgi qabul qilish doirasida shakllanadi va u dunyo haqidagi pertseptiv ma'lumotlarni qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Bu bilimlar predmetga oid va belgiga oid semantik ma'nolarda o'z aksini topadi. Ikkinchi darajali kontseptualizatsiya esa birinchi kontseptualizatsiya jarayonida hosil qilingan bilimlarni boshqa

koordinatalar tizimida (baho berish, qadriyatlar va stereotiplar tizimi) interpretatsiya qilishni anglatadi.

Mimikaning ikkinchi darajali kontseptualizatsiyasi shuni ko'rsatadiki, yuz mushaklarining muayyan harakati kommunikatsiya ishtirokchilari tomonidan insonning emotsional yoki fiziologik holati belgisi, qabul qilingan ma'lumotga munosabat va axborot almashish belgisi sifatida anglanadi.

Mimemik matnda semantik makon chegaralarini belgilash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Noverbal muloqotning semantik kategoriyalarini aniqlash uchun A. Megrabyan uch o'lovli tuzilma doirasida referentlarni tanlashni taklif qiladi: baholash, kuch yoki maqom va reaktivlik. Yoqimli-yoqimsiz hislar va baholash inson tomonidan eng birinchi kognitiv chegaralanishlar sifatida shakllanib, butun umri davomida amalga oshiriladi. Kuch yoki maqom ijtimoiy nazorat bilan bog'liq. Reaktivlik esa indikativ refleksning ijtimoiy analog sifatida tushunadi.

Tashqi noverbal muloqot shakllarini o'rganish jarayonida «semiotik ko'p qirralilik» namoyon bo'ladi – bu tushuncha ularning ko'p qirrali va mazmunli xususiyatini aks ettiradi.

Tashqi noverbal muloqot shakllari quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi:

- Mimika – yuz ifodalari orqali emotsiyalarni ifodalash;
- Kinesika – ishoralar va harakatlar tilini o'rganuvchi fan;
- Takesika – tanga tegish, taktil muloqot tili haqidagi fan;
- Proksemika – muloqot jarayonida suhbatdoshlar orasidagi fazoviy masofani o'rganuvchi fan;
- Paralingvistika – nutq atrofidagi elementlar (intonatsiya, tembr, nutq tezligi, kulish, yig'lash va boshqa ovoqli xususiyatlar) bilan bog'liq fan;

Noverbal vositalarni o'rganish jarayonida insonning nigohiga katta e'tibor qaratiladi, chunki odamlar doimo ko'zlariga va ularning inson xulq-atvoriga ta'siriga katta ahamiyat berib kelishgan. Bunda quyidagi nigoh turlari ajratiladi: rasmiy (biznesga oid), norasmiy, intim, yonbosh nigoh. Inson ko'zlari uning ichki holatini eng to'liq va chuqur aks ettirib, emotsiyalarni uzatishda asosiy kanal hisoblanadi. Bu "Ko'z – ruhning oynasi"



1-rasm.

1-rasmdagi mimik matn: It chaqqonlik bilan oldinga urinadi, uning mushaklari taranglashgan, dumog'i hayajondan titrab, ko'zlari nishonga qadalgan.

Mimemik matnlarning lingvistik xususiyatlari ko'pincha ular joylashgan kontekstga bog'liq. Kontekstdan tashqarida ular noto'g'ri talqin qilinishi yoki umuman tushunilmasligi mumkin. Masalan, "kulayotgan it" tasviri hazil yoki kinoya bo'lib xizmat



2-rasm.

2-rasmdagi mimik matn: Bolaning yuzida mamnuniyat porlaydi, u yelkasiga shamol tegib, yengil qadamlar bilan oldinga otillmoqda.

Interaktivlik: Mimemik matnlar orqali odamlar o'zaro ta'sirni jonlantiradi, munozaralarni qiziqarli va samarali qiladi. Mimemik matnlar pragmatik jihatdan o'ziga xos kommunikativ strategiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, qisqa va lo'nda gapni emoji bilan ifodalash orqali fikrni kuchaytirish yoki yumshatish mumkin.

iborasida ham o'z ifodasini topgan. Demak, inson haqidagi ma'lumotlarning asosiy qismi unga qarab, u bilan muloqot qilish jarayonida, ya'ni noverbal vositalar orqali olinadi. Bular har qanday kommunikatsiya aktining ajralmas qismi bo'lib, tashqi ko'rinish, nigoh, ishoralar, mimika, ovoz ohangi, muloqotda qatnashish qobiliyati va o'zini tutish madaniyati kabi elementlardan iboratdir. Odam uchun deyarli sezilmaydigan bu tafsilotlar, aslida, juda muhimdir va uning hayotida katta rol o'ynaydi.

V.N. Kunitsuna, N.V. Kazarinova va V.M. Pogolsha muloqot jarayonida yuz ifodalarining ahamiyatini ta'kidlaydi: "Yuz ifodasi yoki mimika og'zaki bo'lmagan muloqotning eng muhim jihati hisoblanadi. Mimikalarning ahamiyati shundan iboratki, agar ular yo'q bo'lsa (masalan, kasallik natijasida) muloqot qilish imkonsiz bo'lib qoladi" [7].

Tadqiqot natijalari va muhokama. Har qanday harakat yoki mimika qay tarzda talqin qilinsa, nafaqat san'at obrazlarini tushunish, balki inson hayoti ham shu talqinga bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli, turli madaniyatlardagi noverbal tillarni to'g'ri anglash va ularni o'qishni o'rganish bizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Noverbal kommunikatsiyaga oid tadqiqotlarda muayyan imo-ishoralarning his-tuyg'ular bilan doimiy bog'liqligi aniqlashtirilmagan. Biroq, til va imo-ishoralar o'rtasidagi bog'liqlik belgilangan imo-ishoralarni identifikatsiya qilishda muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, emotsional ta'sirni oshirish va so'zlashuvga ifodalilik kiritish orqali imo-ishoralar faollashadi. Shuningdek, emotsional iboralar bilan qo'llangan imo-ishoralar nutq mazmunini kengaytirish uchun qo'shimcha kalit vazifasini o'taydi.

Mimemik matnlarning o'ziga xos jihatlari

Vizual va lingvistik elementlarning uyg'unligi: Mimemik matnlar vizual obrazlar va qisqa matnlarning uyg'unlashgan ko'rinishi bo'lib, ular tezkor talqinni ta'minlaydi. Vizual tasvirlar orqali ma'lumot yetkazish inson miyasi uchun matnga nisbatan osonroq qabul qilinadi. Bu esa mimemik matnlarning muloqotdagi samaradorligini oshiradi.

qilishi mumkin, lekin bu ma'no faqat muloqotning umumiy konteksti orqali ochiladi.

Hissiyotlarni yetkazish: Psixolingvistika nuqtayi nazaridan mimemik matnlar inson hissiyotlariga tezkor ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tabassum yoki ko'z yoshlarini aks ettiruvchi emoji orqali hissiy aloqa o'rnatiladi. Bu aloqa insonning miya faoliyatida ijobiy yoki salbiy emotsiyalarni yuzaga keltiradi. Ular insonning emotsional holatini ifodalash uchun samarali vositadir.

Mimemik matnlar qisqa va lo'nda bo'lib, ulardan ko'p hollarda vaqtni tejash va ma'lumotni tez yetkazish uchun foydalaniladi. Ularning asosiy maqsadi – qisqa belgilar orqali maksimal ma'no ifodalashdir.

Mimemik matnlar axborot tushunilishini osonlashtiradi, hissiy ta'sirini kuchaytiradi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Ularning psixolingvistik tahlili ayniqsa, ta'lim, reklama, siyosat va ommaviy kommunikatsiyada samaradorlikni oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.



3-rasm.

3-rasmdagi mimik matn: Ayolning katta-katta ochilgan ko'zlarida cheksiz quvonch, mamnuniyat hissi aks etib turibdi. U ikki qo'lini yuzining ikki yon tomoniga qo'yib og'zini ochgan holda ichki hayajonini namoyon etmoqda.

Mimemik matnlar orqali bildirilgan fikrlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Bu fikrlar muloqot jarayonida suhbatdoshning nuqtayi nazariga moslashadi va dialogni samarali boshqaradi. Mimemik matnlar insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida qisqa, vizual va ko'pincha noverbal ifoda vositalaridan foydalanadigan matn shakli hisoblanadi. Ushbu matnlar emotsiyalarni ifodalash, hissiy holatlarni yetkazish yoki qisqa g'oyalarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishining badan harakatlari, gavda o'zgarishlari ham ma'lum mazmun ifodalaydi. "Mastona-mastona chayqalish" mamnunlikni, "tupurish" achchiqlanishni, "qo'lini qo'yarga joy topa olmaslik" hayajonlanganlikni, "ters burilish" norozilikni, "ko'krakka tupurish" qo'rqishni va boshqa hissiy holatlarni ifodalashi mumkin [10].

Mimemik matnlarda aloqa ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar pragmatik yondashuvdagi muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Pragmatik munosabatlar ishtirokchilarning maqsadi, ijtimoiy roli, kontekstga bog'liq munosabatlari va ularning muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Mimemik matnlarda bunday munosabatlar verbal va noverbal elementlarning uyg'unligi orqali namoyon bo'ladi.

Mimemik matnlarda emotsional-psixologik holatlarning ifodasi verbal va noverbal elementlarning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Bu holatlar auditoriyaga kuchli ta'sir o'tkazib, axborot tushunilishida va qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi.

Mimemik matnlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo'lib, ularning lingvistik va vizual xususiyatlarini

o'rganish bugungi kun ilm-fanining muhim vazifalaridan biridir. M.A. Qurbanov maqolasida bir qancha holatlarda noverbal muloqot verbal muloqotdan o'z ustunligini namoyish qilishi aytib o'tgan [9].

Xulosa. Mimemik matnlar bugungi kunda zamonaviy lingvistika, psixolingvistika va pragmatik lingvistik tadqiqotlar uchun muhim obyekt hisoblanadi. Ularning lingvistik va vizual elementlari uyg'unlashgan holda insoniy muloqotda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Internet va raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi mimemik matnlarning rolini yanada kuchaytirdi. Ularning kontekstual talqini, madaniy jihatlarini va emotsional ta'sirini o'rganish ilm-fanda yangi istiqbollarga ochadi.

Mem va giflar ko'pincha ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi va ularga munosabat bildirish vositasi sifatida ishlatiladi. Bu jarayonda ularning psixologik va ijtimoiy jihatlarini kuchli namoyon bo'ladi.

Mimemik matnlar turli sohalarda qo'llaniladigan universal vosita bo'lib, ularning turli shakllari va xususiyatlari mavjud. Ular muloqot jarayonida ma'lumot yetkazishning samaradorligini oshiradi, emotsional ta'sir ko'rsatadi va auditoriyaning muloqotga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar mimemik matnlarning ahamiyatini yanada kuchaytirib, ularni ijtimoiy hayotning turli jabhalarida qo'llanishini ta'minlaydi.

Nutqiy muloqot modellari insonlarning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday aloqa qilayotganini tushunish imkonini beradi. Mimemik matnlar esa ushbu modellarni boyitib, muloqot samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Gridina T.A., Konovalova N.I., Vorobyova N.A. Og'zaki bo'lmagan muloqot: amaliy kurs / T.A. Gridina, N.I. Konovalova, N.A. Vorobyova; Federal davlat byudjeti oliy kasbiy ta'lim muassasasi "Ural davlat pedagogika universiteti" - Yekaterinburg, 2015 yil - 106 p.
2. "Inson emotsional holatining neverbal ifoda vositalari ("xursandlik" kontsepti misolida)". // Moskva davlat gumanitar universiteti xabarnomasi. "Lingvistika" seriyasi. - №1. - M., 2006. - b. 3-5.
3. "Inson tashqi ko'rinishi xulq-atvor shakllarini aks ettirish vositasi sifatida". // "Madaniyatlararo muloqotning nazariy va amaliy masalalari" to'plami. Moskva davlat gumanitar universiteti yubiley ilmiy-amaliy konferentsiya tezislari. - M., 2006. - b. 5-6.
4. Kolshanskiy G.V. Paralingvistika. - M., 2014. - 100 b.
5. Kolshanskiy G.V. Paralingvistika. - M: Nauka, 1974; Kreydlin G.E. Neverbálnaya semiotika: Yazyk tela i yestestvennyy yazyk. - M: Novoye literaturnoye obrazovaniye, 2004; Golubovskiy D.A. Neverbálnaya kommunikatsiya v drevnerusskix pismennnyx istochnikax: opyt semanticheskogo analiza: Avtoref. diss. kand. filol. nauk. - M., 2009;
6. Gorelov I. Neverbálnyye komponenty kommunikatsii. - M.: Nauka, 1980. - S. 104
7. Kris'ko V.G. Etnopsixologik lug'at. - M.: MPSI, 1999. - 343 b.
8. Kunitsuna V.N., Kazarinova N.V., Pogolsha V.M. Shaxslararo muloqot. Universitetlar uchun darslik. - SPb.: Piter, 2001. - 544 b.: kasal. ("Yangi asr darsligi" turkumi).
9. "Matndagi paralingvistik vositalarning roli haqida". // Birlashgan ilmiy jurnal №17. Ilmiy nashrlar jamg'armasi. - M., 2006. - b. 29-38.
10. Qurbanov M.A. Muloqotda noverbal vositalardan birlamchi (asosiy) vositasi o'rnida qo'llash masalasi // Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center www.innacademy.uz. - B.23-30.
11. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. - Toshkent. Fan. 2008. - B.65
12. Talibina E.V. Noverbal aloqa vositalarini lingvomadaniy tahlil qilish (mifologiya, rus fantastika va gazeta matnlari asosida). Dissertatsiya. Cand. filol. fanlar. - M.: Rossiya xalqlar do'stligi universiteti, 1999. - 232 b.



UDK: 002.55

Madinabonu NURUTDINOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti
E-mail: injilkan2022@gmail.com

Uzjoku dotsenti, filologiya fanlari doktori P.Allamberganova taqrizi ostida

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ МЕТА-АНАЛИЗА В ИССЛЕДОВАНИЯХ ОНЛАЙН-МЕДИА

Аннотация

В этой статье речь пойдет о различных методах анализа, используемых для улучшения онлайн-медиа, включая отслеживаемый мета-анализ и методы SEO-анализа. Классифицированы информативные прототипы, которые используются для изучения деятельности онлайн-СМИ, различных новостных сайтов и социальных сетей, а также для разработки стратегических планов.

Ключевые слова: Медиаметрия, онлайн, метаанализ, психология, клинический, моносингуляр, дедуктивный

USING META ANALYSIS PRACTICE IN ONLINE MEDIA STUDIES

Annotation

This article will talk about the various methods of analysis used in improving online media, including tracked meta-analysis and SEO analysis methods. Informative prototypes are classified, which are being used to study the activities of online media, various news sites and social networks and to develop strategic plans.

Key words: Mediametry, online, meta analysis, psychology, clinical, monosingular, deductive.

ONLAYN MEDIANI O'RGANISHDA META TAHLIL AMALIYOTIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada onlayn mediani takomillashtirishda qo'llanib kelayotgan turli tahlil usullari jumladan izimli meta tahlil hamda SEO tahlil usullari haqida so'z boradi. Onlayn media, turli yangilik saytlari va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini o'rganish va strategik rejalar ishlab chiqishda qo'llanilayotgan informativ prototiplar tasniflangan.

Kalit so'zlar: Mediametriya, onlayn, meta tahlil, psixologiya, klinik, monosingulyar, deduktiv.

Kirish. Bugungi kunda sohalar va fanlarda ma'lum bir mavzu yoki muammoni o'rganishga ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar bir biriga juda o'xshashligini qayd etish lozim. Bunday tadqiqotlarning natijalari turli xil bo'lishi va yangi munozarali nazariyalarni ilgari surishi mumkin. Metatahlilning ichki axborotlarni o'rganish strukturasi juda kichik va izchil. Ammo har bir tahlil chuqur va asosli dalillarga tayanadi. Aksariyat ilmiy tadqiqotlarning metodologiya qismi aynan meta tahlillarga ixtisoslashib amalga oshirilmoqda. Fanda meta tahlillarning bir qancha turlari va yangi o'ylab topilgan yo'nalishlari mavjud. Ammo mediani o'rganuvchi statistik meta analiz tarkibiy murakkab tur sifatida tahlillarning asosiy negizi hisoblanadi. Sababi barcha nazariy tadqiqotlardan keng qamrovli statistik ko'rsatgichni o'rganish shart.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Meta tahlil tushunchasi jurnalistika kontekstini o'rganishda V.M. Tereshenko, M.M. Lukina, O. Rebrova, A. D. Donskoy, O.B. Dudareva, S.A. Laryushkin singari tadqiqotchilar matbuot konteksti, til tipologiyasi va matn tahlili bilan shug'ullangan. Meta tahlil ko'proq televideniya hamda internet kontekstini o'rganishda qo'llanilgan. Jumladan, Tim Dyuyerning SMM strategiyalar ishlab chiqish bo'yicha bir qator ilmiy adabiyotlari mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Meta analiz ingliz tilidan "meta analysis" so'zidan olingan atama bo'lib, ilmiy metodologik tahlil usuli hisoblanadi. Odatda meta tadqiqotlarda bir necha tahlil natijalari, ularning monitoring ko'rsatgichlari biriktiriladi. Meta analiz bu turli xil ammo mavzusi yoki tarkibi o'xshash bo'lgan ma'lumotlarning statistik sintezi ya'ni taqqoslanuvdir. Maqsad, aniq bir ilmiy xulosa gipoteza berish hisoblanadi. Bugungi kunda meta analiz tadqiqotini turli sohalarida keng amaliy natijalar olishda qo'llanilmoqda. Masalan, tibbiyot fanlarida metatahlil dalillarga asoslangan tibbiyot konsepsiyasiga muvofiq faqat klinik epidemiyologiya tamoyillariga ko'ra olib boriladigan, tizimli va tasodifiy xatolarni (statistik tahlil yordamida) kamaytirishga qaratilgan klinik tadqiqotlar natijasi hisoblanadi.

Geografik meta analiz bu turli hududiy joylashuvlar va obyektlarning ilmiy farazlari hamda asoslarini tekshirish uchun statistik tahlil sifatida o'rganiladi.

Psixologiyada meta analiz bu klinik kasalliklarni o'rganish va umumiy baho berish orqali yuzaga chiqariladi. Psixologiya tarkibida qo'llaniluvchi meta tahlillar asosan klinik tekshiruvlarda mavjud. Sotsiologik tadqiqotlar meta analizida turli statistik ma'lumotlar orqali ma'lum bir muammoga yechim izlash tushuniladi. Jurnalistika bir qancha fan va sohalarining integrallashgan bilimlar manbai hosilasi bo'lgani tufayli tadqiqot o'tkazishda ham turli meta analiz izlanishlariga tayaniladi. Masalan, sotsiologik tadqiqotlar yoki onlayn dasturlar yordamida amalga oshiriladigan mediametrik tadqiqotlar shular jumlasidandir. Ba'zi jurnalistik meta analizlarning tarkibiga empirik tadqiqotlar va boshqa turdagi statistik, didaktik tahlillarni ham kiritish mumkin.

Ilk meta tahlil 1904-yilda Karl Pearson tomonidan o'tkazilgan edi. Olim kichik namunaviy o'lchamdagi tadqiqotlarda past statistik quvvat muammosini hal etishga harakat qilgan. Ammo tarixiy nuqtayi nazardan ilk meta tahlil XVII asrda astronomiya kuzatuvchilari tomonidan olib borilgan. Mazkur izlanishda turli xaritalarni solishtirish orqali osmon jismlarining harakati kuzatilgan[12]. Tahlillar natijasida yil fasllarning almashishi, yog'ingarchilik, osmon jismlari harakatining ko'chishi va boshqa turli ilmiy nuqtayi nazarlar asoslangan. 1940-yilga kelib psixolog Josef Pratt va Jozef Raynlar muallifligida psixologik meta analizlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda insonlardagi turli psixologik kasalliklarni o'rganishga qaratilgan 60 yillik tajriba qamrab olingan edi [7]. Kitob mualliflari umumiy 145 dan ortiq meta tahlil natijalarini jamlashtirib tahminiyl baholovni qayd qilgan. Ushbu baholov qaydlari hozirgi kunga qadar amaliyotchilar uchun dasturil amal vazifasini bajarmoqda. Shuningdek tarixda o'tkazilgan yirik meta tahlillarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

2013-yilda tibbiyot yo'nalishida 20 dan ortiq meta tahlil amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotga ko'ra muolaja vaqtida turli dorilar jumladan, antidepressantlarni sinab ko'rish amaliyoti o'rganilgan. Tadqiqotda 4000 dan ortiq bemorlar sinab ko'rish natijasida antidepressant dorilarning katta yoshdagi bemorlar hamda bolalarda turli natija ko'rsatgichlari aniqlangan.

2019-yilda Kembridj universiteti tomonidan bir qator sotsiologik meta tadqiqotlar amalga oshirildi. Unga ko'ra turli oilaviy sharoitda katta bo'lgan bolalarning ta'lim olishidagi imkoniyatlari o'rganib tahlil qilingan. Sinovda bitta OTMda aynan bir fanning o'zlashtirish ko'rsatgichi o'rganilib, natijaga ko'ra talabalar turli xil o'zlashtirishi yoki umuman bilim olmasligi aniqlangan.


2007-yilda ekologiya bilan bog'liq bir qator yirik meta tahlillar amalga oshirildi. Tahlilda Shimoliy Amerikaning turli shtatlarida azon qatlamiga shikast yetkazuvchi omillar tahlilga tortildi. Tahlil natijalariga ko'ra kimyoviy moddalar ishlab chiqaruvchi zavodlar joylashgan hududlarning azon qatlami boshqa joyga nisbatan tiklanish nuqtasi xavfli ekanligi aniqlangan.

1970-yilda D. V. Glass hamda F. L. Shmidt tomonidan ta'lim sohasiga oid murakkab meta tahlillar va turli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tahlil 300 nafar o'quvchi bolalarning bilim darajasini baxolashga qaratilgan bo'lib, natijalarga ko'ra bitta ustoz tomonidan bir xil metodda o'qitilgan auditoriya axborootni turlicha qabul qilishi aniqlangan. Ya'ni meta tahlil xulosasiga ko'ra fan ma'lumotlari turli ko'rsatgichlarda o'zlashtirishini anglatadi [7].

Media sohasida eng yirik meta tahlillar The New York Times hamda Unesco xalqaro tashkiloti tomonidan muntazam o'tkazib kelinadigan gender tengligi, bolalar ta'limi muammosi hamda ekologik tahlillarga oid meta analizlarni misol qilish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda muammoga sabab bo'lgan yondosh ko'rsatgichlar jurnalistik nuqtayi nazarda tahlilga olinadi [13].

Aynan "meta analiz" atamasi 1976-yili iqtisodchi Jin Glass tomonidan o'ylab topilgan va fanga yangi yo'nalish sifatida kiritilgan.

Tadqiqotlar yoki ma'lum bir izlanishlar olib borishda meta tahlil tizimli ko'rib chiqish, dalillarni aniqlash va tanqidiy baholashni nazarda tutadi. Xolislik nuqtayi nazaridan barcha hisob kitoblarda aniqlik mezoniga tayanish kerak. Masalan [11]:



Yuqorida taqdim etilgan jadvalga ko'ra mediani o'rganish borasida amalga oshirilgan meta tadqiqotlarning xulosalari yuqori standart natijalar olish hamda aniq prognozlar taqdim etishda juda qo'l keladi. Mediani o'rganishga ixtisoslashtirilgan meta analizlarda aniq strategiyalarni ishlab chiqish orqali xavf nuqtasi bartaraf qilinadi.

Mediani meta tahlil qilishdagi asosiy tadqiqot turlariga quyidagilarni kiritish mumkin [10]:

Kumulyativ tadqiqot turida medianing kontenti ma'lumotlar vaqtga qarab taqsimlanadi. Ya'ni obyekt ma'lum bir vaqt mobaynida kuzatilib undagi o'zgarishlar, qo'shimcha o'rganiladigan syujetlari ham umumiy xulosaga qo'shib boriladi. Ish so'ngida muammo uchun tanlab olingan vaqt masalan 3 yil mobaynida qilingan tadqiqot natijalarining umumiy xulosasi yoki o'zgarish dinamikasi taqdim etiladi. Jahon media namunalari o'rganib umumiy statistik ma'lumotlarini taqdim etib borayotgan – "Mediaskop" sayti tadqiqotlarida ham kumulyativ turdan foydalanmoqda. Misol uchun eng so'ngi tadqiqot sifatida – "The New York times" tadqiqoti uchun so'ngi 2021-2024-yildagi faktik materiallar tanlab olingan.

Tadqiqotdagi asosiy savollarni shakllantirish;

Adabiyotlarni tanlash va izlab topish;

Tadqiqot usulini tanlash;

Meta analiz turini belgilash; aniq bir xususiyatlarni o'rganish yoki tahmini prognoz va natijalarni baholash orqali xulosalar berish.

Shuningdek meta tahlil o'tkazishda ikki turdagi dalillarni ajratib olish mumkin: individual o'rganiladigan ma'lumotlar yoki yig'ilgan ma'lumotlar. Barcha ma'lumotlarning tarkibiy aniqligi adabiyotlar va boshqa turlardagi turli tadqiqotlar natijasiga ko'ra tekshirib olinadi.

Tahlil va natijalar Odatda meta tahlillar ko'proq amaliy sinov hamda statistik tadqiqotlar bilan ishlash hamda xulosa berishga ixtisoslashtirilgan soha yoki fanlarda keng qo'llaniladi. So'ngi pandemiya hamda post pandemiya davrida tibbiyotda, infodemiya davrida esa ta'lim va ekologiya sohalarida muhim ahamiyat berilmoqda. Ya'ni tibbiyotda kasalliklarning tarixi, kelib chiqishi yoki tarqalishi bilan bog'liq tizimli keng tahlillar o'tkazila boshlandi. Bu aynan kasalliklarni aniqlashga qaratilgan keng qamrovli meta tahlilga misol bo'la oladi [9]. Mediani o'rganishga ixtisoslashgan meta tahlillar ikki turdagi tadqiqotlarga tayanadi:

Tizimli sharhlar. Ushbu tadqiqot turi o'zida statistik hamda didaktik tizimli tahlil orqali ma'lumotlarni qamrab olib, ko'proq fanda mavjud gipotezalarni o'rganish va xulosalar berishga qaratiladi.

Statistik tahlillar. Meta tahlilning ikkinchi statistik turida ko'proq esperik, sotsial hamda deduktiv analizlarni qamrab olib, ko'proq keyingi tadqiqotlar uchun prognoz berishni nazarda tutadi.

Medianing meta tahlili bu mavjud jarayonni adabiyotlardan izlash orqali ko'proq asos yaratishni ifodalaydi. Buni quyidagi tartibda ifodalash mumkin:

Ko'p faktorli tadqiqotga ko'ra obyektidagi eng qiyin vaziyatlar yoki chuqur o'rganilishi kerak bo'lgan muammolar tahlilga tortiladi. Masalan, obyekt biror bir sayt; muammo unda obunachilarning kamligi yoki saytning yetarlicha ommabop emasligida deb olsak. Bunda obyekt bilan bog'liq barcha holatlar tadqiq qilib chuqur tahlilga tortiladi. Jumladan, saytning kontenti (maqolalarning umumiy xususiyati, janrlari, multimediyaviyligi, interaktiv holati vkhz.), mualliflar (maqola yozayotgan mualliflarning ishlari), o'sish dinamikasi, sayt auditoriyasi, iqtisodiy boshqaruvi (saytning iqtisodiy holati, to'lanayotgan mablag'lar) kabi xususiyatlarni kiritish mumkin. Xulosada barcha holatlarga mos keluvchi takliflar ishlab chiqish shart.

Xulosa. SEO tahlillardan foydalanish va aniq mazkur asoslarga 100 foiz tayanish imkonsiz. Sababi muallif aynan internet istayotgan matnlarni emas aksincha ijodiy erkinlikni tanlaydi. Shu boisdan mazkur turdagi tahlillarni umumiy baholov qiymati sifatida qabul qilish to'g'riroq bo'ladi. Aniq tahlillarga asoslangan matnni to'laonli formatlarga moslab yozish juda mushkul. Bunda muallifning qalamb va uo'z pozitsiyasi bo'lishi shart. Tahlillarni qo'shimcha tavsiya sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Девятко И. Ф. Новые данные, новая статистика: от кризиса воспроизводимости к новым требованиям к анализу и представлению данных в социальных науках., М.: Российская академия наук, 2018. № 12. С. 38.
2. Кузнецов Даниила. Результаты более половины психологических исследований оказались невоспроизводимы // <https://nplus1.ru/news/2015/08/28/psychology-studies-fail-reproducibility>

3. Мазилев В. А. Кризис психологии: новое понимание и трактовка // Ярославский педагогический вестник. 2019. № 3. С. 100.
4. Дмитриев, Е. И. Социология журналистики : конспект лекций / Минск : БГУ, 2001. - 150 с.
5. Докторов, Б. З. Отцы-основатели: история изучения общественного мнения / Б. З. Докторов. - М. : ЦСП, 2006. - 488 с.
6. Свитич, Л. Г. Социология журналистики : учеб. пособие / Л. Г. Свитич. - М. : ИМПЭ им. А. С. Грибоедова, 2005. - 119 с.
7. Телевидение в Минске: ежедневный мониторинг аудиторий телевизионных каналов / ред. Р. А. Смирнова // Бюл. Социол. службы Белорус. центра рекламы. - 1996. - № 3. - 63 с.
8. Терещенко, М. С. Информация и качество данных в медиапланировании / М. С. Терещенко // Социологические дебюты. Альманах студенческих работ [Электронное издание]. - Минск : БГУ, 2018.: Т. В. С. 89-97.
9. Dawid Walton. s://meta analysis.com/?srsltid=AfmBOoqELTY1n2BLer5NEUX8ql1OXM82yFkiDERICx5VfRti44z_Lmww
10. <https://guides.himmelfarb.gwu.edu/studydesign101/metaanalysis>
11. <https://www.google.com/search?client=safari&rls=en&q=meta+analysis&ie=UTF-8&oe=UTF-8>
12. <https://ru.wikibrief.org/wiki/Meta-analysis>
13. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC4115319/>



Qahramon RO'ZIYEV,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: roziyevqahramon585@gmail.com

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Yuldashevna taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDA TAOM VA NON KOMPLEMENTLI IBORALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbek tili frazeologik sathida taom va non komplementli iboralarning lug'aviy xususiyatlari tahlil qilingan. Bu jarayonda taom nomi bilan bog'liq iboralar tadqiqot obyekti qilib olingan. Taom nomlari bilan bog'liq iboralarning madaniyatimizda tutgan o'rni izohlangan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, taom va non komplementli iboralar, taom nomlari, lingvokulturologik talqin.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASES WITH FOOD AND BREAD COMPONENTS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Annotation

This article analyzes the lexical features of expressions with the components of food and bread at the phraseological level of the Uzbek language. In this process, expressions related to the name of food were taken as the object of research. The role of expressions related to the names of food in our culture is explained.

Key words: Phraseological units, expressions with food and bread components, names of dishes, linguocultural interpretation.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗ С КОМПОНЕНТАМИ «ПИЦА» И «ХЛЕБ» В УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются лексические особенности выражений с компонентами «еда» и «хлеб» на фразеологическом уровне узбекского языка. При этом в качестве объекта исследования были взяты фразы, связанные с названием блюда. Объясняется роль выражений, связанных с названиями продуктов питания в нашей культуре.

Ключевые слова: Фразеологизмы, выражения с компонентами еды и хлеба, названия блюд, лингвокультурологическая интерпретация.

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar o'rganiladi. Tilimizning leksik boyligini tashkil etuvchi frazeologizmlar tilshunoslarning doimo diqqat e'tiborida bo'lgan. Frazeologizmlar murakkab til hodisasi sifatida ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi. Shu ma'noda ularni amaliy va ilmiy o'rganish o'ziga xos yondashuvni, o'ziga xos metod va usulni taqozo etadi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning semantik, grammatik, uslubiy tadqiqotiga doir qator ishlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Birgina Shavkat Rahmatullayev frazeologik birliklarga bag'ishlangan o'ndan ortiq maqolalari, qo'llanmalari va monografiyalari e'lon qilingan, ilmiy tadqiqotlarining asosiy obyekti bo'lib xizmat qilgan[6]. Shuningdek, Sh.Almamatova "O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan. Bu dissertatsiyada frazemalarning komponent tahlili, xususan, frazemalarning ifodaviy va mazmun jihatidan shakllantirishdagi komponentlarning o'rni, frazemalarning o'z va paradigmatic shakli, komponentlarning tarkibi, variantlanishi kabi masalalarni tatqiq etishni asosiy maqsad qilgan[1].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lish yo'llari, lingvokulturologik va kognitiv talqini kabi masalalari asosiy tadqiqot masalasi sifatida kun taribida turibdi. Har qanday til birligi nafaqat kommunikativ fuksiyaga ega, balki o'sha tilda gapiruvchi qavmni, elatni, xalq tarixini, yashab turgan turmush tarzini, milliy-madaniy xazinasini namoyon etuvchi vosita hamdir. Bu o'rinda, tillardagi mavjud turg'un so'z birikmalar alohida diqqatga sazovordir.

Tahlil va natijalar. Iboralarning aksariyat qismini asosiy ma'no-mazmuni, milliy-madaniy o'ziga xosligi bilan "sug'orilgan". Olima Nodirabegim Tursunova "frazeologik birliklar har qanday xalqning, elatning etnomadaniy mazmun-mohiyatini ochishda, ularning ichiga chuqurroq kirishda katta

ahamiyat kasb etishini" ta'kidlab, frazeologik birliklarni quyidagicha guruhlariga ajratadi:

1. Milliy kiyim ishtirokida shakllangan frazeologik birliklar: "to'nini teskari kiyimoq", "do'ppisini osmonga otmog".
2. Milliy urf-odatlar bilan bog'liq frazeologizmlar: "non sindirish"
3. Milliy taomlar bilan bog'liq frazeologizmlar: "moshxo'rdaga qatiq bo'lmoq"
4. Meva va sabzavot nomlari bilan bog'liq turg'un birikmalar: "tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq", "qovun tushirmoq"
5. Geografik joy nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar: "Asakasi ketmoq", "Ahmoqqa Quva bir tosh"
6. Milliy bayramlar bilan bog'liq frazeologizmlar: "Xaytdan so'ng xina qo'ymoq"
7. Diniy tushunchalar bilan bog'liq frazeologizmlar: "Xavzi kavsarni o'ylamoq"[2].

Tasnifdan ma'lum bo'ladiki, taom komponentli frazeologik birliklar ham tilimizda etnomadaniy xususiyatlarni ochishda, ularning ichiga chuqurroq kirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bizningcha ham xuddi shunday. Va aynan taom komponentli frazeologik birliklar tilimizda katta guruhni tashkil etadi. "O'zbek tili frazeologik lug'ati"[3] ning yangi nashrida 50 dan ortiq taom va non komplementli frazeologik birliklar kiritilgan. Bizningcha esa shevalar va badiiy asarlarda ishlatilgan frazeologik birliklarni yig'ish orqali bu raqamlarni yanada kengaytirish mumkin. Masalan, "Moshxo'rdaga qatiq bo'lmoq" iborasi "O'zbek tili frazeologik lug'ati"[3]ning yangi nashriga kiritilmagan. Ammo bu ibora xalqimiz nutqida faol ishlatilib kelinmoqda. Iborasini tahlil qiladigan bo'lsak, Moshxo'rda Mosh bilan guruchdan tayyorlanadigan suyuq taom. Kechqurun Saodat kampir do'ppiday o'choq oldida cho'qqayib, moshxo'rda qaynatarkan, Yo'lchi kirib keldi. Oybek, Tanlangan asarlar[4,621]. "Moshxo'rda" taomi qatiq bilan birga deyarli iste'mol qilinmaydi. Agar qatiq solinsa taomning xushamligi yo'qoladi. Shundan xalqimiz moshxo'rdani odatda qatiq bilan

iste'mol qilmaydi va bu holat iborada ham "biron narsa, kimsa yoki hodisa ortiqcha" ekanligini anglatadi.

Qulog'iga lag'mon osmoq, Qulog'iga lag'mon ilmoq "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"ga ham, "O'zbek tili frazeologik lug'ati"ning yangi nashriga ham kiritilmagan keltirilmagan. Ammo jonli so'zlashuv nutqida keng iste'moldagi birikmalardan biri hisoblanadi. Lag'mon (uyg'urcha "la myan" — cho'zilgan xamir) — xamirni cho'zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat. Bu tansiq taom asli Xitoy pazandaligiga mansub bo'lib, "lya" — chuvalchang, «myan» — xamir ma'nosini anglatadi. Uzoq o'tmishda bizga uyg'ur oshpazligi orqali kirib kelgan va hanuzgacha saqlanib qolgan. Kumush opam ham shu yerda edilar. Lag'monni uncha xushlamas ekanlar, shekilli, yaxshi yemadilar. A. Qodiriy, O'tgan kunlar[4]. Bu ibora "biror kishiga yolg'on gapirish, aldash" ma'nosida izohlanadi. Lag'monning o'zi cho'ziq yoki uzun ingichka xamir bo'lganligi uchun xalqimiz tomonidan uzoq vaqt biror-bir ish harakatni bajarmay yurishga qiyoslanadi, o'xshatiladi. Bu frazeologik ma'no shu hosila asosida yuzaga kelgan.

Nag'masiga non pishmoq varianti: Nag'masiga osh pishmoq. Shev. Nag'masiga nonpalov pishmoq. Arabcha nag'ma leksemasi o'zbek tilida ko'plab ma'nolarda ishlatiladi: 1 esk. Kuy, ohang, navo; musiqa tovushi. [Komil:] Bu xushnud nag'malardan benasib bo'lmang, deb atayin uyg'otdim, bir eshitib qoling! O.Yoqubov, Aytisam, tilim kuyadi, aytmasam — dilim. 2 Labda yurg'izib puflab chalinadigan musiqa asbobi. Bolalar tarqalishadi. Qoravoy nag'masini chaladi... R.Fayziy, Sen yetim emassan. 3 ko'chma salb. Ortiqcha qiliq, xarxasha. E, bu odamning nag'masi ko'pga o'xshab qoldi. Uyg'un, Hurriyat. 4 ko'chma s.t. Ortiqcha tashvish, daxmaza, ikir-chikir. To'yning nag'masi ko'p bo'lar ekan[4]. Keltirilgan frazeologik birliklarda nag'ma leksemasining ko'chma salb. "Ortiqcha qiliq, xarxasha" ma'nosi xalqimiz uchun qadri bo'lgan taom nomlari nonpalov va osh leksemalari bilan birgalikda ishlatiladi va "biror muhim ishda o'zini olish, o'jarlik va befarqlik" ma'nolarida xalqimiz nutqida qo'llaniladi. Shuningdek, Ushbu frazeologik birlikda "o'jarlikning davomiyligi" ma'nosini ham ko'rish mumkin. Zero, osh va nonpalov xalqimiz tomonidan uzoq va maromiga yetkazib tayyorlanadigan taomlar sirasiga kiradi.

Hasipi sovidi. Hasipi — so'yilgan qo'y yoki qoramolning ichagiga go'sht, jigir, qorataloq kabilarning qiymasi va gurch aralashtirib solinib, qozonda qaynatib yoki qasqonda dimlab tayyorlanadigan taom[4]. Hasip o'zbek xalqining qadimiy, taomlaridan biri hisoblanadi. To'y, bayram dasturxoniga, aziz mehmonlarga atab tayyorlanadigan ushbu tansiq taom barcha shahar va qishloqla o'xshonalarida hozirgacha unutilmay saqlanib keladi. Hasipning odatiy hamda dimlama hasip, tuyma hasip, ochiq hasip kabi turlari mavjud. Har biri o'ziga xos usulda tayyorlanadi. Asosan issiq holda iste'mol qilinadi. Suvuq holatida esa o'zining mazasi va xushtamligini yo'qotadi. Shundan kelib chiqqan holda xalqimiz hasipi sovidi iborasini "ko'ngli sovidi, hafsalasi pir bo'ldi" ma'nolarida ishlatadi. Xudoy haqqi xumsalaringdan hasipim sovidi.A. Qodiriy, Kichik asarlar.

Og'zidagi tolqon erimadi. Bu ibora ham xuddi Og'ziga so'k solmoq yoki Og'ziga tolqon solmoq (tolqon yutmoq) Sinonimi: mum tishlamoq; og'ziga qatiq ivitmoq; og'ziga nos solmoq. O'xshashi: "lom-mim" demaslik; dam(i) chiqmadi - dam(i)ni chiqarmaslik; og'z(i)ni ochmaslik [5] kabi iboralar bilan variantdoshdek ko'rinadi. Aslida esa bunday emas. Og'ziga so'k solmoq ayn. og'ziga tolqon solmoq iborasi "tovush chiqarmay, indamay, hech narsa demay turmoq, mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik" ma'nosini anglatadi. Nihoat, Fayzulla chidab turolmadi: -Ha, og'zinglarga so'k solvoldilaringmi bugun? X. Sultonov, Bir oqshom ertagi. Nega jim o'tiribsizlar? Og'izlaringizga tolqon solib oldilaringiz-mi? I. Rahim, Chin muhabbat. Og'zidagi tolqon erimadi iborasi yuqoridagi iboralarga okkazonal tarzda qo'llanilgan bo'lib, "uzoqroq muddat jim turish" ma'nosini ifodalashi bilan xoslanadi:

Samandar taklifini yana takrorladiyamki, talabalarning og'zidagi tolqon erimadi (U.Hamdani. Sabo va Samandar).

Qo'liga atala ichgan. Atala ham o'zbek xalqi dasturxonining doimiy taomlaridan biri hisoblanadi. Atala taomi bilan bog'liq ko'plab iboralar xalqimiz nutqida ishlatiladi. Masalan, "ataladan suyak chiqmoq" "atalasini chiqarmoq" kabi. Qo'liga atala ichgan iborasida taomning "suyuqlik" ma'nosiga e'tibor qaratiladi va bu ibora "Biror narsani tutib turolmaslik, biror ishini eplolmaslik" ma'nosida qo'llaniladi.

Xalqimizning non haqida alohida qadriyatlarga, urf-odat va an'analarga ega ekanligi ma'lum. Shu nuqtai nazardan xalqimizning kunlik muloqot nutqida ko'plab non bilan bog'liq iboralarni ko'rishimiz mumkin: non deganda, kesak g'irillagan (g'irillaydigan) yoki non deganda, kesak g'irillaydi, non ursin, non yemoq, non(i) butun, non(i) yarimta bo'ldi, non(i)ni yarimta qilmoq, non(i)ni tuya qilmoq, nonini yemoq; non yemoq, nonni butun qilmoq; non(i) butun bo'ldi, og'z(i)dagi non(i)ni oldirmoq[3].

"O'zbek tili frazeologik lug'ati"ga Non sindirmoq ayn. non ushatish, patir ushatmoq iboralarini kiritilmagan. Non sindirmoq ayn. non ushatish, patir ushatmoq — "unashtirish" ma'nosini anglatadi. Bu o'zbek xalqining etnomadaniy marosimlari bilan bog'liq holda shakllangan. Nikoh to'yi marosimlarining bir qismi: qiz tomon, ya'ni uning ota-onalari sovchi yuborgan tomonga o'z roziligini bergach, sovcilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozilik belgisi sifatida non sindirilishi va to'y bilan bog'liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi bilan bog'liq. "non yemoq" iborasi savdogarlar nutqida "biror kelim-daromad bilan tirikchilik o'tkazmoq" ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga "non yemoq" iborasi etnomadaniy marosimlardan biri bo'lib, azador oilani qarindoshlar chaqirishib, xafagarchiligini keltkazish ma'nosida oilaviy dasturxon yoziladi va bu "azadan chiqish, ochilish" ma'nosini anglatadi.

Shu o'rinda aytish joyizki, Xamir komponentli iboralar ham o'zbek tilida bisyor. "O'zbek tili frazeologik lug'ati"ga esa xamir uchidan patir, xamirdan qil sug'urganday iboralari kiritilgan. "Harakati sust, imillagan" odamlarga nisbatan ishlatiladigan xamiri achimagan (Obbo, xamiri achimagan-ey, tusha qolmay-sanmi endi!? N. Safarov, Qurbonali) va "kayfiyati buzilmoq, fe'li aynimoq" ma'nosida ishlatiladigan Xamiri achimoq (Qarab tursam, o'rtog'imning xamiri achib, kayfi lanj tortib ketyapti. S. Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema) iboralarini ham kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Go'sht mahsuloti ham xalqimizning kunlik iste'molining asosini tashkil etadi. Shu jihatdan, go'sht bilan bog'liq frazeologik birliklar ham xalqimiz nutqida tez-tez ko'zga tashlanadi. Jumladan, noma'qul buzoqning go'shtini yemoq. Ikki ma'noda izohlanadi: 1) xato qilmoq, adashmoq; 2) nodonlik qilmoq. -Noma'qul buzoqning go'shtini bir yedik-da,— deydi Berdi tatar. A. Qodiriy, Obid ketmon. Qip-qizil go'sht frazeologik birligi "hech vaqosi yo'q, kambag'al, nochor" tarzida qo'llaniladi. -Hol so'r, ammo hamyonni ham so'r, uka! Bilasan-ku ahvolimizni, qip-qizil go'shtimiz, — dedi Umarali. Oybek, Ulug' yo'l. "Qo'ldan hech narsa kelmaydigan, landavur" odam haqida gapirilganda o'zbek tilida bir qop go'sht frazeologik birligidan foydalaniladi. Ro'ziboy deganimiz bir qop go'sht bo'ldi-qoldi. "Guldasta". Go'shtingni yeyman. Do'q, po'pisa ma'nosidagi ibora. Yeyman deydi go'sht(t)ini, Qayraydi kal tishini. «Ravshan».

Xulosa va takliflar. O'ylaymizki, boy va qadimiy tilimizning "lug'at sandig'ini" ochib izlasak bundan ham ko'plab frazeologik birliklarni topishimiz mumkin. Bu birliklar milliy qiyofamizni ko'rsatuvchi alohida unsur sifatida baholanadi. Zero, bunday iboralarni boshqa tilda uchratmasligimiz aniq. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, gastronomik komponentli frazeologik birliklar ham tilimiz lug'at tarkibida munosib o'ringa ega va anchani tashkil etadi. Uni tatqiq etishi bilan xalqimizga xos madaniyat, urf-odat, yashash tarzi yanada oydinlashadi. Gastronomik komponentli frazeologik birliklar milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan holda har qanday tilning tarixiy, milliy, madaniy xazinasini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Bekiyeva M. Frazeologik birliklar obrazlilik va emotsionalekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vosita. "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" jurnali 1-son. 2022-yil yanvar, 651-bet.

2. Tursunova Nodirabegim. Frazеologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. So'z san'ati xalqaro jurnali 3-son. T.: 2020, 141-142-betlar.
3. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2020.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati - Toshkent, 1978.
6. "O'zbek tilida frazeologik birliklarning asosiy semantik turlari haqida" (1956), "Sintaktik tahlilda frazeologik birliklar ustida ishlash" (1956), "Hozirgi zamon o'zbek tilidagi o'zlashgan frazeologik birliklar haqida"(1957), "Hozirgi zamon o'zbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining o'zgarishi haqida" (1963), "Fe'l frazeologik birliklarda moslashuv"(1964), "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari", "Nutqimiz ko'rki"(1970)



UDK-8-1751 R-95

Shaxnoza RUSTAMOVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti
E-mail: shahnoza.rustamova.1983@gmail.com

SamDCHTI professori U.Qarshibayeva taqrizi ostida

TILNING MADANIY KONTEKSTDAGI ROLI (TARJIMADA)

Annotatsiya

Mazkur maqola tarjima va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilib, tilning madaniy kontekstdagi ahamiyatini o'rganadi. Tarjima so'zlarni bir tildan boshqasiga o'tkazish bilangina cheklanmay, balki madaniy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar almashinuvi va tushunilishiga xizmat qiladi. Unda madaniy farqlar, tarjimonning madaniyatlararo muloqotdagi roli hamda adabiy tarjima jarayonida kontekstual farqlar va iboralarni tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklar yoritiladi. Shuningdek, ishimizda tarjimaning madaniy kommunikatsiya va globalizatsiya jarayonida milliy identifikatsiyani saqlashdagi o'rni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tarjima, madaniyat, madaniy kontekst, madaniy farqlar, til va madaniyat, madaniyatlararo aloqalar, adabiy tarjima, madaniy qadriyatlar, globalizatsiya, madaniy identifikatsiya, madaniy kommunikatsiyalar.

РОЛЬ ЯЗЫКА В КУЛЬТУРНОМ КОНТЕКСТЕ (В ПЕРЕВОДЕ)

Аннотация

Данная статья анализирует взаимосвязь между переводом и культурой, изучая значение языка в культурном контексте. Перевод не ограничивается только передачей слов с одного языка на другой, но также служит средством обмена и понимания культурных ценностей, традиций и обычаев. В статье рассматриваются культурные различия, роль переводчика в межкультурной коммуникации, а также сложности, возникающие при переводе контекстуальных различий и устойчивых выражений в литературных переводах. Кроме того, обсуждается роль перевода в сохранении национальной идентичности и его значение в межкультурной коммуникации в условиях глобализации.

Ключевые слова: Перевод, культура, культурный контекст, культурные различия, язык и культура, межкультурные связи, литературный перевод, культурные ценности, глобализация, национальная идентичность, культурная коммуникация.

THE ROLE OF LANGUAGE IN THE CULTURAL CONTEXT (in translation)

Annotation

This article analyses the relationship between translation and culture, examining the significance of language in the cultural context. Translation is not limited to the transfer of words from one language to another but also serves as a means of exchanging and understanding cultural values, traditions, and customs. The article explores cultural differences, the role of the translator in intercultural communication, as well as the challenges arising from translating contextual nuances and idiomatic expressions in literary translations. Furthermore, it discusses the role of translation in preserving national identity and its importance in intercultural communication within the context of globalisation.

Key words: Translation, culture, cultural context, cultural differences, language and culture, intercultural connections, literary translation, cultural values, globalization, national identity, cultural communication.

Kirish. Tarjima va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik har doim diqqatga sazovor bo'lib kelgan. Til nafaqat aloqa vositasi, balki uning o'zi ham muayyan bir jamiyatning madaniy, tarixiy va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalovchi, shakllantiruvchi elementdir. Shuning uchun, tarjima jarayonida tilning madaniy kontekstdagi o'rnini to'g'ri anglash muhim ahamiyatga ega. Tarjima faqat so'zlarning to'g'ri o'rinalashtirilishi emas, balki madaniy ma'lumotlarning, an'analarning, ijtimoiy normativlarning ham uzatilishi jarayonidir.

Madaniyatlararo kommunikatsiya, jumladan tarjima, ikki til va madaniyat o'rtasida kelishuvni ta'minlaydi. Biroq, har bir til o'ziga xos madaniy kodlarga, tasavvurlarga va qadriyatlar tizimiga ega bo'lib, bu tarjimonning ishini murakkablashtiradi. Misol uchun, bir tilning so'zlari boshqa tilda to'g'ri tarjima qilinsa ham, ularning ortida yotgan madaniy anglash va kontekstlar bir xil bo'lmayligi mumkin. Shu sababli, tarjimonlar nafaqat til bilimiga, balki madaniyatlararo farqlarni tushunishga ham ega bo'lishi kerak. Tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniy almashuv hamdir. Bu, o'z navbatida, tilni faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki uning kontekstual va madaniy boyliklari nuqtai nazaridan ham o'rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilning madaniy kontekstdagi roli — bu til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini, til orqali madaniy merosning qanday saqlanib, avloddan-avlodga o'tishini, shuningdek, tilning ijtimoiy va madaniy jarayonlardagi o'rnini o'rganadi. Madaniyat, tilni faqat aloqa vositasi sifatida

emas, balki dunyoqarash, qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy tajribalarni ifodalovchi vosita sifatida ham ko'radi.

Til madaniyatni shakllantiradi va uni ifodalaydi. Har bir til, o'ziga xos ijtimoiy tizimni, qadriyatlar va dunyoqarashni aks ettiradi. Misol uchun, bir xalqning qadriyatlari, din, urf-odatlar va tarixiy tajribalarini ifodalovchi so'zlar va iboralar til tizimida mavjud. O'zbek tilida milliy hayotga oid ko'plab so'zlar, masalan, "mehr", "orzu", "vatan" kabi atamalar mavjud bo'lib, ular madaniyatdagi muhim tushunchalarni aks ettiradi.

Til, avvalo, madaniy an'analarni saqlash va avloddan-avlodga o'tkazish vositasidir. Hozirgi kunda yozma va og'zaki adabiyot, til orqali tarixiy tajribalar, xalq aqllari, she'rlar va hikoyatlar orqali madaniyatni saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Dastlabki xalq hikoyalari va afsonalar, shu jumladan, ularning tilida jamiyatning qadriyatlari aks etgan.

Madaniy kontekstdagi tilning roli, madaniyatning rivojlanishi va o'zgarishiga qarab, o'zgarib boradi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya tilning o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgarishlar, tilni zamonaviy hayotga moslashtirsa-da, madaniyatni saqlash va rivojlantirishda qiyinchiliklar yaratadi. Internetda yangi atamalar va slenglarning paydo bo'lishi, madaniyatning globalizatsiyasi va uning mahalliy tillarga ta'siri, tilning madaniy rolini yanada murakkablashtiradi.

Til, insonning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Til orqali inson o'zligini, o'zining qaysi madaniyatga mansubligini va qanday tarixiy ta'sirlarni qabul qilganini bildiradi. O'zbek tilida so'zlashish nafaqat madaniy

qadriyatlarini ifodalash, balki milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlash vositasidir.

Madaniyatdagi an'analar va urf-odatlar, til orqali ifodalanadi. Masalan, an'anaviy o'zbek bayramlari, marosimlar va turmush tarziga oid so'zlar va iboralar tilning o'zida mavjud. Bu so'zlar, xalqning tarixiy va madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi. Har bir xalqning tilida o'ziga xos an'analar va qadriyatlar mavjud bo'lib, ular shu xalqning dunyoqarashi va madaniyatini aks ettiradi. Shu tarzda, til va madaniyat bir-birini to'ldiradi va bir-birini shakllantiradi. Tilni o'rganish, faqat so'zlar va grammatik qoidalarini o'rganish emas, balki madaniyatni va uning asosiy tushunchalarini o'rganishdir.

Ishda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va lingvokulturologik tahlil usullari qo'llanilgan. O'zbek va xorijiy olimlarning til va madaniyat munosabatlari, lingvokulturologiya va etnolingvistika sohalaridagi ilmiy ishlari chuqur tahlil qilindi.

Til va madaniyat o'rtasidagi aloqalar masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan o'rganilgan. Masalan, Sapir-Uorf gipotezasi tilning inson tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sirini ta'kidlagan [2]. V.Gumboldt esa tilni "xalq ruhi"ning aks-sadosi sifatida talqin qilgan [3]. Zamonaviy tilshunoslikda esa A.Vejbitskaya [4] va V.A.Maslova [5] kabi olimlarning ishlari lingvokulturologiyaning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

O'zbek tilshunosligi sohasida esa N.Mahmudov [6], A.Nurmonov [7], Sh.Safarov [8] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari o'zbek tilining etnomadaniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ularning ishlari o'zbek tilining leksik va grammatik tizimida milliy dunyoqarash, qadriyatlar va mentalitetning ifodalanishini o'rganadi.

Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, o'zbek tili misolida bu masalaning kompleks tahlili hozirgacha to'liq amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Muhokama. Tarjima va madaniyatning bir-biriga ta'siri haqida ilk marta fikr yuritgan olimlardan biri "Eugene Nida" bo'lib, u "tarjima ekvivalentligi" va "madaniyatlararo ekvivalentlik"ni ta'riflab, tarjima jarayonida faqat so'zma-so'z ekvivalentlikni emas, balki madaniy kontekstning ham hisobga olinishi zarurligini ta'kidlagan. Nida tarjimadagi asosiy muammo, ayniqsa, madaniy elementlar bilan bog'liq bo'lganida, tilning faqat grammatik tuzilmalari emas, balki madaniy konteksti ham muhimligini ko'rsatgan. Lawrence Venuti "tarjimonning ko'rsatilganlik (visibility)" nazariyasini ishlab chiqqan. Venuti tarjimadagi madaniy tafovutlarni ko'rsatishning, tarjimonning o'zini va madaniyatini namoyon qilishning muhimligini ta'kidlagan. Bu yondashuv tarjimaning o'zi ham madaniy ifoda va madaniyatlararo muloqot shakli ekanligini anglatadi.

Madaniyatlararo tafovutlarni tahlil qiluvchi tadqiqotlar ko'pincha tilning ijtimoiy, psixologik va tarixiy kontekstiga asoslanadi. Basil Hatim va Ian Mason o'zlarining "Discourse and the Translator" asarida tilning faqat so'zlar va grammatik qoidalar bilan bog'liq bo'lmashini, balki madaniy o'zgarishlarni, urf-odatlarini va kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettirishni ham talab qilishini ko'rsatganlar. Hatim va Mason tarjima jarayonini madaniy to'qnashuvlar sifatida ko'radilar, bu esa tarjimonning madaniy tafovutlarni qanday yengishiga bog'liq. Yuriy Lotman va Aleksey S.Zholkovskiy kabi tilshunolar madaniyatlarini kodlar tizimi sifatida qarashadi va bu tizimlar orqali tarjimonning faqat til bilimi emas, balki madaniy kodlarni to'g'ri o'qish va tushunish qobiliyati ham zarur ekanini ta'kidlaydilar. Madaniyat va til o'rtasidagi bunday aloqalar, ularning fikricha, tarjimaga tilning faqat yuzaki qatlamidan tashqari, uning chuqur qatlamlarini ham tushunishni talab qiladi.

Tarjima va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganishda foydalaniladigan metodologiyalar odatda quyidagi usullarga asoslanadi:

Leksik tahlil – tarjima jarayonida so'zlarning to'g'ri tanlanishi va ularning madaniy kontekstdagi ma'nolari muhim ahamiyatga ega. Leksik tahlil madaniy yondashuvlar va ijtimoiy normativlarni tarjimada qanday aks ettirishini o'rganishga yordam beradi.

Kontekstual tahlil – Til va madaniyatni tushunishda kontekstual tahlilning ahamiyati katta. Bu metodologiya tarjima jarayonida madaniy belgilarni va ularning tilga qanday ta'sir qilishini o'rganishga qaratilgan.

Intertekstual tahlil – Madaniyatlararo aloqalarni tahlil qilishda intertekstual tahlil metodologiyasidan foydalanish ham foydalidir. Bu usul, madaniyatlararo kontekstdagi badiiy yoki ilmiy asarlarni o'zaro taqqoslash va ularning tarjima jarayonida qanday o'zgarishini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Kross-kultural tahlil – Madaniyatlararo farqlarni o'rganish uchun kross-kultural tahlil metodologiyasi ishlatiladi. Bu usul tarjimaning madaniy o'zgarishlar va tafovutlarni qanday ifodalashini aniqlashga yordam beradi.

Madaniy tafovutlarni o'rganishda ko'plab misollar keltirish mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "Thanksgiving" bayrami bir nechta madaniy elementlar bilan bog'liq, lekin bu bayram boshqa tillarda va madaniyatlarda o'ziga xos ekvivalentga ega emas. Shu sababli, "Thanksgiving"ni boshqa tilda tarjima qilishda, faqat bayramning tarixiy va diniy kontekstlarini emas, balki unga bog'liq madaniy an'analar va qadriyatlarini ham hisobga olish zarur. Yana bir misol – ingliz tilidagi "Privacy" tushunchasi. Bu so'zning tarjimasi boshqa madaniyatlarda, masalan, o'zbek yoki arab tillarida hamma joyda aniq ekvivalentlarga ega bo'lmashligi mumkin, chunki ushbu madaniyatlarda "xususiy hayot" tushunchasi boshqacha qaraladi.

Natija. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, til madaniyatni ifodalaydi, boshqa tomondan esa madaniyat tilni shakllantiradi. Har bir til o'ziga xos tarixi, qadriyatlari, va urf-odatlarini bilan ajralib turadi. Masalan, turli xalqlarda madaniyatga oid kontsepsiyalar va tushunchalar til yordamida uzatiladi. Shuning uchun, biror xalqning tilini o'rganganimizda, shu xalqning madaniyati va dunyoqarashi haqida ham ma'lumotga ega bo'lamiz.

Tilning madaniy kontekstdagi roli, shuningdek, identifikatsiyani belgilashda katta ahamiyatga ega. Til orqali insonlar o'zlarini qanday his qilishlari, qaysi jamiyatga mansubligini qanday anglashlari hamda o'zligini qanday ifodalashlari ko'rinadi. Madaniyatni tahlil qilishda tilning ahamiyatini tushunish, biror jamiyatning tarixiy va madaniy rivojlanish yo'nalishlarini anglashda yordam beradi.

Globalizatsiya jarayonlari va madaniy almashuv tilning o'zgarishiga ham olib keladi. Bu, o'z navbatida, tilni yangi shakllarda ishlatish, yangi atamalarini qabul qilish va eski madaniy elementlarni yangilashni anglatadi. Til orqali bir xalqning madaniyati boshqalarga uzatilishi va yangi madaniy kontentni olish jarayoni, jamiyatlar o'rtasida aloqalar o'rnatishni va madaniyatlarini o'zaro tushunishni osonlashtiradi.

Har bir jamiyatda o'ziga xos madaniy an'analar mavjud bo'lib, ular til orqali uzatiladi. O'zbek tilida, masalan, ko'plab qadimiy an'analarga oid so'zlar va iboralar mavjud bo'lib, ular jamiyatning qadriyatlari va tarixi haqida ma'lumot beradi. Til yordamida madaniyatni o'rganish va unga nisbatan hurmatni oshirish mumkin.

Tilni ijtimoiy kontekstda tahlil qilish, uning ijtimoiy roli va madaniyatning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi. Jamiyatning o'ziga xos madaniy shakllarini aks ettiruvchi til elementlari, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va ahamiyatini tushunishga xizmat qiladi. Shu tariqa, til madaniyatning saqlanib qolishi va yangi avlodga yetkazilishi uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Tarjima va madaniyat o'rtasidagi aloqalar kompleks va ko'p qirrali bo'lib, tilni faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki uning madaniy kontekstdagi roli nuqtai nazaridan ham o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Adabiyotlar tahlili va metodologiyalar yordamida tarjimaning madaniy tafovutlarni qanday yengishi, til va madaniyatning o'zaro ta'siri qanday shakllanayotganini tushunish mumkin. Madaniyatlararo tafovutlar va kontekstual tahlillar tarjimaning eng murakkab va kreativ qismlarini tashkil etadi, bu esa tarjimonning madaniy anglash va ijtimoiy tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi.

1. Kramersch, C. Language and culture. Oxford University Press. 1998.
2. Whorf, B. L. Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press. 1956.
3. Von Humboldt, W. On language: On the diversity of human language construction and its influence on the mental development of the human species. Cambridge University Press. 1999.
4. Wierzbicka, A. Understanding cultures through their key words: English, Russian,
5. Polish, German, and Japanese. Oxford University Press. 1997.
6. Маслова, В. А. Лингвокультурология. Академия, 2001.
7. Махмудов, Н. Тилинг мукамал тадқиқи йўллари излаб. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2012.
8. Нурмонов, А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 2012.
9. Сафаров, Ш. Прагматингвистика. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008.
10. Исмоилов, И. Ўзбек тили этномаданий лексикаси. Фан ва технология, 2014.
11. Ҳақимов, М. Ўзбек прагматингвистикалари асослари. Тошкент: Академнашр, 2013.
12. www.ziyounet.uz
13. www.aim.uz
14. www.cyberleninka.ru
15. www.arxiv.uz



Zilola SALISHEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD

E-mail: zilolasalisheva@gmail.com

PhD, dotsent S. Sodiqova taqrizi ostida

THE USE OF AUDIO-VISUAL MATERIALS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE TO FOREIGNERS

Annotation

This article explores the role of audio-visual materials in teaching the Uzbek language to foreigners. It examines how integrating multimedia resources, such as audio recordings, videos, and interactive content, enhances language acquisition and comprehension. The study highlights the effectiveness of these materials in improving pronunciation, listening skills, and cultural understanding. By incorporating modern technological tools, educators can create a more engaging and dynamic learning environment, fostering better communication skills among non-native learners of Uzbek.

Key words: Foreign language teaching, audio-visual materials, multimedia resources, language acquisition, pronunciation, listening skills, cultural understanding.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИО-ВИЗУАЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ ИНОСТРАНЦЕВ

Аннотация

Статья исследует роль аудио-визуальных материалов в обучении узбекскому языку иностранцев. Рассматривается, как интеграция мультимедийных ресурсов, таких как аудиозаписи, видео и интерактивный контент, способствует улучшению освоения языка и понимания. В исследовании подчеркивается эффективность этих материалов в улучшении произношения, навыков восприятия на слух и культурного осознания. Использование современных технологических инструментов позволяет преподавателям создавать более увлекательную и динамичную образовательную среду, способствуя лучшим коммуникативным навыкам среди иностранных учащихся узбекского языка.

Ключевые слова: Обучение иностранным языкам, аудио-визуальные материалы, мультимедийные ресурсы, освоение языка, произношение, навыки восприятия на слух, культурное осознание.

O'ZBEK TILINI XORIJLIKLARGA O'QITISHDA AUDIO-VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqola audio-video materiallarining uzbek tilini xorijliklarga o'qitishdagi o'rnini o'rganadi. U multimedia resurslarini, masalan, audiozapislarni, videolar va interaktiv kontentlarni integratsiyalash orqali tilni o'rganish va tushunishni qanday yaxshilash mumkinligini ko'rib chiqadi. Tadqiqot bu materiallarning talaffuz, eshitish qobiliyatlarini va madaniy tushunishni rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi. Zamonaviy texnologik vositalarni joriy etish orqali, o'qituvchilar o'zbek tilini nosan'at o'rganuvchilari orasida yangilikka va dinamik o'qitish muhitini yaratish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Kalit so'zlar: Xorijiy tilni o'qitish, audio-video materiallar, multimedia resurslari, tilni o'rganish, talaffuz, eshitish qobiliyatlarini, madaniy tushunish.

Kirish. Bugungi kunda xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda zamonaviy pedagogik usullar va texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda audio-video materiallarning roli ayniqsa muhimdir. O'zbek tilini o'rgatishda audio-vizual materiallar, ya'ni audiolari, videolar, interaktiv kontentlar va boshqa multimedia vositalari, talabalar uchun o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu materiallar tilni o'rganishda talaffuz, eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish va madaniy tushuncha hosil qilishda katta yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilarga o'quvchilarni o'zbek tilining nutqiy va madaniy jihatlarini bilan tanishtirishda ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Bunday materiallar o'quv jarayonini yanada boyitadi va ta'limni samarali qilishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda audio-video materiallardan foydalanish sohasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu materiallarning o'qitish jarayonidagi samaradorligini o'rganish, pedagogik jarayonni yanada takomillashtirish va talabalar uchun tilni o'zlashtirishni osonlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Bir qator tadqiqotchilar audio-video materiallarning til o'rganishda samarali vosita ekanligini ta'kidlaganlar. Masalan, Sh. X. Karimov (2020) o'zining ishlarida audio-visual materiallarning talaffuzni yaxshilash va eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo'lishini ko'rsatgan. Audio-materiallar tilni eshitish orqali o'rgatishning samaradorligini oshiradi, chunki ular o'zbek tilining intonatsiyasi va talaffuzini tushunishga

yordam beradi. Videolar esa vizual elementlar orqali so'zlarni va iboralarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi, bu esa o'quvchilarni o'zbek tilida muloqot qilishga rag'batlantiradi.

Zamonaviy pedagogik uslublarni ishlab chiqishda multimedia vositalarining o'rnini katta. T. A. Rasulova (2019) o'zining tadqiqotida multimedia materiallarining o'qituvchilarga o'quv jarayonini interaktiv qilishda yordam berishini va talabalarga o'zbek tilini o'rganishdagi murakkabliklarni yengib o'tishda yordam berishini ta'kidlagan. Audio-video materiallar talabalarga tilni o'rganishda qo'shimcha ma'lumot va yangi ko'nikmalarni olish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu materiallar o'qituvchining vaqtini tejashga va o'qish jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishga yordam beradi.

Audio-video materiallar nafaqat til o'rgatishda, balki madaniyatni o'rgatishda ham muhim rol o'ynaydi. D. Z. Usmonova (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, video materiallar orqali o'zbek madaniyatini o'rgatish o'quvchilarni tilni o'rganishda yanada motivatsiyalashirishi ko'rsatilgan. Video materiallar yordamida talabalarga o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini va madaniyati haqida to'liqroq tushuncha berish mumkin, bu esa tilni o'rgatishni yanada samarali qiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Tadqiqotda turli metodlar va usullar qo'llaniladi. Bular quyidagilar: Analitik metod – O'zbek tilini xorijliklarga o'qitishdagi audio-video materiallardan foydalanish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish. Bu metod orqali audio-video materiallarning samaradorligi haqida ma'lumot to'planadi va ilgari olingan natijalar taqqoslanadi.

Eksperimental metod – Tadqiqotning eksperimental qismi o'zbek tilini o'rgatishda audio-video materiallar bilan ishlash tajribasini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu metod yordamida o'quvchilarga audio-video materiallar taqdim etilib, ular orqali til o'rganish jarayonining samaradorligi o'lchanadi. Eksperimentda o'quvchilarni ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh an'anaviy metodlar bilan, ikkinchi guruh esa audio-video materiallar yordamida o'qitiladi. So'rovnomalar va intervyu metodlari – O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar va intervyu o'tkazilib, audio-video materiallar yordamida o'rgatishning samaradorligi va talabalarning fikrlari yig'iladi. Ushbu metod o'quvchilarning motivatsiyasi va o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishini baholashda yordam beradi. Ekspert baholash metodlari – O'qituvchilar, metodistlar yoki pedagogik ekspertlardan foydalanib, audio-video materiallarning o'qitish samaradorligini baholash. Ularning fikrlarini olish orqali o'quv jarayonining sifatini yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Statistik tahlil metodlari – Tadqiqot jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. Bu, masalan, eksperimentlar yoki so'rovnomalar natijalarini raqamli ko'rinishda tasdiqlash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, audio-video materiallar til o'rgatish jarayonini an'anaviy usullarga qaraganda samaraliroq qiladi. O'quvchilar o'zbek tilining talaffuzini, eshitish qobiliyatlarini va grammatika qoidalarini video va audio materiallar yordamida osonroq o'zlashtirishdi. Ayniqsa, talaffuzni yaxshilashda video materiallar (masalan, dialoglar, tasvirlangan vaziyatlar) katta yordam berdi. O'quvchilar materiallarning vizual va eshitish elementlaridan birgalikda foydalanish orqali tilni tez va samarali o'rgandilar. Eksperimentdan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, audio-video materiallar talabalarda o'qish jarayoniga nisbatan yuqori motivatsiya yaratadi. O'quvchilar uchun o'quv jarayoni qiziqarli va interaktiv bo'lib, ular ko'proq ishtirok etishga, savollar berishga va yangi bilimlarni o'rganishga tayyor bo'lishdi. Video materiallar orqali ular o'zbek tilining real hayotdagi qo'llanilishini ko'rib, o'zlarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qiziqdilar.

O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda audio-video materiallardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi muhim ilmiy-amaliy xulosalar va natijalarga erishildi:

1. Audio-video materiallar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi

Tajriba darslari davomida audio va video vositalar bilan boyitilgan darslarda ishtirok etgan xorijiy tinglovchilar o'zbek tilini tezroq va faolroq o'zlashtirgani kuzatildi. Jumladan:

Tinglab tushunish ko'nikmalari 38% ga yaxshilandi;

Og'zaki nutq faolligi 42% ga oshdi;

So'z boyligi va ifoda aniqligi 33% ga ortdi (oldingi test natijalari bilan solishtirganda).

2. O'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshadi

So'rovnomalar natijalariga ko'ra, talabalar audio-video vositalar orqali:

Kino va videoroliklar orqali madaniyatni chuqurroq tushunishganini;

Real nutq namunalarini eshitish ularga yanada tabiiy talaffuz va ohangni o'rganishga yordam berganini;

Darslar zerikarli emas, balki interaktiv va zavqli kechganini ta'kidladilar.

3. Audio-video materiallar orqali madaniy kontekst yetkaziladi

Xorijiy talabalar nafaqat tilni, balki o'zbek urf-odatlarini, hayot tarzi, milliy qadriyatlarini bilan tanishdi. Bu esa ularning tilni o'zlashtirish jarayonini yanada mazmunli va mazmunli qildi.

4. Interaktiv metodlar darsni jonlantiradi

Video asosida munozara, rolik asosida topshiriq, audio eshitib savol-javob kabi metodlar o'quvchilarning fikrlash tezligini, talaffuzni va tashabbuskorligini oshirdi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda audio-video materiallarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Audio-video materiallar til o'rgatish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, shuningdek, talabalar uchun interaktiv va ta'sirchan o'qish muhitini yaratadi. Bu materiallar talaffuzni yaxshilash, eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish, va o'zbek tilini o'rganishda motivatsiyani oshirishda katta yordam beradi. Videolar va audio yozuvlar orqali o'quvchilar tilni real hayotdagi vaziyatlar bilan bog'laydi, bu esa ularning tilni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, video materiallar o'quvchilarga o'zbek madaniyati va an'analarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda audio-video materiallardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar, tajriba-sinov darslari va kuzatuvlar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Audio-video materiallar xorijiy talabalar uchun til o'rganish jarayonini jonlantiradi, ularning tilni eshitish, tushunish va og'zaki ifoda qilish ko'nikmalarini samarali shakllantiradi.

Ushbu materiallar orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki o'zbek xalqi madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarzi bilan ham tanishadi. Bu esa ularning tilga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi.

Darslarda kino lavhalarini, intervyular, suhbatlar, hikoyalar, subtitrlar roliklar kabi multimedia vositalaridan foydalanish xorijiy tinglovchilarda tabiiy nutqni anglash va qayta ifodalash ko'nikmasini kuchaytiradi.

Tajriba-sinov darslari ko'rsatdiki, audio-video materiallar asosida tashkil etilgan darslar samaradorlik jihatidan an'anaviy usullarga qaraganda ancha yuqori natija beradi.

Zamonaviy texnologiyalar (YouTube, Zoom, onlayn platformalar) orqali audio-video darsliklar va topshiriqlarni yaratish, ulardan individual va guruhli mashg'ulotlarda foydalanish ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va qamrovini kengaytiradi.

O'zbek tilini o'rgatishda audio-video materiallarni ko'proq integratsiya qilish zarur. O'quvchilarga turli videolar, audio kitoblari, podkastlar, qisqa hikoyalar va ilmiy video materiallar taqdim etilishi kerak. Bu materiallar o'quvchilarga turli xil kontent orqali tilni o'rganishga imkon yaratadi. Audio-video materiallarni mobil ilovalar, interaktiv platformalar va onlayn kurslar bilan birlashtirish kerak. Bu orqali o'quvchilar o'zbek tilini nafaqat darsda, balki darsdan tashqarida ham o'rganishlari mumkin. Onlayn testlar, video materiallar bilan mashqlar va feedback tizimlarini joriy etish samarali bo'ladi. Video materiallarni nafaqat tilni o'rgatish, balki o'zbek madaniyatini tanitish uchun ham ishlatish muhim. O'quvchilarga o'zbek xalqining urf-odatlarini, bayramlari, san'ati, musiqa va adabiyoti haqida video materiallar taqdim etilishi kerak. Bu nafaqat til o'rganishni, balki madaniyatni tushunishni ham rivojlantiradi. O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda audio-video materiallar o'z o'rniga ega bo'lgan, didaktik va pedagogik nuqtai nazardan samarali metod vositalaridandir. Ularning to'g'ri tanlanishi va metodik asosda qo'llanilishi xorijiy o'rganuvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi, tezlashtiradi va mazmunan boyitadi.

ADABIYOTLAR

1. Akhmedov, A. (2018). Xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Abduraimov, A., & Yuldashev, M. (2015). O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Ergashev, B. (2019). Interaktiv ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'qituvchilar nashriyoti.
4. Karimov, R., & Nurmukhammedov, S. (2020). Til o'rgatishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Khodjaeva, D. (2017). O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda audio-video materiallardan foydalanish. Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.

6. Mustafayeva, F. (2016). Audio-video materiallar yordamida til o'rgatish metodlari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika akademiyasi.
7. Ismailov, T., & Tursunov, R. (2018). O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
8. Solieva, F., & Yunusova, G. (2021). Xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish jarayonida innovatsion yondashuvlar. Tashkent: O'zbekiston ta'lim tizimi.
9. Sadiqova, D. (2020). Audio-video materiallardan foydalanish orqali til o'rganishni samarali tashkil etish. Toshkent: Yangi avlod.



Малика СОЛИЕВА,

Доцент, Национального Университета Узбекистана, к.ф.н

E-mail: m.solieva@nuu.uz

Рецензия профессора НУУЗ, д.ф.н И.Сиддикова

SOME PHONETIC PHENOMENA OF WORDS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The article discusses phonetic phenomena that occur in the last position of words in English and Uzbek. Particular attention is paid to phonetic processes that affect intonation and rhythm of speech, as well as stylistic aspects related to the use of words. The article is intended for linguists, teachers and anyone interested in the nuances of phonetics and phonology.

Key words: Phonology, phonetics, phoneme, word stress, intonation, aspiration, prosody.

НЕКОТОРЫЕ ФОНЕТИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются фонетические явления, которые наблюдаются на последней позиции слов в английском и узбекском языках. Особое внимание уделяется фонетическим процессам, влияющим на интонацию и ритм речи, а также на стилистические аспекты, связанные с употреблением слов. Статья предназначена для лингвистов, преподавателей и всех заинтересованных в нюансах фонетики и фонологии.

Ключевые слова: Фонология, фонетика, фонема, ударение, интонация, аспирация, просодика.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SO'ZLARING BA'ZI FONETIK HODISALARI

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'zlarning oxirgi pozitsiyasida yuzaga keladigan fonetik hodisalar ko'rib chiqiladi. Nutqning intonatsiyasi va ritmiga, shuningdek so'zlarni ishlatish bilan bog'liq uslubiy jihatlarga ta'sir qiluvchi fonetik jarayonlarga alohida e'tibor beriladi. Maqola tilshunoslari, o'qituvchilari va fonetika va fonologiyaning nuanslariga qiziqqan har bir kishi uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Fonologiya, fonetika, fonema, so'z urg'usi, intonatsiya, aspiratsiya, prosodiya.

Введение. Исследование слоговых акцентов и их особенностей в разных языках стало важной темой в лингвистике, особенно после того, как С.Д.Кацнельсон предложил метод анализа, который оказался плодотворным для германских языков. Этот подход открыл новые горизонты в понимании акцентуации и фонологии, и его результаты стали основой для дальнейших исследований в других языковых семьях, включая тюркские языки, к которым относится узбекский.

Важным аспектом акцентуации является связь между ударением и долготой гласных. Это явление достаточно хорошо изучено, и его связь с ударением не вызывает сомнений. Однако более сложным остается вопрос о том, как различные признаки согласных, такие как аспирация, фарингальность, соноризация и глоттализация, соотносятся с ударением.

Результаты исследования. Некоторые лингвисты выдвигают гипотезу о том, что ларингальный /h/ может переходить из сегментного уровня в суперсегментный, становясь признаком тона. Это утверждение, однако, вызывает споры и требует дополнительных исследований. А.С. Либман, в частности, утверждает, что преаспирация не является различительным признаком гласных или согласных в ирландском языке. Это связано с тем, что преаспирация всегда предшествует согласному, который несет на себе вершину длительности и связан с рельефом слога. Таким образом, преаспирация воспринимается как динамическое усиление придыхания[9].

В узбекском языке, где фонема /h/ часто встречается в заимствованиях из арабского и персидского (например, «baho» – цена, «behi» – груша, «havo» – воздух), ее произношение имеет некоторые вариации. Звук /h/ обычно встречается в начале и середине слова, но редко — в конце. Его фарингальный характер (образование звука в области глотки) подчеркивает его отличие от, например, английского или немецкого /h/, которые имеют более переднее место образования.

Интересно рассмотреть вопрос о статусе аспирации в отношении других согласных. Существует мнение, что аспирация является модификатором фонем /p/, /t/, /k/, и /q/. Однако, в отношении /q/, которое характеризуется сжато-гортанной артикуляцией (почти глоттализацией – резким сужением голосовой щели), наличие классической аспирации представляется сомнительным. Аспирация у /q/ скорее всего проявляется в виде короткого, менее интенсивного придыхания, отличного от аспирации при произношении /p/, /t/, или /k/.

Обзор литературы. Г.С. Клычков предложил просодическую оппозицию сомкнутый-разомкнутый слог, которая была экспериментально доказана. Это означает, что в зависимости от того, как организованы слоги, может изменяться их звучание и акцентуация [7].

В.В. Иванов также отмечал, что одним из способов образования ларингализованного тона в различных языках является развитие его из сочетаний гласных с конечным согласным. В частности, этот конечный согласный в абсолютном исходе слова может превращаться в гортанный смычку, что является характерным для многих языков [4].

Факты типологии изменения согласных подтверждают, что различные смычные ротовые звуки, такие как /p/, /t/, /k/, могут изменяться, особенно в конечной позиции слова, превращаясь в гортанный смычку /ʔ/. Это явление наблюдается в различных языках и подчеркивает важность фонетических изменений в процессе эволюции языков. Например, в некоторых тюркских языках, включая узбекский, это изменение может быть связано с историческими процессами, которые влияли на фонетическую структуру языка [11].

В узбекском же языке глоттальная смычка выполняет скорее просодическую функцию, влияя на ритмико-интонационную структуру слова. Ее появление связано с фонотактическими ограничениями узбекского языка, где она часто встречается перед сонорными согласными /l/ и /n/, как в

примерах “tal’at” (закат) и “ma’naviyat” (духовность), усиливая или удлиняя предшествующий гласный.

Более того, распространение глотальной смычки не ограничивается заимствованиями из арабского языка. Она наблюдается и в исконно узбекских словах, хотя и реже, что указывает на ее интеграцию в фонологическую систему языка.

Нужно отметить, в современном английском языке глоттальная смычка включается одновременно в число сегментных и суперсегментных средств, особенно в американском варианте английского языка. Глоттальная смычка выступает аллофоном фонем /p, t, k/ в североанглийских диалектах, а также в диалектах кокни и Лондона, и она не чужда литературной южноанглийской речи[3].

Дж. О’Коннор, в своих исследованиях, отмечает наличие глоттализации аффрикаты /tʃ/ в английских словах, таких как «watch, watched, watching», представляя ее как /wɒʔtʃ/, /wɒʔtʃt/, /wɒʔtʃɪ/. Это указывает на то, что в определенных фонетических контекстах, английский язык использует глоточную смычку — кратковременное смыкание голосовых связок — не как самостоятельный фонетический сегмент, а как сопутствующий элемент, модифицирующий артикуляцию соседних звуков. Интересно, что О’Коннор не ограничивается описанием этого явления, а предлагает анализ функций глотальной смычки, выходящий за рамки простого описания.

Экспериментальные исследования, на которые ссылается О’Коннор, выделяют несколько ключевых функций глотальной смычки:

1. Делимитативная функция (маркировка границ слога) проявляется когда глоттальная смычка служит сигналом, разделяющим слоги, особенно когда следующий слог начинается с гласного звука. Пример, приведенный О’Коннором, — «re’action», где глоттальная смычка четко отделяет первый слог от второго. 2. Функция замещения в некоторых случаях когда глоттальная смычка фактически заменяет глухие смычные согласные /p, t, k/, а также /tʃ/. О’Коннор приводит примеры “butter” (/bʌʔə/), “catch” (/kæʔtʃ/), “bookcase”. Это указывает на то, что глоттальная смычка может выступать как своего рода “редукция” согласных, особенно в безударных слогах или в быстрой речи. Механизм такой замены, вероятно, связан с ослаблением артикуляции в менее важных фонологически позициях, при этом сохраняется различие между словами. Например, противопоставление «butter» и «better» могло бы быть затруднено без глотальной смычки, особенно при нечеткой артикуляции.

3. Эмфатическая функция (фоностилистическая) указывает на тесную связь фонологии с просодией и стилистикой речи. О’Коннор подчеркивает использование глотальной смычки для эмфатического выделения слов. Пример: «It’s awfully nice». Здесь глоттальная смычка не является обязательной частью произношения, а служит для стилистического выделения слова, придавая ему дополнительный эмоциональный окрас или подчеркивая важность в контексте предложения.

Сингармонизм, хоть и частично сохранился в некоторых словах узбекского языка, но не является частым явлением в литературном языке, в отличие от некоторых его диалектов и других тюркских языков. Его сохранение в определенных словах указывает на сложную историю развития языка и сохранение архаичных черт. Четыре функции сингармонизма — конститутивная (формирование слова), дистинктивная (различение слов), делимитативная (обозначение морфемных границ) и рекогнитивная (узнавание слова) — подчеркивают его важную роль в структуре узбекского языка [12].

Методология исследования. Новейшие подходы к изучению сингармонизма предлагают интегративный взгляд, объединяющий сегментные и суперсегментные аспекты. В рамках этих подходов появились новые термины, призванные описать разнообразные проявления феномена. Так, термин «сингармофонема» обозначает фонему, участвующую в

сингармоническом процессе и способную варьироваться в зависимости от контекста. «Сингармозвукотип» описывает группы звуков, обладающих схожими свойствами и подверженных одинаковому сингармоническим изменениям. Наконец, «сингармовариант» обозначает конкретную реализацию фонемы, обусловленную сингармонизмом.

Дж. Лайонз, один из пионеров в изучении сингармонизма, дал исчерпывающее описание этого явления, рассматривая его с трёх основных позиций: фонематической, просодической и морфофонематической[18].

Фонематический уровень описывает изменения на уровне отдельных фонем. Просодический подход фокусируется на суперсегментных чертах, таких как тон, ударение, интонация, влияющих на сингармонические процессы. Морфофонематический аспект раскрывает зависимость сингармонических изменений от морфологической структуры слова и его морфем. Сочетание этих трёх перспектив дает наиболее полное представление о механизмах сингармонизма.

Анализ и результаты. Некоторые лингвисты рассматривают сингармонизм как разновидность умлаута — фонетического изменения гласного звука под влиянием последующего гласного в соседнем слоге. Однако, в отличие от умлаута, сингармонизм в тюркских языках охватывает не только соседние слоги, но и более отдаленные части слова, включая аффиксы, и обладает большей систематичностью. В этом смысле сингармонизм выступает как мощный морфофонематический процесс, формирующий целостность слова и играющий важнейшую роль в морфологии тюркских языков. Его влияние на словообразование и словоизменение огромно, поскольку он напрямую участвует в создании правильных словоформ. Например, изменение гласного в корне слова «qol» (рука) в узбекском языке, в зависимости от последующих аффиксов, демонстрирует эту закономерность: qōl (рука), qōli (его/ее рука), qōllar (руки), qōllari (их руки). Подобная согласованность наблюдается во множестве тюркских языков, но с вариациями в зависимости от конкретного языка и его диалектов.

В более поздний период, когда тюркские языки приобрели агглютинативный характер и аффиксы вполне грамматикализовались, силовое ударение переместилось на последний слог слова [1]. В тюркских языках сингармонизм берет себе те функции, которые выполняет словесное ударение [5].

Стоит отметить, что сингармонизм не является универсальным явлением. Он характерен преимущественно для тюркских языков, хотя встречаются аналогичные процессы и в других языковых семьях, например, в некоторых финно-угорских языках [1]. Отсутствие сингармонизма в английском языке обусловлено совершенно иной фонологической и морфологической структурой. Вопрос о роли ударения в английском и узбекском языках, а также о его взаимосвязи с морфологией и интонацией, заслуживает более глубокого рассмотрения. Мнение о том, что изменение места словесного ударения (главного) служит дополнительным средством различения слов, безусловно, верно [14]. Это особенно заметно на примерах слов-паронимов, где смещение ударения принципиально меняет лексическое значение. Например, в английском языке слова “record” (записывать) и “record” (запись) различаются именно позицией ударения: на первом слоге в первом случае и на втором — во втором. Аналогичные примеры можно найти и в узбекском языке, хотя система ударения в нём менее строгая и в большей степени зависит от контекста. Однако, нельзя ограничивать роль словесного ударения только морфологической функцией. В узбекском языке система фразового ударения, хотя и имеет свои особенности, также выполняет аналогичные функции, хотя её исследование пока не столь глубоко, как в английском. Менее строгая система словесного ударения в узбекском языке, возможно, обусловлена влиянием других факторов, таких как ритмика речи и структура слога. С точки зрения американского лингвиста А.Ф.Себерга, ударение в узбекском языке является “фонемным на уровне слова и в длинных высказываниях (т.е.

место различных ударений может быть важным для смысла)» [17] главное ударение падает на последний слог неглагольных слов и фраз, за исключением заимствований из арабского и персидского языков, а также некоторых союзов и наречий. Напр., *lekin*, *hamma*, *bozor*, *hatto*. Ударение в узбекском языке – сложная система, включающая не только главное, но и второстепенное, третьестепенное и слабое ударения. Эта система, детально описанная, хотя и не без спорных моментов, А.Ф. Себергом, опирается на принципы дистрибутивной фонологии, но нуждается в уточнении с использованием современных фонологических моделей, таких как порождающая фонология. Главное ударение в узбекском языке, как правило, свободно и может падать на любой слог заимствованных слов, географических названий и т.д. В сложных словах оно чаще всего ложится на первый или второй компонент: *“kōm-kōk”* (голубой), *“sopra-soğ”* (холодный), *“ota-ona”* (родители), *“tōğridan-tōğri”* (прямо), *“kasalxona”* (больница), *“olip-sotar”* (купля-продажа). Однако, важно отметить, что эта закономерность не является абсолютной, и существуют исключения, обусловленные как этимологией, так и современными языковыми тенденциями.

Заключение и рекомендации. Наши исследования показали, что в изучаемых языках существует примерно четыре степени ударения, а безударный слог считается пятой степенью. Эти степени ударения помогают структурировать и цементировать слоги внутри слова, создавая тем самым ясную и четкую фонетическую картину. Сложные слова в

агглютинативных языках, как правило, имеют четкие границы между морфемами, и ударение помогает выделить эти границы, что облегчает восприятие информации. Таким образом, различия в словесном ударении между германскими и тюркскими языками не только подчеркивают уникальные фонетические особенности каждого языка, но и отражают более глубокие грамматические структуры, которые влияют на то, как носители этих языков воспринимают и производят речь. Это делает изучение ударения важным аспектом для изучающих языки, так как понимание ударных схем может значительно улучшить навыки общения и восприятия.

Исследование фонологической структуры узбекского слова в сравнительно-типологическом плане (то есть сопоставление с другими языками) позволяет выявить как общие черты, так и уникальные особенности. Анализ просодических (связанных с ритмом и интонацией) и фонотактических (связанных с разрешенными сочетаниями звуков) структур дает глубокое понимание механизмов функционирования языка. Например, изучение влияния слогового акцента на современную фонологическую структуру узбекского языка позволяет установить закономерности изменений в системе языка и спрогнозировать возможные дальнейшие изменения. Такое исследование имеет не только теоретическое значение, позволяя углубить понимание эволюции языков, но и огромное методико-прикладное значение.

ЛИТЕРАТУРА

1. Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. – М., 1988. – С.185.
2. Гулямов А.Г. Об удвоении звуков при аффиксации в узбекском языке // Ученые записки ТГПИИЯ. Вып. III. – Ташкент, 1963. С. 82-94;
3. Gimson A.S. An introduction to the pronunciation of English. 2-nd edition. - Edward Arnold 1972. – С.222-236;
4. Иванов Вяч.Вс. К синхронной и диахронической типологии просодических систем с ларингализованными или фарингализованными фонемами // Очерки по фонологии восточных языков. – М., 1975. – С.78
5. Касевич В.Б. Фонология в типологическом и сопоставительном изучении языков// Методы сопоставительного изучения языков. – М., Наука, 1988. – С. 54.
6. Кацнельсон С.Д. Очерк типологии германских просодических систем // Исследования в области сравнительной акцентологии индоевропейских языков. – Л.: Наука, 1979. – С. 213.
7. Клычков Г.С. К типологии фонологических систем (исландский консонантизм и скандинавские тоны) // Структурно-типологическое описание современных германских языков. – М.: Наука, 1966. – С., 308-310
8. Кодзасов С.В., Кривнова О.В. Современная американская фонология. – М.: МГУ, 1981. – С.162
9. Либрман А.С. Исландская просодика. К фонологической характеристике современного исландского языка и его истории. – Л., 1971. – С. 60.
10. Плоткин В.Я. Эволюция фонологических систем (на материале германских языков). – М., 1982. – С. 30.
11. Поливанов Е.Д. Субъективный характер восприятий звуков языка // Статьи по общему языкознанию. – М.: Наука, 1968. – С.26.
12. Реформатский А.А. Иерархия фонологических единиц и явление сингармонизма // Исследования по фонологии. – М., 1966, 6. – С. 198
13. Телегин Л.А. Морфофонологическое использование английского словесного ударения. – Самарканд, 1976. – С.8.
14. Трофимов М.И. Проблемы тюркского ударения, аномалии и геминаты (на материале уйгурского, узбекского и других тюркских языков) // Тюркология. – М., 1983. – №2. – С. 65-76.
15. Lyons G. Natural language and Universal Grammar. Essays in linguistic theory. Vol.I. – Cambridge Univ.Press, 1991. – P. 100.
16. Sjoberg Andrië F. Uzbek Structural Grammar. Uralic and Altaic series 18. – The Hague: Indiana Univ/Bloomington, Mouton and Co., 1963. – P. 23-36.



UDK:81.255.4

Sevara TOG'AYMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com

Dotsent Q.Olloyorov taqrizi asosida

INGLIZ TILIDAGI MUQOBILSIZ LEKSIKAGA OID SO'ZLARNI O'RGANISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklarni o'zbek tilida o'rganish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda deskriptiv, lingvokulturologik, solishtirma, didaktik va empirik metodlar qo'llanilgan. Muqobilsiz leksik birliklarning semantik noaniqligi, madaniy tafovutlar, tarjima strategiyalarining yetishmasligi va metodik materiallardagi cheklovlar asosiy muammolar sifatida aniqlangan. Shuningdek, talabalar va o'qituvchilar bilan olib borilgan so'rovnomalar asosida muqobilsiz leksikani o'rgatishda kontekstual ta'lim modelining samaradorligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklarni o'rgatishda madaniy komponentga asoslangan interfaol metodlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Muqobilsiz leksika; ingliz tili; tarjima strategiyalari; lingvokulturologiya; didaktika; semantik noaniqlik; madaniy tafovut; interfaol metodlar; kontekstual ta'lim; o'zbek tilshunosligi.

CHALLENGES IN LEARNING NON-EQUIVALENT LEXICAL UNITS IN ENGLISH

Annotation

This article analyzes the main challenges faced by Uzbek-speaking learners in acquiring non-equivalent lexical units in English. The study employs descriptive, linguocultural, comparative, didactic, and empirical methods. Key issues identified include semantic ambiguity, cultural differences, lack of translation strategies, and limitations in methodological materials. Surveys conducted with students and teachers demonstrate the effectiveness of contextual teaching models in addressing these challenges. The findings emphasize the importance of interactive methods based on cultural components in teaching non-equivalent vocabulary.

Key words: Non-equivalent vocabulary; English language; translation strategies; linguocultural studies; didactics; semantic ambiguity; cultural differences; interactive methods; contextual teaching; Uzbek linguistics.

ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ БЕЗЭКВИВАЛЕНТНОЙ ЛЕКСИКИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются основные проблемы, с которыми сталкиваются узбекоязычные учащиеся при изучении безэквивалентной лексики английского языка. В исследовании применяются описательные, лингвокультурологические, сравнительные, дидактические и эмпирические методы. Основными выявленными проблемами являются семантическая неопределенность, культурные различия, недостаток переводческих стратегий и ограниченность методических материалов. Опросы, проведенные среди студентов и преподавателей, демонстрируют эффективность контекстуальной модели обучения в решении этих проблем. Результаты подчеркивают важность интерактивных методов, основанных на культурных компонентах, в преподавании безэквивалентной лексики.

Ключевые слова: Безэквивалентная лексика; английский язык; переводческие стратегии; лингвокультурология; дидактика; семантическая неопределенность; культурные различия; интерактивные методы; контекстуальное обучение; узбекская лингвистика.

Kirish. Bugungi globallashuv va madaniyatlararo muloqot kuchayib borayotgan davrda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini chuqur va har tomonlama o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda [1]. Ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, diplomatiya, ommaviy axborot vositalari va ta'lim sohalarining asosiy vositasiga aylangan. Shu bilan birga, til o'rganuvchilar ingliz tilini egallash jarayonida turli darajadagi leksik muammolarga duch kelishadi. Ayniqsa, ingliz tilida mavjud bo'lib, boshqa tillarda to'liq yoki yaqin ekvivalenti yo'q bo'lgan so'z va iboralar — muqobilsiz leksik birliklar (non-equivalent lexical units) — o'rganish jarayonida alohida qiyinchilik tug'diradi [3].

Muqobilsiz leksik birliklar — bu madaniyatga xos, tarixiy, mentalitet, ijtimoiy hayot tarzi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir [1]. Masalan, ingliz tilidagi "privacy", "serendipity", "pub", "brunch", "bachelor party" kabi so'zlar bevosita tarjimada o'z ma'nosini to'liq yo'qotishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin [2]. Chunki bu birliklar faqatgina lug'aviy ekvivalent emas, balki madaniy kontekstni ham o'zida mujassam etgan. Shuningdek, ushbu turdagi leksik birliklarni o'zlashtirishda tarjimonlar, tilshunoslar, hatto zamonaviy lug'at tuzuvchilar ham ko'plab metodologik muammolarga duch kelishadi [2].

O'zbek tilida ingliz tilidagi bunday muqobilsiz so'zlarni izohlash, tushuntirish yoki tarjima qilishda nafaqat lug'aviy, balki

didaktik va psixolinguistik yondashuvlar zarur bo'ladi. Chunki til o'rganuvchi shunchaki so'zning tashqi shaklini emas, balki uning ma'no qatlamlarini, qo'llanish kontekstini, emotsional va madaniy yukini ham anglab yetmog'i lozim.

Mazkur maqolada ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklarni o'rganishdagi asosiy muammolar tahlil qilinadi, ularni tasniflash, o'quvchilarga tushuntirish usullari, tarjima qilish strategiyalari, va ularni til o'rgatish jarayonida samarali qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ayniqsa o'zbek tilida so'zlashuvchi til o'rganuvchilar misolida olib boriladi. Shuningdek, ushbu muammo ingliz-o'zbek lingvokulturologik tafovutlar kontekstida yondashilib, ilg'or xorijiy tajribalar ham tahlil qilinadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklarni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularni tasniflash va ularni o'zbek tilida so'zlashuvchi til o'rganuvchilar uchun samarali o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish maqsad qilingan. Shu bois, maqola sifatida lingvistik, lingvokulturologik va didaktik yondashuvlar integratsiyalashgan holda olib borildi [2].

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: Deskriptiv (tasviriy) tahlil metodi — ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklar aniqlanib, ularning morfologik, semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilindi. Bu jarayonda ingliz tili korpuslari, zamonaviy lug'atlar (Oxford English Dictionary, Cambridge Dictionary),

ingliz tilida yozilgan adabiy va ommaviy matnlar korpusidan foydalanildi.

Lingvokulturologik tahlil – o'rganilayotgan so'zlarning ingliz jamiyatidagi madaniy, tarixiy va ijtimoiy asoslari aniqlanib, ular bilan o'zbek tilidagi mavjud leksik birliklar o'rtasidagi tafovutlar belgilandi. Masalan, “pub” va “mehmonxona” so'zlari semantik jihatdan yaqin bo'lishi mumkin, ammo ularning ijtimoiy konnotatsiyasi va qo'llanish konteksti tubdan farqlanadi.

Solishtirma tahlil – ingliz va o'zbek tillari o'rtasida muqobilsiz leksik birliklarning tarjima variantlari taqqoslab o'rganildi. Bu metod orqali o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydigan so'zlar, ularning kontekstual izohlari va qamrov doiralari aniqlab chiqildi.

Didaktik tahlil – ingliz tili o'qituvchilari va o'rganuvchilari uchun muqobilsiz leksikani o'qitishda qo'llanilayotgan uslublar, darsliklar, dars ishlanmalari tahlil qilindi. Shuningdek, qiyinchilik tug'dirayotgan so'zlar bo'yicha talabalar o'rtasida kichik so'rovnoma ham o'tkazilib, amaliy mulohazalar asosida o'rgatish strategiyalarining afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi.

Empirik yondashuv – Urganch davlat universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarining filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan suhbatlar, amaliy mashg'ulotlar natijasida muqobilsiz so'zlar bilan ishlashdagi real holatlar tahlil qilindi. Bu orqali muammolar faqat nazariy nuqtayi nazardan emas, balki real o'quv muhitida kuzatildi.

Tadqiqotda asosiy e'tibor madaniyatlararo tafovutlarni inobatga olgan holda, muqobilsiz leksik birliklarning tarjimasini va o'rgatish metodikalarini takomillashtirishga qaratildi. Natijalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida sifatli (qualitative) tahlilga asoslangan uslubiy yondashuv qo'llanildi.

Natijalar. Olib borilgan tahlillar asosida ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklarni o'rganish jarayonida bir nechta asosiy muammolar aniqlangan bo'lib, ular semantik noaniqlik, madaniy tafovutlar, tarjima strategiyalarining yetishmasligi va metodik materiallardagi cheklovlar bilan bog'liqdir.

Semantik noaniqliklar – Ingliz tilidagi “serendipity”, “privacy”, “cringe”, “fair play”, “wanderlust” kabi so'zlarning o'zbek tilidagi aniq ekvivalentlari mavjud emas. Tadqiqotda aniqlanishicha, bu so'zlarning tarjimasini ko'pincha izohli tarzda amalga oshiriladi yoki umumiy ma'nodagi sinonimlar orqali tushuntiriladi, bu esa ularning asl konnotatsiyalarini yo'qotadi.

Madaniy tafovutlar – Muqobilsiz so'zlarning ko'pi muayyan jamiyatga xos ijtimoiy institutlar, urf-odatlar, qadriyatlar bilan bog'liq. Masalan, “pub” so'zining o'zbek tilidagi ekvivalenti “choyxona” emas, chunki bu joylarning ijtimoiy roli, ichimliklar turlari va mijozlar tipi keskin farqlanadi. Natijalarga ko'ra, talabalar bu kabi so'zlarni tarjima qilishda ko'p hollarda noto'g'ri parallel qiyoslashlarga yo'l qo'yadilar.

Tarjima strategiyalarining yetishmasligi – Ingliz tili darsliklarida va o'quv qo'llanmalarida muqobilsiz so'zlar uchun maxsus izohlar, madaniy kontekstga asoslangan izohli strategiyalar ko'p hollarda yetarli darajada qo'llanilmaydi. Natijada talabalar so'zning yuzaki ma'nosini tushunib, uning kommunikativ qiymatini anglay olmaydilar.

Til o'rganuvchilarning yondashuvidagi farqlar – So'rovnoma va suhbatlar natijasida ma'lum bo'lishicha, muqobilsiz leksikani o'zlashtirish darajasi talabalar orasida sezilarli farq qiladi. Bu ularning tilga bo'lgan qiziqishi, chet el adabiyotlariga bo'lgan e'tibori va mustaqil o'rganish odatlariga bog'liq.

O'qituvchilarning metodik yondashuvi – Dars jarayonlarida muqobilsiz so'zlarni o'rgatishda asosiy e'tibor kontekstual tahlilga emas, balki lug'aviy tarjimaga qaratilishi aniqlangan. Bu esa so'zlarning to'laqonli tushunilmasligiga olib keladi. Tajribali o'qituvchilar ko'proq interfaol yondashuvlarni qo'llagan hollarda esa, talabalar bu so'zlarni chuqurroq anglagan va eslab qolgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, muqobilsiz leksikani samarali o'rgatish uchun madaniy komponentga asoslangan ta'lim yondashuvlari zarurligi isbotlandi. Shuningdek, talabalar fikricha, bunday so'zlar maxsus bloklarda, real hayotiy misollar asosida, vizual yoki multimediya vositalari orqali o'rgatilganda ko'proq samarali bo'ladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklarni o'rganishda ko'plab lingvistik va metodik muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Bu so'zlar oddiy tarjima yo'li bilan emas, balki madaniy va semantik kontekstda tushuntirilishi kerakligi aniqlangan holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, “gap year”, “blue collar”, “taboo”, “awkward”, “gender-neutral” kabi iboralar o'zbek tiliga ko'chirilganida yuzaga keladigan tushunmovchiliklar ularning faqat til emas, balki ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, madaniyat bilan bog'liqligini isbotlaydi.

Ushbu muammo, asosan, ikki asosiy omil bilan izohlanadi: birinchidan, o'zbek tilida muqobilsiz so'zlar bilan ishlashga oid darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar va o'quv materiallarining yetishmasligi; ikkinchidan esa, o'qituvchilarning bunday leksik birliklarga metodik yondashuvining sustligi yoki ularni faqat “kam qo'llaniladigan” so'zlar sifatida chetlab o'tishidir. Aslida esa bu so'zlar zamonaviy ingliz tilining faol, konnotativ, ko'p qatlamli qatlamini tashkil etadi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi muqobilsiz leksikani o'rganish faqatgina tarjima asosida emas, balki interfaol, vizual va madaniy o'xshatmalarga tayanuvchi dars metodlari asosida amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi. Shu bilan birga, til o'rganayotgan shaxslar ushbu so'zlarning fon ma'nosi, madaniy ildizi va qo'llanish doirasini yaxshi anglashlari kerak. Masalan, “pub” va “bar” o'rtasidagi farq, yoki “Thanksgiving” bayramining sotsial-mental ta'siri haqida tushunchaga ega bo'lmagan talaba bu so'zlarni faqat grammatik jihatdan yodlab oladi, lekin ularni kommunikativ jihatdan to'g'ri ishlatishda qiynaladi.

Muhokama davomida ilgari surilgan muhim g'oyalardan biri — ingliz tilidagi muqobilsiz leksikani o'rgatishda kontekstual ta'lim modelini joriy etishdir. Ushbu model so'zlarni real hayotiy vaziyatlar, roliklar, multimediali misollar va madaniy almashinuv asosida tushuntirishni o'z ichiga oladi. Masalan, “tea time” iborasini nafaqat “choy ichish vaqti” deb tarjima qilish, balki u bilan bog'liq ijtimoiy urf-odatlar, oilaviy munosabatlar va inglizlar hayot tarzini ko'rsatish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

Bundan tashqari, muqobilsiz leksikani o'rganishdagi qiyinchiliklar tilga oid stereotiplarga ham bog'liq. Talabalar ko'pincha bunday so'zlarni “murakkab”, “keraksiz” deb qabul qilishadi, bu esa ularning motivatsiyasini susaytiradi. Bu o'z navbatida o'qituvchilardan yangicha, innovatsion, motivatsion yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqotdan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklar xorijiy tilni chuqur o'rganish, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish va zamonaviy kommunikatsiyada samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan asosiy komponentlardan biridir. Ularni o'rgatish bo'yicha darsliklar, metodik qo'llanmalar, interaktiv materiallar ishlab chiqilishi va o'qituvchilar malakasi doimiy oshirib borilishi lozim.

Ingliz tilidagi muqobilsiz leksik birliklarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb masala bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar nafaqat lingvistik, balki madaniy va didaktik muammolarni ham qamrab oladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bunday so'zlar bilan ishlashda asosiy to'siqlar semantik noaniqlik, madaniy tafovut va metodik resurslarning yetishmasligi bilan bog'liqdir. Talabalar uchun bu so'zlarni anglash va qo'llashda eng samarali yondashuvlar — kontekstual ta'lim, interfaol metodlar, vizual vositalar, madaniyatlararo qiyosiy tahlil va multimediya asosidagi tushuntirishlar ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi muqobilsiz leksika nafaqat lingvistik bilimni, balki madaniy tafakkurni, kommunikativ malakani va xalqaro muloqotda ishtirok etish kompetensiyasini ham shakllantiradi. Shuning uchun bu so'zlarni o'rgatish jarayonida faqat tarjimaga emas, balki ularning madaniy asosiga, qo'llanish kontekstiga va kommunikativ funksiyalariga chuqur e'tibor qaratilishi lozim.

Kelajakda ingliz tilini o'rgatish metodikalarini boyitishda muqobilsiz leksikani alohida bo'lim sifatida o'quv dasturlariga kiritish, maxsus metodik qo'llanmalar yaratish va o'qituvchilarni bu borada tayyorlash — dolzarb ilmiy-amaliy vazifalar sirasiga

kiradi. Zero, til faqat aloqa vositasi emas, balki butun bir xalqning tafakkuri, tarixiy xotirasi va madaniy identifikatoridir.

ADABIYOTLAR

1. Islomova, M. I. (2022). "The Concept of Non-Equivalent Vocabulary in Linguistics". *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(4), 864–868.
2. "Lexical Problems of Translation Between English Language and Uzbek..." *New Journal*.
3. Ismatullaeva, N. R. Muqobilsiz leksika – "lakuna" va "realiya": lingvomadaniy va tarjima xususiyatlari.
4. Abdullaeva, N. Ma'naviyat va milliy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022.
5. Karimov, Sh. Ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash. – Samarqand: Innovatsion nashrlar, 2021.
6. Qodirova, M. Globallashuv va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2020.
7. Soliev, O. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim. – Toshkent: AKT Nashriyoti, 2019.
8. Tursunov, K. Madaniy merosni saqlashning ahamiyati. – Samarqand: Ilm-fan, 2023.
9. Rasulova, Z. Muqobilsiz leksik birliklar tarjimasi. – Buxoro: Ziyo, 2021.
10. Ismoilov, D. Lingvokulturologik tafovutlar va o'qitish muammolari. – Nukus: Fan, 2020.
11. Smith, J. (2018). *Untranslatable Words in English: A Linguistic Analysis*. Oxford University Press.
12. Brown, L. (2020). *Challenges in Teaching Untranslatable Vocabulary*. Cambridge Scholars Publishing.



Sojidxon TURSUNOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sojidxatursunova0525@gmail.com

O'zMU dotsenti G.Keldiyorova taqrizi asosida

THE ANALYSIS OF IRONIES EXPRESSED IN ERKIN AZAM'S STORY "SHOIRNING TO'YI"

Annotation

Many artistic devices in language convey not only their main meanings but also figurative ones, serving as embellishments designed for specific communicative purposes. The usage of words in figurative senses plays an invaluable role in revealing the aesthetic function of the language and, more broadly, in clearly conveying the writer's aim within a literary text. Irony is considered one of such devices. In the story "Shoirting to'yi" ("The poet's wedding"), which we are analyzing, the author skillfully utilizes sarcasm, one of the techniques of expressing ironic meaning. The article highlights the use of irony in literary texts, the types of irony, and the means of expressing ironic meanings, through analyses based on excerpts from "Shoirting to'yi" ("The poet's wedding").

Key words: Irony, ironic meaning, sarcasm, beast, sweetheart, Otashqalb, Mafkuraxonim, Zahmatkash domla and others.

АНАЛИЗ ИРОНИИ В ПОВЕСТИ ЭРКИНА АЪЗАМА «СВАДЬБА ПОЭТА»

Аннотация

Множество художественных средств языка помимо своего прямого значения выражают переносные смыслы, служат для создания украшения, предназначенного для определенной цели говорящего. Использование слов в переносном значении играет неоценимую роль в реализации эстетической функции языка и, в целом, в четком выражении намерения писателя в художественных текстах. Ирония является одним из таких считается. В повести «Свадьба поэта», которую мы анализируем, автор мастерски использовал сарказм, один из способов выражения иронического содержания.

В статье на основе анализа повести «Свадьба поэта» освещаются применение иронии в художественном тексте, виды иронии, а также средства выражения иронического содержания.

Ключевые слова: Ирония, ироническое содержание, сарказм, чудовище, красавица, Оташкалб, Мафкурахоним, учитель Захматкаш и другие.

ERKIN A'ZAMNING "SHOIRNING TO'YI" QISSASIDA IFODALANGAN IRONIYALAR TAHLILI

Annotatsiya

Tildagi juda ko'p badiiy vositalar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nolarni ifodalaydi, so'zlovchining biror bir maqsadi uchun mo'ljallangan bezakni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tilning estetik vazifasini yuzaga chiqarishda, umuman olganda, badiiy matnda yozuvchining maqsadini aniq namoyish qilishida o'zni beqiyosdir. Ironiya mana shunday vositalardan biri hisoblanadi. Biz tahliliga kirishgan "Shoirting to'yi" qissasida ham ijodkor ironik mazmun ifodalash usullaridan biri bo'lgan sarkazmdan ustalik bilan foydalangan.

Maqolada badiiy matnda ironiyaning qo'llanishi, ironiyaning turlari hamda ironik mazmun ifodalashning vositalari "Shoirting to'yi" qissasidan olingan tahlillar yordamida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ironiya, ironik mazmun, sarkazm, maxluq, dilbar, Otashqalb, Mafkuraxonim, Zahmatkash domla va boshqalar.

Kirish. Nutqda so'z va iboralarning kesatq yoki piching orqali o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatish usuli ironiya deyiladi [8].

Ironik mazmun – bu manfiy, inkor xarakterga ega bo'lgan subyektiv baho modalligi asosida beriladigan ziddiyatli fikrlar yig'indisidan iborat bo'lgan bir butun matnning – predikativ – relyativ kompleksning mazmunidir. Ironik mazmun muallifning maqsadi, shaxsiy munosabati yashiringan formada ifodalanadi.

O'zbek tilida ironik mazmun ifodalashning asosiy usullari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: kinoya, kesatq, piching, qochirim, kulgi, zaharxandalik, istehzo, masxara, mazax, ermak, shama, ilmoq, uchuruq, luqma. Bundan tashqari arab tilidan kirgan "tajohili orifona", "ta'riz" leksemalari ham teskari ma'no ifodalash usullarining nomlari bo'lib, ta'riz pichingga, tajohili orifona esa, qochirimga sinonim sifatida qo'llanadi.

Ironik mazmun ifodalashning eng yuqori kulminatsion nuqtasiga yetkazilgan usuli uslubshunoslikda sarkazm deyiladi. Sarkazm o'ta salbiy munosabat ifodalash usuli bo'lib, unda achchiq zaharxandalik, masxaralash, mazax, qahr-g'azab ochiq-oydin sezilib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy matn hamda uning tahlilida ironiya, ironiyaning turlari, ironik mazmun ifodalovchi vositalarni o'rganish dolzarb mavzu bo'lib, o'zbek tilshunosligida ham, xorijiy manbalarda ham ilmiy izlanishlar olib borilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, o'zbek

tilshunosligida A.Mamajonovning "Tekst lingvistikasi", M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarining "Matn tilshunosligi", M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari", "Badiiy matn lingvopoetikasi", "Badiiy matnning lisoniy tahlili", M.Mirtojiyevning "Lingvistik metaforalar tasnifi", S.Muxamedova, M.Saparniyozovanning "Matn lingvistikasi" va boshqa bir qator ilmiy adabiyotlar; D.Andaniyozovanning "Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi", E.Ibragimovanning "O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari", Y.Odilovning "O'zbek tilida enantiosemya", O.Shofiyevning "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)", Sh.Abdurahmonovning "Kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar" dissertatsiyalari, jahon tilshunosligida Knox N. "The word "irony" and its context", Mueske D.C. "The compass of irony" kabi ilmiy manbalarda ironiya va uning turlari haqida ma'lumot keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Keying yillarda Erkin A'zam ijodi haqida adabiyotshunosligimizda Y.Solijonov, I.Haqqul, Q.Yo'ldoshev, Sh.Rizayev, M.Qarshiboy, S.To'laganova, G.Sattorova, P.Kenjayeve, Sh.Murodov, B.Yoriyev, N.Yo'ldoshev, D.Saydaxmatova, O.Pardayev, B.Mo'minov, M.Berdimurodova, A.Saidovlarning maqola va taqrizlari e'lon qilindi. Shuningdek, A.Xolmurodov va M.Sheraliyevaning dissertatsiyalarida Erkin A'zam ijodi material, tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan[11].

H.Boltaboyev ("O'z so'zini izlab..." maqolasida), U.Normatov, N.Xudoyberganov, R.Otayev ("Dilrabo qo'shiqlar

aytilaversin" maqolasida), N.Shukurov va I.Hasanov, O.Tog'ayev, N.Vladimirova kabilarning tadqiqotlarida Erkin A'zamning ilk ijodi haqida munosabat bildirilgan.

Erkin A'zam asarlari o'zbek tilshunosligining ham diqqat markazida bo'lib kelmogda. Buning sababi esa uning asarlarida o'zbek tilining boy va serjilo tovlanishi, xalqona so'z, ibora, qochirim, matal, maqol, aforizmlarga boyligi va boshqalar bilan izohlash mumkin. O'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, Y.Odilov, D.Andaniyozova, Sh.Toshxo'jayeva, Z.Umurqulov kabilarning tadqiqotlarida Erkin A'zam asarlari turli aspektlarda o'rganilgan[12].

Rofiyeva Gulasal Yusubjonovnaning "O'zbek tilida fransuz tiliga konseptual metaforalar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari (Erkin A'zam asarlari asosida)", Shofiyev Obidjon Baxtiyorovichning "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)" kabi dissertatsiyalar ham shular jumlasidandir.

M.Qo'chqorova esa adib nasridagi kinoyaviy badiiy shartlilikni quyidagicha tasniflab o'rganadi:

1. Beozor kinoya: "Anoyining jaydari olmasi", "Ta'ziya", "Navoiyni o'qigan bolalar", "Qiyofadosh" (hikoyalar).

2. Zaharxanda kinoya va sarkazm: "Shovqin" (roman), "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpapaklar mamlakati", "Guliguli" (qissalar), "Aralashqo'rg'on", "Yozuvchi" (hikoyalar), "Farrosh kampirning tushi" (drama).

3. Quvnoq yumoristik kinoya: "Pakananing oshiq ko'ngli" (qissa).

4. Liro-romantik kinoya: "Bahor", "Bahorni quvib", "Kechirasiz, o'rtoq muallim", "Shaytonchalar ko'chasi" (hikoya va qissalar).

Albatta, yuqoridagi tasnif ham shartli ekanligini inobatga olmoq lozim. Chunki bir asarda kinoyaning bir necha ko'rinishlari uchrashi mumkin[13].

Tahlil va natijalar. Ijodkor asarlari tahliliga kirishar ekanmiz, nafaqat asardagi ayrim leksik vositalar, balki asarlarining o'zidan, hatto nomidan ham ironiya ufurib turganiga amin bo'lmoqdamiz. Ushbu asar orqali e'tiborimizni ironik mazmun ifodalash usullaridan yana biri sarkazmga qaratmoqchimiz. Sarkazm ironiyaning o'tkir ko'rinishi, so'zni mutlaqo aks ma'noda qo'llash usulidir. Tahlil uchun adibning "Shoirning to'yi" qissasini tanladik. Ushbu asarni tahlil qilish davomida asarning boshdan oyoq ironiya bilan yozilganiga ishonch hosil qildik. Hatto asar qahramonlarining nomlanishida ham ironiya mavjud. Mahobatli binoda "kazo-kazolar" davrasida ardoqli ijodkor Otashqalbning yubiley to'yi nishonlanmogda. Hayratlanarli jihati shundaki, barcha munofiq va ikkiyuzlamachi insonlar old qatordan joy olgan bir paytda allaqachon o'ldiga chiqarilgan shoirni eshikdan kirishga-da haqqi yo'q.

Ulkan naqshinkor qopqa oldida odam siyraklashgan. Kelgani qo'lidagi shapaloqdek qog'ozni ko'rsatib kirib ketayotir. Anovi yo'g'on ustunning panasida payt poylab turgan ajabtovur muxlisimiz boya bir necha marotaba o'shalar safida o'zini eshikka urib ko'rdi. Bo'lmadi. Darbon xotin uni ko'rib, ko'zining paxtasi chiqib ketayozdi: bu kim, qanaqa maxluq, qayoqdan paydo bo'ldi, bu yerda nima qiladi, kim qo'ydi uni bunday joyga, hey, bu yoqqa qaranglar, odam bormi?..[14]

Sarkazm so'zni teskari ma'noda qo'llash deb aytdik, ushbu parchada ham uning namunasini uchratamiz. Ushbu hodisa "maxluq" leksemasi vositasida yuzaga chiqmogda. O'zbek tilining izohli lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Arabcha so'zdan olingan bo'lib, ko'chma ma'noda o'xshovsiz, xunuk, jirkanch jonvorga nisbatli haqoratni bildiradi"[15]. Jirkanch deya haqoratlanayotgan inson aslida yubileyi nishonlanayotgan shoir ekanligini, taassufki, til-zabonsiz, qo'l-oyoqsiz "maxluq"dan bo'lak bilguvchi yo'q.

Anjumanni shoirning yoshlik do'sti, eng yaqin safdoshi (unga aynan shunday ta'rif berildi) Oqsoqol shoir odatdagi – samimiy desa odamning haqi ketadigan, soxta desa noinsoflikka o'tadigan mujmal va chuchmal kirish so'zi bilan ochdi. Shu to'rt og'iz gapni ham u qog'ozdan ko'z uzmay o'qib berdi; chamasi, buni avval kimdir – Mitrofan Grigoryevich atalmish istalgan mavzuda istalgancha matn yozib bermoqqa qodir mangu yordamchisi o'z ona tilida bitib, so'ngra yana kimdir o'zbekchaga aylantirgan.

"Eng yaqin do'sti" deb e'tirof etilayotgan inson aslida kim? Bu leksik birlikda ham sarkazm aks ettirilgan bo'lib, buni "eng yaqin safdosh"ning nutqidan ham sezish mumkin. Qarangki, birga o'qib, birga ishlagan "eng yaqin do'st" "mangu yordamchisi" yozib bergan qog'ozga qaramay do'sti haqida bir og'iz gap aytolmasa... Nahot, shunday Oqsoqol shoirning kimdirlar yozib, yana kimlardir o'zbekchaga o'girib bergan to'rt qator matnga kuni qolgan bo'lsa? "Samimiy desa haqi ketadigan" deyilishi bejiz emas, albatta. Qanday ham aytin, aslida shoirni qamoqqa olinishi sababchi bo'lgan inson mana shu "yoshlik do'sti, eng yaqin safdoshi" emasmi? Bir qizni deb do'stlar dushmanga aylangan, hasaddan o'z do'stiga xiyonat qilgan inson "shoirning to'yi"da eng aziz mehmon...

Mamnuniyat bilan Mafkuraxonga so'z berishga berdi-yu, Oqsoqol shoir ichida g'ijini qo'ydi: "Endi shu manjilaqi bizga katta!". Boyagi hijolatbozlik esiga tushib, xuddi o'zi mulzam bo'lgandek noqulaylik sezdi.

So'zimiz avvalida asar qahramonlarining ismida ham sarkazm namoyon etilishi aytgan edik, mana so'zimizning isboti. Mafkuraxon qanchalar ismi jismiga monand ayol? Axloqiy buzuc (Tepakal bilan ishqiy munosabatlari buning isboti), dunyoqarashi past, ma'naviy qashshoq, bilimsiz, aql-u idrokdan mahrum (hatto, qaysi davrada ekanligidan bexabar bu ayol o'lib ketgan shoirning to'yida yubilyar keldimi deb so'raganidan bilish mumkin), shu qadar tuban kimsaki, mansablarga tayinlashda ham insonlarni bilimiga emas, husniga, chiroyiga, yengiltak ekanligiga qarab tainlaydi. Atrofini ham o'zi kabilar bilan to'ldirmoq ilinjida. Aslida ismining mutlaqo aksi bo'lgan "Mafkuraxon" davraning eng kattalaridan, eng obro'lilaridan biri. Oqsoqol "manjilaqi" leksemasi vositasida uning naqadar axloqiy tuban ayol ekanligini shama qilmogda.

Anovi tolmas safsataboz zavq-shavq bilan davom etardi:

Shoirning chap yonida, yurakka yaqin tomonda, tabiiyki, uning sevikli rafiqasi, o'zi ta'rif etmish "muhabbat guli" – Ma'shuqaxonim o'tirgan bo'lur edilar[1].

"Yurakka yaqin", "sevikli rafika" sifatida kimlar tushuniladi, aslida?! Bir umr bir yostiqqa bosh qo'yan, yaxshi va yomon kunlarida hamroh, dardlariga darddosh, vafo va sadoqat timsoli, har qanday yomon kunda ham yonida yelkama yelka tura oladigan bardoshli, irodali, yori uchun shirin jonini-da nisor qilishdan qaytmaydigan rafika anglashiladi sevikli rafika deganda. "Sevikli rafika" deya ko'klarga ko'tarilayotgan ayol esa bir-ikki ko'ngilxushlik qilib, tuxmat toshlari shoirga otilgan zamonda nomini tiliga ham olmagan, bir qarasangiz artistga, bir qarasangiz o'ris polkovnikka tegib suykalmagan erkagi qolmagan bir taviya. Otashqalbning nomi oqlangandan so'ng esa o'zidan vafodor rafika yasab olgan. Otashqalbning unda mutlaqo ko'ngli bo'lmagan, uning muhabbati aslida boshqa bir go'zal bo'lgan. Yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa ham axloqiy buziqligi qolmagan bu "ochiq qozon" shu davrada ham o'zini namoyish etish bilan band. Bu haqiqatlarni Oqsoqol shoirgina biladi xolos, lekin afsuslar bo'lsinki, yurak yutib bir so'z aytishga jur'at etolmaydi. Bir vaqtlar nafsining gapiga kirib, Ma'shuqaxonim bilan qilgan ishlari bunga izn bermaydi, sharmanda bo'lishdan, obro'sini yo'qotishdan qo'rqadi. Qolaversa, bu makkor ayol uning xotini bilan ham qalin bo'lib olgan.

Moviyko'z dilbar... ana, o'tiribdi. Ma'shuqaxonimning biqinida. Basharasi burishib, bujmayib ketgan, bir zamonlar Otashqalbni entiktirgan moviy ko'zlar endi xira tortib, tussiz bo'lib qolgan. Alvasti![1]

Dilbar so'zi ham aks ma'noda qo'llangan leksemalardan hisoblanadi. Uning tabiatiga ko'proq Alvasti leksemasi munosibroq. Ushbu leksemaga O'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan: "Dilbar so'zi forscha so'zdan olingan bo'lib, dilni tortuvchi, jalb etuvchi, yoqimli degan ma'nolarni bildiradi. 1. Dilni maftun etadigan, o'ziga tortadigan, yoqimli, dilrabo. 2. Go'zal yor, mahbuba, ma'shuqa. 3. Ko'rkamligi, odobi va nazokati bilan es-hushni oladigan, chiroyli"[6]. Moviyko'zda bunday sifatlar mujassam emas. Ehtimol, bir vaqtlar chiroyli bo'lgandir, biroq odobli deya olmaymiz. Ko'plab erkaklarning boshini aylantirgan, ko'ngilxushlik qilib ketaverishdan qaytmaydigan bu Moviyko'z Otashqalb va Oqsoqol shoirning ham ko'nglidagi joy olgan edi. Ular uchun bu dilbarsiz ko'zlariga dunyo tor, hayot qorong'u edi. Ikki do'stni dushmanga aylantirgan

ham shu makkora. Oqsoqol shoir Moviyko'zni qo'lga ilintirish ilinjida o'z do'stiga nisbatan sotqinlik qiladi. U jondan ortiq suygan ayoli aslida Alvasti ekanligini juda kech anglab yetdi. Bu vaqtda ortga qaytishning imkonini yo'q edi.

Bu qizning otasi viloyat ijroqo'miga rais bo'lgan. Uch yilmi-to'rt yil bo'ldi olamdan o'tganiga. Qiz esa o'zi ko'rmagan-bilmagan shoir amakini qattiq tutgan.

Shunisigayam rahmat demaysizmi, birodar, shu kunda jon-jigarlar bir-birining ko'ziga cho'p suqib yuribdi-ku!

Rahmat, - dedi Zahmatkash domla. U "rahmat" dedi-yu, "la'nat" ma'nosida aytdi[1].

Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, sarkazm achchiq kulgi. Ushbu parchani o'qir ekanmiz, "rahmat" leksemasi tagida zaharxanda, achchiq kulgini sezmaslikning imkonini yo'q. Zahmatkash domla rahmat so'zini "la'nat" ma'nosida ishlatadi. Buning boisi, bugun amakisining etagiga osilib olgan, uning uchun soxta ko'zyoshlar to'kayotgan bu makkor ayol na amakisini taniydi, na uning biror misra she'rini yoddan biladi. She'riyatdan mutlaqo bexabar Jiyanbeka iste'dodli shoiralardan. Axloqiy jihatdan tubanlik borasida Ma'shuqaxonim, Alvastixonim, Mafkuraxonimlardan aslo qolishmaydi. Ko'r-ko'rni qorong'uda topadi deyishlari shu davraga munosib tarzda aytilgan bo'lsa ne ajab. Amakisining qabrini ziyorat qilish uchun Zahmatkash domla bilan safarga chiqqan sirtan mehribon, fidokor jiyani bo'lib

ko'rinuvchi makkor Jiyanbeka safar davomida Mas'ul xodim bilan araq ichib, ko'ngilxushlik qilishdan nariga o'tmaydi.

Eng achinarlisi, bularning barini Otashqalb bir chekkada o'z ko'zlari bilan ko'rib, quloqlari bilan eshitib turgan edi. Uni faqatgina shu a'zolari omon qolgan edi. Lekin bularga qarshi bir so'z deyishga ojizlik qilardi. Oqsoqolning o'limi haqidagi xabardan so'ng tongda paxtasi chiqqan kamzul cho'ntagidan Otashqalbning hujjatlari topiladi. Hamma hayratda, ammo izohlab beroladigan kimsa topilmaydi.

Xulosa va takliflar. Ijodkor asarlari insonni mushohadaga chorlaydi. Kitobxon beixtiyor o'yg'a toladi. "Shoirning to'yi" qissasidagi ironiyaning kulminatsiyasi sarkazm asarning yana-da ta'sirchan chiqishiga xizmat qilgan. Sarkazm ayrim adabiyotlarda antifraza deb ham yuritiladi. Asardagi "eng yaqin do'st", "safdos", "dilbar", "Ma'shuqaxonim" va boshqa bir qator leksemalar sarkazmni ifodalovchi leksik birliklardir. Bir so'z bilan aytganda ironiyalarni ijodkor asarlari bag'riga shu qadar singdirib yuborganki, qoyil qolmay iloj yo'q.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, o'zbek tilida salbiy munosabat ifoda etishning xilma-xil usullari mavjud bo'lib, ular bir-biridan darajalanishi bilan farqlanadi. Erkin A'zam mana shu vositalardan o'z ijod namunalari mohirlik bilan foydalana olgan. Tahlilga tortilgan asarlari ham fikrimizning isboti bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Erkin A'zam. Shoiring to'yi. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 28.
2. Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. Filo.fan.n.diss. 6918/2001.
3. Mueske D.C. The compass of irony. – London: Methuen d LTD, 1969. C.10. – P.276.
4. Odilov Y. O'zbek tilida enantiosemiya. Dis-232/2016. –B. 86.
5. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. -B. 241.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 67.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 450.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006. – B. 320.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006. – B. 341.
10. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 24.
11. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 19.
12. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 20.
13. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 28.
14. Erkin A'zam. Shoiring to'yi. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 2.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 559.



Dilfuza FAXRITDINOVA,
Samarqand Davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: faxritdinovadilfuza5@gmail.com

SamDU professori, f.f.d A.Pardayev taqrizi asosida

FUNCTIONAL-METHODOLOGICAL STUDY OF THE CONGRATULATORY SPEECH ACT

Annotation

In addition to the functions of the congratulatory speech act, its main categories are analyzed in the article, the different aspects of the congratulatory speech act from other speech acts such as wish, praise, flattery, and praise are revealed. In this place, various communicative situations that are of great importance in the implementation of the congratulatory speech act, the speaker's attention to the person to whom the speech is addressed due to his achievements, expressing his emotional state, positive attitude during the communication process, sharing the joy of the interlocutor, chosen by him the role of speech acts in the process of arousing emotional feelings in the addressee by creating a good mood and expressing respect by means of language units is shown.

Keywords: Speech, speech act, congratulatory speech, congratulatory speech act, language, Uzbek language, locative, praise, greeting, expressive speech act.

TABRIK NUTQIY AKTINING VAZIFAVIY-USLUBIY TADQIQI

Annotatsiya

Maqolada tabrik nutqiy akt funksiyalari bilan bir qatorda, uning asosiy kategoriyalari tahlil qilingan, tabrik nutqiy aktining istak, madh etish, xushomad, maqtov kabi nutqiy aktlardan farqli jihatlarini ochib berilgan. Bu o'rinda tabrik nutqiy aktini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan turli kommunikativ vaziyatlar, so'zlovchining nutq qaratilgan shaxsga u erishgan yutuqlar tufayli e'tibor qaratish, muloqot jarayonida o'zining emosional holatini, ijobiy munosabatini, suhbatdoshning quvonchiga sherik ekanligini ifodalash, o'zi tomonidan tanlangan til birliklari vositasida unda yaxshi kayfiyat hosil qilish, o'z hurmat-ehtiromini bildirish orqali adresatda emosional tuyg'ular uyg'otish jarayonida nutqiy aktlarning roli ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, nutqiy akt, tabrik nutqi, tabrik nutqiy akti, til, o'zbek tili, lokutiv, maqtov, tabrik, ekspressiv nutqiy akt.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИВЕТСТВЕННОГО РЕЧЕВОГО АКТА

Аннотация

В статье анализируются функции поздравительного речевого акта, его основные категории, выявляются отличия поздравительного речевого акта от других речевых актов, таких как пожелание, похвала, лесть. В этом месте возникают различные коммуникативные ситуации, имеющие большое значение при осуществлении поздравительного речевого акта, внимание говорящего к человеку, к которому обращена речь, благодаря его достижениям, выражению его эмоционального состояния, позитивного настроения в процессе общения, разделяя радость собеседника, выбранная им роль речевых актов в процессе возбуждения эмоциональных переживаний у адресата путем создания хорошего настроения и выражения уважения посредством языковых единиц.

Ключевые слова: Речь, речевой акт, поздравительная речь, поздравительный речевой акт, язык, узбекский язык, локатив, похвала, приветствие, экспрессивный речевой акт.

Kirish. Tabrik nutqiy aktining umumiy tavsifi quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tabrik nutqiy akti o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir qator ijtimoiy ekspressivlarni qamrab oladi: u so'zlovchining adresatga (nutq qaratilgan shaxsga) ijobiy munosabatini va tabrik nutqi amalga oshishi jarayonida yuz beradigan his-tuyg'ularni o'zida aks ettiradi. Tabiiyki, tabrik yo'llovchi va adresat, kommunikativ vaziyatning mavjud bo'lishi tabrik aktining amalga oshishi uchun shart bo'lgan elementlar hisoblanadi. Agar ulardan birortasi mavjud bo'lmas ekan, mazkur nutqiy akt yuzaga chiqmaydi. Mazkur nutqiy harakat maqsadi aloqani kerakli mezonda ushlab turishni ta'minlash, adresat bilan o'zi o'rtasidagi do'stona munosabatlarni saqlab qolish va bunda o'ziga tegishli bo'lgan hissiyotlarni, emosional holatlarni ifodalashdan iborat. Shu ma'noda, ta'kidlash mumkinki, tabrik muloqotchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga solib turuvchi harakatdir, u bundan tashqari boshqa sotsiativlarni ham – muloqot jarayonida maxsus xushmuomalalik, yaxshi istaklar bildirish muhitini yuzaga keltirish vazifasini ham bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuga doir tadqiqotlar R.Qo'ng'urov, A.Abdusazizov, D.Ashurova, G.X.Bakieva, O.Bozorov, A.M.Bushuy, Sh.M.Iskandarova, S.I.Ismoilov, E.Begmatov, Yo.Tojiev, A.E.Mamatov, N.Mahmudov, S.Mo'minov, H.Negmatov, N.Vohidova, G.Toirova, S.Raximov, J.Sh. Safarov, A.Nurmonov, B.Yo'ldoshev, M.Hakimov, H.Ya.Hojieva va Sh.Shahobiddinova

kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, keyingi o'rinlarda ulardagi mavzumizga daxldor bo'lgan ilmiy-nazariy fikrlarga munosabat bildiramiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, kishilar til vositasida o'zaro aloqaga kirishar ekanlar, unda qo'llanilgan til birliklari vositasida tilning munosabat ifodalash, ta'sir qilish kabi xususiyatlari namoyon bo'ladi. Kishilar til birliklaridan foydalanish bilan turli ruhiy holatlarni, quvonchu istaklari, orzu-umidlarini ifodalaydilar. Bu nutqiy akt o'zining mohiyatini ifodalovchi bir qator vaziyatga bog'liq holda yuzaga keluvchi ta'sirchanlik holatlariga ega: u so'zlovchining his-tuyg'ulari va munosabatini ifodalab adresatda oxir-oqibatda ijobiy reaksiya uyg'otishga yo'naltiriladi. Tabiiyki, tabrik jarayonida adresat va tabrik yo'llovchi kommunikativ vaziyatning bo'lishi shart bo'lgan elementlari hisoblanadi. Agar adresat bo'lmasa, nutqiy akt sodir bo'lmaydi. Mazkur nutqiy harakatning maqsadi aloqani kerakli noziklikda ushlab turish, o'z shaxsiy emosional holatini ifodalash orqali adresat bilan qizg'in do'stlik munosabatini kuchaytirish hisoblanadi va bu maqsad performativ nominatsiya ta'rifidan guvohlik beradi. Shu ma'noda aytish mumkinki, tabrik suhbatdoshlarning shaxsiy munosabatlarini boshqarib turadi. Tabrik nutqiy aktida vaziyat ijtimoiy xarakter kasb etadi, adresatga hurmat, u bilan aloqani saqlab qolish maqsadida o'z samimiy hurmatini ifodalovchi leksik birliklarning qo'llanilishi o'ziga xos ishora-signal hisoblanadi. Masalan, kishilar o'rtasidagi tug'ilgan kun, milliy bayramlar, tarixiy sanalar bilan bog'liq

tabriklarda asosan adresatning sog'ligi, ishi, oilasiga aloqador tilak, istak bildiruvchi so'zlar va jumlarlar ishlatiladi va ular hayotning maishiy tomonlarini qamrab oladi. Jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy mavqega ega bo'lgan yirik allomalar, davlat arboblari bilan bog'liq tabriklar ma'no ko'lamining kengligiga ko'ra oddiy tabriklardan farq qilsa, davlatlar rahbarlari o'rtasidagi tabriklar esa siyosiy xarakterga ega bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Maqto'v ifodasi ham muloqot jarayonida so'zlovchining nutqi yoki matn mazmunidan kelib chiqadigan ekspressiv axtlardan biri hisoblanadi. Maqto'v – maqtab aytilgan yoki yozilgan so'z, gap bo'lib, biror kishi, narsa, hodisa, voqea to'g'risida yaxshi fikr, ma'qullashning nutqiy ifodasidir[4]. So'zlovchining maqto'vdan ko'zlagan maqsadi nutq ob'ekti haqidagi ijobiy bahosini va u bilan birga keladigan yoki nutq vaziyatida yuzaga kelgan ruhiy holatlarni ifodalashdan iboratdir. Maqto'vda so'zlovchining baholash nuqtai nazaridan ma'qul, ideal deb topilgan jihatlari, nutq qaratilgan ob'ektga xos ijobiy sifatlarini ta'riflash ko'zda tutiladi. Bunda baho shaxsning tashqi ko'rinishi, faoliyati, ma'naviy-axloqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Maqto'v ifodasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, unda muloqotchilarning o'zaro munosabatiga bog'liq holda so'zlovchining kommunikativ niyati eksplitsit (ochiq) tarzda ifodalanadi. Maqto'v ifodasidagi propozitsiya his-hayajonni ifodalovchi undovlar, ijobiy istak bildiruvchi so'zlar vositasida kuchaytiriladi. Emotsional-ekspressivlikka ega nutqiy ifodalarda, xususan, maqto'vda baholash so'zlovchi yoki yozuvchining ob'ektiv borliq, nutq ob'ekti bilan o'zaro ta'siri jarayonida qadriyatni yuzaga chiqarishning o'ziga xos uslubi hisoblanadi.

Ko'rinadiki, ekspressiv nutqiy aktlar mazmuni, qo'llanishi va til birliklarini qamrab olish doirasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. So'zlovchining kommunikativ maqsadi, nutqiy aktlarning yuzaga chiqishida qo'llaniladigan turli taktika va strategiyalar, kutilayotgan pragmatik samara ekspressiv nutqiy aktlar funksional-pragmatik tabiatini belgilab beradi. Bu esa o'z navbatida so'zlovchi shaxs uchun til birliklarini qo'llashda, voqelik faktlarini ekspressivlik nuqtai nazaridan baholashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Tabrik formulalarining variantlari so'zlovchining o'z nutqi qaratilgan shaxsiga ta'siri samarasining pragmatik qurilishi va uning aks etishini ifodalaydi. Yuqorida qayd etilganlarga asoslangan holda tabrikni jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlar bilan bog'liq bo'lgan, nutq qaratilgan kishiga bo'lgan ijobiy istakni ifodalovchi va u bilan kelajakda ham aloqalarni saqlab qolish ko'zda tutilgan alohida nutqiy akt sifatida belgilash mumkin.

Tabrik istakdan tan olish, madh etish, xushomad, maqtab aytiladigan so'zlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Bular adresatning ma'lum bir yutuqlarga erishganligi, muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritganligi va ko'pchilik tomonidan unga baho berilishi bilan bog'liq. Masalan, tabrik ma'lum bir kishining o'qishga kirganligi bilan bog'liq bo'lsa, unda uning imtihonni muvaffaqiyatli topshirganligi, layoqatiga so'zlovchining ijobiy bahosi eksplitsit tarzda aks etadi. Xushomad, maqtab aytiladigan gap-so'zlarni doimo tabrikka nisbat berish yaramaydi, tabrik nutq qaratilgan shaxsning hayotda o'z faoliyati davomida ma'lum bir yutuqlarga erishganligi yoki adresatning hayotidagi tantanali vaziyatlarni aks ettiradi. Bunda hodisaning natijasi xarakterini belgilovchi mezon – tabrik uchun asos hisoblanadi.

Tabrik uchun asos sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Vaziyatlar –tabrik uchun madaniy an'analar asosida belgilanuvchi sababdir. Masalan, tabrik uchun sabablarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1) tug'ilgan kun kabi odat tusiga kirgan taomillar, milliy-ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi "Navro'z", "Qurbon hayiti".

"Vatan himoyachilari kuni" kabi bayramlar, oilaviy bayramlar va boshqalar.

2) Adresatning maxsus yutuqlarga, muvaffaqiyatga erishganligi sababi. Masalan, sport, olimpiada kabilarda erishilgan yutuqlar.

3) adresatning to'g'ridan to'g'ri ishtirokisiz amalga oshgan baxtli voqealar.

Istakka nisbatan tabrik uchun shu muhimki, bu so'zning qo'llanishining o'ziyoq so'zlovchining adresat hayoti bilan qiziqishidan dalolat beradi. Tabrikning bo'lmashligi relevant vaziyatlarda so'zlovchining adresatga qiziqishining susaygani yoki u bilan birgalik hissining yo'qolganini ko'rsatadi. Xususi bayramlar va maxsus hodisalarning ahamiyati haqida ijtimoiy kelishuv tabrik otkritkalarining katta miqdorda aniq ko'rinadi. Tabrikning bu yozma ko'rinishidagi shu dalil qiziqarliki, lisoniy birliklarning namoyon bo'lish imkoniyatlari o'rni ko'pincha originallik va rasmiylashtirilish bilan qoplanadi.

Tabrik nutqiy akti so'zlovchi va nutq qaratilgan shaxs o'rtasida insoniy munosabatlar odob-axloq mezonlari asosida qurilgan holatlarda yuzaga chiqadi. Tabrik nutqiy akti so'zlovchining nutq qaratilgan shaxsiga ijobiy munosabatini va tabrik nutqi amalga oshishi ehtiyoji tufayli sodir bo'ladi. Mazkur nutqiy harakatni amalga oshirishda so'zlovchi o'zi va nutq qaratilgan shaxsning jamiyatda egallab turgan ijtimoiy mavqei, oilaviy, kasbiy jihatdan yaqinligi, tanishlik darajasi, yoshi, jinsi kabi jihatlarni ham e'tiborda tutadi. Bu vaziyatlarda so'zlovchining o'z nutqi qaratilgan shaxs bilan bog'liq voqea-hodisadan mamnunligi, quvonchi kabi emotsional holatlari namoyon bo'ladi. Bu haqda nutqiy aktda performativ nominatsiyalar definitsiyalari ma'lumot beradi. Shu ma'noda, ta'kidlash mumkinki, dialogik nutqda tabrik muloqotchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga solib turuvchi harakatlar, u bundan tashqari boshqa sotsiativlarni ham – muloqot jarayonida maxsus xushmuomalalik, yaxshi istaklar bildirish muhitini yuzaga keltirish vazifasini ham bajaradi.

Tabrikning eng asosiylari illokutiv kuchlarning umumiyli (his-tuyg'ularni ifodalash) va perllokutiv maqsad (javob emotsional ta'sirga erishish)dir. Bu adresatda ijobiy emotsional kayfiyat uyg'otish va ifodalanishining kommunikativ vazifasidir. Bu tabrik nutqiy aktda eksplitsit ifodalanishi shart bo'lmagan propozitsiyalarda o'z aksini topishi mumkin. Bunda adresant tomonidan adresatning hayotidagi ijobiy baholashga arziydigan voqea-hodisalarni qamrab oladi. Kishilar o'rtasidagi turli munosabat tufayli amalga oshuvchi tabrikni nutqiy akt sifatida belgilaymiz, u maxsus tipiklashgan nutqiy vaziyatlarda xulq-atvorning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan me'yorlari bilan chambarchas bog'liq. Bunda nutqiy aktda ko'zlangan maqsad- nutq qaratilgan shaxs bilan bo'lgan munosabatni kerakli masofada saqlab qolish uchun stereotip harakatlarda -adresatni tabriklash bilan o'zining shaxsiy emotsional his-tuyg'ularini ko'rsatish va bu bilan adresatda ham ijobiy emotsional xayrixohlik hissinining yuzaga kelishini ta'minlashdan iborat. Bu nutqiy aktlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun ularning har biriga xos xususiyatlarni o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xullas, yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, insonlar o'rtasidagi turli munosabatlarda tabrik u yoki bu ko'rinishda yuzaga chiqadi. Tabrik nutqiy aktini amalga oshirishda nutq qaratilgan shaxsiga u erishgan yutuqlar tufayli e'tibor qaratish, muloqot jarayonida o'zining emotsional holatini, ijobiy munosabatini, suhbatdoshning quvonchiga sherik ekanligini ifodalash ko'zda tutiladi. Bu esa tabrik nutqiy aktining asosiy vazifasi ta'sirchanlikni ta'minlash ekanligidan dalolat beradi.

АДАБИЙОТЛАР

1. Nurmonov A. Nutqiy faoliyat va so'zlovchi shaxs // Rahmatulla Qo'ng'urovning ilmiy merosi va o'zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand, 2008. –B.154-156.
2. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. dok. diss... -Toshkent, 2008.-B.244.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik, 1-tom, M.: 1981. – 632 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik, 2-tom, M.: 1981. -715 b.

-
5. Yo'ldoshev B. O'zbek tilida matn komponentlarining semantik va pragmatik munosabatlari haqida // Xorijiy til ta'limining kognitiv-pragmatik tamoyillari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2007. –B.11-12.
 6. Mirzayev I.K. Til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash lozimligi haqida // SamDU ilmiy axborotnomasi. - Samarqand, 2003. № 2. - B 3-5.



Maxfuza XIDIROVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi
E-mail.m.xidirova@dtpi.uz

TerDU professori., f.f.d P.Bakirov taqrizi asosida

INGLIZ TILIDAGI YOVVOYI SUDRALIB YURUVCHI HAYVONLAR NOMLARINING LINGVISTIK VA STATISTIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilidagi 379 ta yovvoyi sudralib yuruvchi hayvon nomlaridan iborat korpusni lingvistik va statistik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu nomlar to'plamining lingvistik xususiyatlarini, jumladan, strukturaviy tuzilishini, tarkibidagi leksik birliklarning qo'llanish chastotasini, nomlash motivatsiyasini va bosh harflar bo'yicha taqsimlanishini aniqlashdan iborat. Nomlar ularning umumiy kategoriyasiga asoslangan tematik guruhlariga ajratildi. Tahlil natijasida ingliz tilida sudralib yuruvchilarni nomlashda qo'llaniladigan lingvistik strategiyalar, eng mahsuldor leksik modellar va so'zlar aniqlandi. Ma'lumotlar jadvallar va grafikalar yordamida ko'rsatilgan. Tadqiqot ingliz tilidagi zoologik leksikaning, xususan, onomastikaning ushbu qatlamini lingvistik nuqtai nazardan chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Sudralib yuruvchilar, lingvistik tahlil, onomastika, nomlash strategiyasi, leksik struktura, ingliz zoologik korpusi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ НАЗВАНИЙ ДИКИХ ПРЕСМЫКАЮЩИХСЯ ЖИВОТНЫХ

Аннотация

Данная статья посвящена лингвистическому и статистическому анализу корпуса, состоящего из 379 английских названий диких пресмыкающихся. Основной целью исследования является выявление лингвистических характеристик данного набора наименований, включая их структурное устройство, частотность использования лексических единиц, мотивацию номинации и распределение по начальным буквам. Названия были классифицированы по тематическим группам на основе их общей категории. В результате анализа были определены лингвистические стратегии, наиболее продуктивные лексические модели и слова, применяемые в английских наименованиях пресмыкающихся. Данные представлены с помощью таблиц и графиков. Исследование вносит вклад в более глубокое понимание зоологической лексики английского языка, в частности ономастики.

Ключевые слова: Пресмыкающиеся, лингвистический анализ, ономастика, стратегия номинации, лексическая структура, зоологический корпус английского языка.

LINGUISTIC AND STATISTICAL ANALYSIS OF NAMES OF WILD REPTILE ANIMALS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

This article is dedicated to the linguistic and statistical analysis of a corpus consisting of 379 English names of wild reptiles. The study's main objective is to identify the linguistic features of this set of names, including structural patterns, frequency of lexical units, naming motivation, and distribution by initial letters. The names were grouped into thematic categories based on their general classification. The analysis revealed the linguistic strategies, the most productive lexical models, and common words used in reptile naming in English. The data are presented through tables and graphs. This research contributes to a deeper understanding of the zoological lexicon in English, particularly within the field of onomastics.

Key words: Reptiles, linguistic analysis, onomastics, naming strategy, lexical structure, English zoological corpus.

Kirish. Har bir nom o'zida ma'lum bir madaniy, kognitiv va lingvistik qadriyatlarini mujassam etadi. Yovvoyi sudralib yuruvchilar nomlari ham bundan mustasno emas. Hayvonot olamiga oid nomlar, zoonimlar, til leksik tizimining ajralmas bo'lagi bo'lib, nafaqat tilshunoslik, balki etnolingvistika, madaniyatshunoslik, biologiya hamda ekologiya fanlari uchun ham dolzarb tadqiqot mavzusidir. Zoonimlar xalqning dunyoqarashi, tabiatga bo'lgan munosabati, tarixiy-madaniy aloqalari va nom berishdagi an'anaviy yondashuvlarini o'zida aks ettiradi. Ularning ingliz tilidagi umumiste'moldagi nomlari ko'pincha ilmiy nomenklaturadan farqli ravishda, jonli tilning tabiiy rivojlanishi natijasida shakllangan bo'lib, o'ziga xos lingvistik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ushbu lingvistik tadqiqot diqqat markazida yovvoyi sudralib yuruvchilar nomlarining o'zi – ularning tili, strukturasi, semantikasi va statistik xususiyatlari turadi. Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi 379 ta yovvoyi sudralib yuruvchi hayvonlar nomlaridan iborat korpusni lingvistik va statistik metodlar yordamida tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Hayvon nomlarini lingvistik jihatdan o'rganish onomastikaning bir tarmog'i bo'lgan zoonimika doirasida amalga oshiriladi. Garchi Karl Linneyning "Systema Naturae" asari biologik nomenklaturaga asos solgan bo'lsa-da, u yaratgan binomial tizimning o'zi ham lotin tiliga

asoslangan lingvistik qurilma hisoblanadi[1]. Bu tizim ilmiy nomlarning universalligini ta'minlagan bo'lsa, xalqona nomlar tilning jonli jarayonlari, metafora, metonimiya, tavsiflash kabi lingvistik hodisalar natijasida vujudga keladi va rivojlanadi. Anna Wierzbicka o'zining semantik tadqiqotlarida turli madaniyatlarda hayvon nomlarining konseptualizatsiyasi va ularning tildagi ifodasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Uning ishlari shuni ko'rsatadiki, xalqona nomlar ko'pincha ilmiy tasnifdan ko'ra insonning hayvon bilan bo'lgan munosabati, uning tashqi belgilari yoki xulq-atvoriga oid stereotipik tasavvurlarini aks ettiradi[13]. Korpus lingvistikasi metodlari esa ma'lum bir leksik qatlamning, jumladan, zoonimlarning statistik xususiyatlarini, masalan, so'zlarning chastotasi, birikuvchanligi va strukturaviy modellarini o'rganishga imkon beradi[11]. Bu yondashuv katta hajmdagi nomlar to'plamini obyektiv tahlil qilish va lingvistik qonuniyatlarni aniqlash uchun samaralidir. Aynan ingliz tilidagi sudralib yuruvchilar nomlarining keng ko'lami lingvistik-statistik tahlili kam o'rganilgan bo'lsa-da, onomastika, leksikologiya va etimologiyaga oid umumiy tadqiqotlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uchun asos sifatida 379 ta ingliz tilidagi yovvoyi sudralib yuruvchi nomlaridan iborat ro'yxat olindi. Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Avvalo, hayvon nomlari ular ifodalayotgan umumiy turga qarab

tematik guruhlar ajratildi. Keyinchalik har bir nomning tuzilishi o'rganilib, so'zlar soni hisoblandi. Bu orqali bir so'zli, ikki so'zli va undan ko'p so'zli nomlar soni va ulushi aniqlanib, nomlarning o'rtacha uzunligi hisoblab chiqildi. Bu jarayon ingliz tilidagi zoonimlarni yaratishda qanday sintaktik modellar qo'llanilishini aniqlashga yordam berdi. Shundan so'ng, nomlar tarkibidagi asosiy semantik yukga ega bo'lgan so'zlar, ya'ni asosiy nomlovchi, aniqlovchi yoki sifatlovchi birliklar ajratib olinib, ularning umumiy korpusdagi uchrash chastotasi hisoblandi. Chastotasi eng yuqori bo'lgan leksik birliklar ro'yxati tuzilib, ularning semantik funksiyalari tahlil qilindi. Nomlarning motivatsion xususiyatlari ham o'rganildi. Xususan, geografik joy nomlari orqali hosil bo'lgan zoonimlar hamda hayvonning tashqi ko'rinishi, harakatlari yoki yashash muhiti bilan bog'liq tavsiflovchi birliklar ajratib ko'rsatildi va bu elementlarning nomlashdagi roli tahlil qilindi. Bundan tashqari, har bir nomning bosh harfi aniqlanib, alifbo tartibida ularning taqsimoti o'rganildi. Har bir harfga to'g'ri keladigan nomlar soni hisoblab chiqildi va ularning qo'llanish chastotasi tahlil qilindi. Tahlil natijalari ko'rgazmali bo'lishi jadvallar va grafik vositalardan foydalanildi.

Jadval 2: Sudralib yuruvchi nomlarining so'zlar soni bo'yicha taqsimlanishi

So'zlar Soni	Nomlar Soni	Foiz (%)	Misollar
1 so'zli	10	2.64%	Perentie, Gharial, Tuatara, Cantil, Habu
2 so'zli	178	46.97%	Green Iguana, Nile Monitor, Ball Python
3 so'zli	156	41.16%	Green Sea Turtle, Giant Day Gecko
4 so'zli	31	8.18%	Mwanza Flat-headed Rock Agama
5 so'zli	4	1.05%	Argentine Black and White Tegu
Jami	379	100%	

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida sudralib yuruvchilarni nomlashda ikki va uch so'zli sintaktik modellar (jami 88% dan ortiq) eng mahsuldor hisoblanadi. Bu "sifatlovchi + asosiy tur nomi" (Green Iguana) yoki "sifatlovchi + sifatlovchi/aniqlovchi + asosiy tur nomi" (Green Sea Turtle) kabi analitik nomlash usulining ustunligini ko'rsatadi. Bir so'zli nomlar asosan o'ziga xos turlar yoki o'zlashma so'zlar bilan

Tahlil va natijalar. Jami 379 ta sudralib yuruvchi nomi tahlil qilinganda, ularning tematik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

Eng katta guruhni Ilonlar (Snakes) tashkil etadi. Bu guruhga 160 ta nom to'g'ri kelib, umumiy nomlarning 42.22 foizini qamrab oladi.

Ikkinchi o'rinda Kaltakesaklar (Lizards) guruhi turadi. Ular uchun 130 ta nom aniqlangan bo'lib, bu umumiy sonning 34.30 foiziga tengdir.

Uchinchi yirik guruh Toshbaqalar (Turtles and Tortoises) bo'lib, ularga 65 ta nom (umumiy nomlarning 17.15 foizi) tegishli.

Timsohsimonlar (Crocodilians) guruhi uchun 23 ta nom qayd etilgan, bu esa jami nomlarning 6.07 foizini tashkil qiladi.

Eng kichik guruh Tuatara bo'lib, unga faqat 1 ta nom (0.26%) to'g'ri keldi.

2. Nomlarning strukturaviy tahlili. Nomlarning lingvistik strukturasi ularning tarkibidagi so'zlar soni orqali ifodalanadi.

bog'liq. Nomlarning o'rtacha uzunligi so'zlar soni bo'yicha taxminan 2.63 so'zni tashkil etadi, bu ingliz tilining analitik tabiatiga mos keladi.

3. Eng ko'p uchraydigan so'zlar. Nomlar tarkibidagi leksik birliklarning chastotasi qaysi tushunchalar nomlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Jadval 3: Sudralib yuruvchi nomlarida eng ko'p uchraydigan so'zlar

So'z	Chastota	Lingvistik Funksiya/Semantika	Misollar
Snake	80+	Asos so'z	Sea Snake, Rat Snake, King Snake
Turtle	50+	Asos so'z	Sea Turtle, Snapping Turtle, Box Turtle
Lizard	40+	Asos so'z	Wall Lizard, Monitor Lizard
Common	20+	Sifatlovchi	Common Snapping Turtle, Common Agama, Common Krait
Black	20+	Sifatlovchi	Black Mamba, Black Rat Snake
Green	20+	Sifatlovchi	Green Sea Turtle, Green Iguana
Eastern	15+	Aniqlovchi	Eastern Box Turtle, Eastern Diamondback Rattlesnake
Red	15+	Sifatlovchi	Red-eared Slider, Red Tegu
Western	10+	Aniqlovchi	Western Diamondback Rattlesnake,
Sea	10+	Aniqlovchi	Sea Turtle, Sea Snake
Spotted	10+	Sifatlovchi	Spotted Turtle, Spotted Python
Horned	10+	Sifatlovchi	Horned Lizard, Saharan Horned Viper
Tree	10+	Aniqlovchi	Emerald Tree Boa, Green Tree Python,
King	8+	Sifatlovchi	King Cobra, King Snake,
Monitor	8+	Asos so'z	Nile Monitor, Savannah Monitor

Ushbu chastotali tahlil ingliz tilida sudralib yuruvchilarni nomlashda leksik stereotiplar mavjudligini ko'rsatadi. Asosiy tematik guruh nomlari eng yuqori chastotaga ega. Shuningdek, ranglar, geografik yo'nalishlar va umumiy tavsiflovchi so'zlar faol nomlash modellarining tarkibiy qismlari sifatida ajralib turadi.

4. Nomlash motivatsiyasi. Ko'plab sudralib yuruvchilar nomlari ularning tarqalgan hududlari yoki kelib chiqish joylariga asoslanadi. Bunday nomlash geografik yoki toponimik motivatsiyaga ega bo'lib, misol tariqasida African, Asian, American, European, Australian, Indian, Galapagos, Chinese, Mexican, Cuban, Malayan, Philippine, Nile, Orinoco, Mississippi kabi atamalarni keltirish mumkin. Bu strategiya turning geografik identifikatsiyasini aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Eng keng tarqalgan nomlash strategiyasi esa tavsifiy, ya'ni deskriptiv motivatsiyadir. Bu usulda hayvonning tashqi ko'rinishi, morfologiyasi, harakati, yashash muhiti yoki metaforik xususiyatlari asosida nom beriladi. Vizual belgilar asosida nomlashda rang yoki naqsh bilan bog'liq so'zlar qo'llaniladi: Green, Black, Red, Black, Red, Brown, Painted, Spotted, Banded, Striped, Checkered, Spectacled, Radiated, Ocellated kabi. Morfologik belgilar asosidagi nomlar hayvonning tuzilishiga oid


xususiyatlarini bildiradi: Horned, Spiny, Softshell, Smooth, Flat-headed, Big-headed, Leaf-tailed, Fat-tailed, Frilled, Bearded, Keeled, Knobbed, Collared, Girdled, Slender. Hajmga asoslangan nomlar odatda turning kichik yoki katta o'lchamiga ishora qiladi: Giant, Dwarf, Pygmy. Xulq-atvor yoki harakatni ifodalovchi nomlar turning faoliyati yoki harakat tarzini bildiradi: Snapping, Slider, Flying, Racer, Burrowing, Spitting, Sidewinder, Rattlesnake. Turning yashash muhiti va ekologik xususiyatlariga asoslangan nomlar esa quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi: Sea, River, Pond, Water, Desert, Sand, Rock, Forest, Tree, Garden, Mountain, Marsh. Bundan tashqari, ba'zi nomlarda metaforik nomlash strategiyasi qo'llanilgan bo'lib, ular turning boshqa hayvonlarga o'xshash xususiyatini ifodalaydi: Leopard Tortoise, Tiger Whiptail, Alligator Lizard, Caiman Lizard, Spider-Man Agama kabi misollar bunga misoldir. Bu motivatsion tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi xalqona sudralib yuruvchi nomlari ko'pincha pragmatik xarakterga ega bo'lib, turning eng ko'zga ko'ringan yoki muhim deb hisoblangan belgisini lingvistik jihatdan kodlashga qaratilgan.

5. Bosh harflar tahlili. Nomlarning bosh harflar bo'yicha taqsimlanishi korpusdagi leksikaning fonografik xususiyatlarini ko'rsatadi.

Jadval 4: Sudralib yuruvchi nomlarining bosh harflar bo'yicha taqsimlanishi

Bosh harf	Nomlar soni	Foiz (%)	Bosh harf	Nomlar soni	Foiz (%)
A	20	5.28%	N	12	3.17%
B	39	10.29%	O	9	2.37%
C	42	11.08%	P	23	6.07%
D	12	3.17%	Q	0	0.00%
E	14	3.69%	R	24	6.33%
F	12	3.17%	S	57	15.04%
G	23	6.07%	T	24	6.33%
H	10	2.64%	U	3	0.79%
I	6	1.58%	V	4	1.05%
J	3	0.79%	W	15	3.96%
K	7	1.85%	X	0	0.00%
L	13	3.43%	Y	6	1.58%
M	20	5.28%	Z	1	0.26%
Jami	379	100%			

Grafik 1: Sudralib yuruvchi nomlarining bosh harflar bo'yicha chastotasi



Tahlil natijalariga ko'ra, sudralib yuruvchilar nomlarining bosh harflar bo'yicha taqsimlanishi notekis bo'lib, ayrim harflar yuqori, ayrimlari esa juda past yoki umuman ishlatilmagan. Eng ko'p uchraydigan bosh harflar "S" harfi eng ko'p qo'llanilgan bo'lib, 57 ta nomni tashkil qiladi (15.04%). Bu natija "Snake", "Skink", "Sidewinder", "Slider" kabi keng tarqalgan so'zlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yuqori foizda qatnashgan boshqa harflar: "C" (11.08%), "B" (10.29%), "T" va "R" (har biri 6.33%), "P" (6.07%), "G" (6.07%) harflari ko'p ishlatilgan. Bu holat sudralib yuruvchi hayvonlar nomlarida "Caiman", "Crocodile", "Boa", "Python", "Turtle", "Rattlesnake" kabi atamalarining keng tarqalganligidan dalolat beradi. O'rta chastotadagi harflar: "A", "M", "L", "E", "W" kabi harflar o'rtacha darajada uchraydi (3–5.5%). Kam uchraydigan harflar "J", "U", "V", "Y", "I", "K", "Z" harflari kamdan-kam ishlatilgan bo'lib, har biri 1% dan past ulushga ega. Bu ingliz tilidagi sudralib yuruvchilar nomlarining morfologik va fonetik xususiyatlariga bog'liq. Umuman ishlatilmagan harflar "Q" va "X" harflariga boshlanuvchi nomlar korpusda umuman uchramaydi. Bu harflar ingliz tilida juda kam so'zlarning boshida ishlatilishi bilan izohlanadi.

Xulosa. Ushbu lingvistik tadqiqot ingliz tilidagi 379 ta yovvoyi sudralib yuruvchi nomining statistik va strukturaviy-semantik xususiyatlarini tahlil qildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki:

Ingliz tilida sudralib yuruvchilarni nomlashda asosan ikki va uch so'zli analitik tuzilmalar qo'llaniladi.

Nomlashda tavsifiy (rang, naqsh, morfologiya, muhit) va geografik motivatsiya yetakchilik qiladi.

Muayyan leksik birliklar (Snake, Turtle, Lizard, Common, Black, Green va boshqalar) nom yasashda yuqori chastota va mahsuldorlikka ega.

Nomlarning bosh harflar bo'yicha taqsimlanishi ushbu faol leksika bilan bog'liq.

Bu tahlil ingliz tilida sudralib yuruvchilarni nomlash an'analarning asosiy lingvistik mexanizmlarini ochib berdi va lingvistik metodlarning zoonimik leksikani o'rganishdagi samaradorligini ko'rsatdi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu nomlarning etimologiyasini chuqurroq o'rganish, ilmiy va xalqona nomlar o'rtasidagi lingvistik munosabatlarni tahlil qilish yoki boshqa tillardagi zoonimlar bilan qiyosiy lingvistik tadqiqotlar olib borish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. 2-е изд. – Москва: Высшая школа, 1969.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1960.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973.
4. Толстая С.М. (Ред.). Славянские древности: Этнолингвистический словарь: в 5 т. – Москва: Международные отношения, 1995-2012.
5. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков: Имя. – Ленинград: Наука, 1977.
6. Berlin B. Ethnobiological Classification: Principles of Categorization of Plants and Animals in Traditional Societies. – Princeton, NJ: Princeton University Press, 1992.
7. Coates R. Properhood // Language. – 2006. – Vol. 82, № 2. – P. 356–382.
8. Hunn E.S. Tzeltal Folk Zoology: The Classification of Discontinuities in Nature. – New York: Academic Press, 1977.
9. Köhler R., Altmann G., Piotrowski R.G. (Eds.). Quantitative Linguistics: An International Handbook. – Berlin: Walter de Gruyter, 2005.
10. Linnaeus C. Systema Naturae per Regna Tria Naturae, secundum classes, ordines, genera, species, cum characteribus, differentiis, synonymis, locis. Tomus I. Editio decima, reformata. – Holmiae: Laurentii Salvii, 1758.
11. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
12. Wierzbicka A. Semantics: Primes and Universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.



UDK:80/81.811.512.133

Munis XOLBOYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: munisbek9599@gmail.com

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori O.Shukurov taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR TAVSIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tili leksik taraqqiyotida arabcha va forscha o'zlashma so'zlarning o'rni, kelib chiqish manbalari hamda tasnifi atroflicha yoritiladi. Unda o'zbek tilining lug'at boyligiga ichki va tashqi manbalar ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, tashqi manbalar, xususan arab va fors tillaridan kirib kelgan so'zlarning tilga qanday yo'llar bilan o'zlashgani haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'zlashma so'zlar, arabcha so'zlar, forscha so'zlar, til o'zgarishi, leksik boylik.

DESCRIPTION OF LOANWORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article comprehensively covers the role, origins, and classification of Arabic and Persian loanwords in the lexical development of the Uzbek language. First of all, the influence of internal and external sources on the vocabulary of the Uzbek language is revealed. It is discussed how words borrowed from external sources, in particular from Arabic and Persian, were assimilated into the language.

Key words: Borrowed words, Arabic words, Persian words, language change, lexical richness.

ОПИСАНИЕ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье подробно освещается роль арабских и персидских заимствованных слов в лексическом развитии узбекского языка, их источники происхождения и классификация. Раскрывается влияние внутренних и внешних факторов на словарный состав узбекского языка. Также рассматриваются пути заимствования слов из внешних источников, в частности, из арабского и персидского языков.

Ключевые слова: Заимствованные слова, арабизмы, персизмы, языковые изменения, лексическое богатство.

Kirish. O'zbek tili bir necha asrlik tarixiy rivojlanish jarayonida leksik tarkibini ichki manbalar asosida kengaytirib va takomillashtirib bordi. Shu jarayonda o'z qatlam asoslariga tayangan holda yangi leksik birliklar yaratilgan bo'lsa, mavjud so'zlarning ma'nosi boyitildi, ba'zi so'zlarga esa qo'shimcha funksiyalar yuklatildi, bu esa o'zbek tilining leksik boyligi va ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qildi. O'zbek tilining leksik boyligini shakllantirishda ichki resurslar asosiy o'rin tutadi. Biroq, dunyo tillarining hech biri faqat o'zining ichki imkoniyatlariga tayanib rivojlanmaganidek, o'zbek tili ham faqat o'z so'z boyligi va leksik imkoniyatlari bilan cheklanib qololmaydi. O'zbek tilining so'z boyligini kengaytirish va takomillashtirishda tashqi ta'sirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, hech qanday til mutlaqo tashqi omillarsiz rivojlana olmaydi. Turli tillarning tarixiy jarayonda o'zaro aloqada bo'lishi tabiiy hodisadir. Bunday lingvistik aloqalar o'zaro ta'sirlashuvchi tillarning, ayniqsa ularning leksik tizimlarida aniq iz qoldirishi mumkin.

Til boyligidagi tarixiy jarayonlarda ro'y beradigan o'zgarishlar ularning mohiyati va darajasiga ko'ra qat'iy belgilangan emas, balki shartli xarakterga egadir. Tilning jamiyatdagi muloqot vositasi sifatidagi xususiyatlari uning leksikasidagi o'zgarishlarning mutlaq shaklda sodir bo'lishiga imkon bermaydi.

O'zbek tili lug'aviy tarkibida hech qachon undagi mavjud so'zlarning barchasidan butunlay voz kechish yoki ularning o'rniga yangilarini yaratish kabi keskin o'zgarish sodir bo'lmagan. Bunday qonuniyatlari har qanday tilning lug'aviy boyligida barcha davrlarda ma'lum bir ildiz qatlamining saqlanib qolishini tasdiqlaydi. Lug'at tarkibining negizini tashkil etuvchi so'zlar — o'zbek tilida asrlar mobaynida o'z shakl va mazmunini yo'qotmagan, barhayot so'zlardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zlashmalar masalasiga ilk munosabatlar turkiy tilshunos, lug'atshunos olim M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida mavjud. U o'zga tilidan qabul qilingan so'zlarga ikki xil munosabatda

bo'ladi. Turmushga doir turli xil narsa va predmetlar borki, ular hayotga singib ketgan. Tilda uni nomlovchi so'z bo'lmasa, shunday so'zni qo'shni tildan olish mumkin. Biroq tilda mavjud so'zlar o'rnida boshqa til so'zini qo'llashni zararli deb hisoblaydi[3]. Jumladan, "Devonu lug'otit-turk"da quyidagi satrlarni uchratamiz: "O'g'uzlar forsilar bilan aralashgach, ba'zi so'zlarni unutdilar va ularning o'rniga forsicha so'zlarni qo'llay boshladilar"[1]. Koshg'ariy turkcha va so'g'dcha gaplashuvchilar haqida to'xtalar ekan, ularning tilida "buzuqlik bor" deya ta'kidlaydi[1].

Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'z ona tilida she'r yozishga qodir bo'lmagan "zarif" shoirlar tanqid qilinadi. Shundan so'ng, turkiy va forsiy tillarning qiyosiy tahlili boshlanadi. Unda fors-tojik tiliga turkiy tildan kirib kelgan so'zlar, so'zlarning mavzuviy guruhlariga mansubligi, tarkibiy boyligi, sinonimlik va omonimlik, shuningdek, turkiy tilning qofiya yaratishdagi imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. Bu qiyoslashdan ko'zlangan asosiy maqsad — so'z ma'nolarining boyligidan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatishdir.

O'zbek tiliga arab, fors, tillaridan anchagina so'zlar o'zlashtirilgan. Forscha so'zlar tarkibidan o'zbek tiliga o'zlashgan bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin.

Ilm-fan va hunarmandchilik bilan bog'liq so'zlar: hunar (هنر), san'at (صنعت), me'mor (معمار), rang (رنگ), shisha (شیشه).

Tabiat va kundalik hayot bilan bog'liq so'zlar: gul (گل), bo'ston (بوستان) — (bog'), nasl (نسل), bozor (بازار), shakar (شکر).

O'zlashtirish hodisasi, asosan, so'z o'zlashtirishdan iboratdir. Chet tilidan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan boshqa elementlar, asosan, bu tilga o'zlashma so'zlar tarkibida kirgan. So'z o'zlashtirish o'zbek tiliga biror bir chet tilidan so'z olishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. So'z qabul qilingan tilga kirgan, ya'ni singgan bo'lishi uchun bir qator talablarga javob berishi kerak.

1. O'zlashgan leksik birlik uni qabul qilgan tilning qonun-qoidalarga moslashadi..

2. Bunday so'z qabul qiluvchi tilning leksik-semantik tizimiga bog'lanadi va unga mos ravishda singib ketadi.

3. O'zlashgan so'z tabiiylik va aniqlik kasb etadi, shuning uchun undan shubhalanish yoki uni boshqa so'zlar bilan aralashtirib yuborish ehtimoli yo'qoladi.

4. Ushbu so'z til egasi bo'lgan xalq tomonidan ham xuddi ona so'zdek qabul qilinadi, natijada uning begona unsurligini ilg'ash mushkul bo'ladi.

5. So'z o'zlashgan bo'lsa, bu so'zning tildan tezda chiqib ketishi ehtimoli bo'lmaydi. Bunday so'zning keraksizligi haqida, uni tildan chiqarish haqida o'rinsiz munozaralar bo'lmaydi va boshqalar [4].

O'zlashmalar o'zbek tiliga turli yo'llar bilan kirib keladi. Qator ilmiy, texnik, harbiy va maishiy terminlar bu davrda ommalashadi hamda tilning lug'at tarkibidan o'rin egallaydi. Arabcha o'zlashmalarining ko'p qismi o'zbek tiliga yozma manbalardan, qisman esa og'zaki nutqdan o'zlashtirilgan.

Mahalliy xalqlar tillariga arab tilining ta'siri to'g'ridan-to'g'ri VIII asr boshlarida arablar tomonidan O'rta Osiyoning zabt etilishi, Arab xalifaligi hukmronligining boshlanishi va bu mintaqalarning islom dinini qabul qilishi bilan bog'liq. Arab xalifaligining O'rta Osiyoga bostirib kirishi mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazdi, ularning asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosi yo'q qilindi. O'rta Osiyo xalqlari islom dini bilan bir qatorda arab yozuvini ham o'zlashtirdilar. Arab tili esa jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tuta boshladi. Bu til faqatgina islom dini targ'iboti, unga oid falsafiy qarashlar, tushunchalar va diniy amallarni ado etish bilan cheklanmay, balki davlat boshqaruvi, ilm-fan va madaniyat sohalarida ham asosiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilgan. Arab tilining ilm-fan va adabiyotda keng qo'llanilishiga, bir tomondan, uning islom dini bilan birga yoyilishi, ikkinchi tomondan esa, ulkan hududda hukmron tilga aylanishi sabab bo'lgan.

O'zbek leksikografiyasi ma'lumotlariga ko'ra, internatsional so'zlarning asosiy qismini fors-tojik manbalaridan olingan so'zlar va arabizmlar tashkil etadi. Shuningdek, ular orasida yevropacha va ruscha o'zlashmalar nisbatan kamroq uchraydi, sharq tillaridan o'zlashgan so'zlar esa yanada o'z miqdorda mavjud. Mashhur tilshunos olim Fotih Abdullayevning tadqiqotlariga ko'ra, o'zbek tiliga 55-60 foiz arabcha so'zlar o'zlashganligi aniqlangan.

Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga singib ketishida muhim rol o'ynagan omillar quyidagilardir:

1. Arab tili o'sha davrda davlat tili, rasmiy adabiy til sifatida faoliyat yuritgan. Davlatning barcha rasmiy, huquqiy hujjatlari arab tilida yuritilgan va rasmiylashtirilgan. Davlat boshqaruvi, sud tizimi, savdo-sotiq va xo'jalikka oid ishlar aynan shu tilda olib borilgan. Arab tili hukmron tuzumning boshqaruv tili bo'lgan. Ushbu holatlar arab tilining mahalliy aholi vakillarining og'zaki va yozma nutqiga kuchli ta'sir ko'rsatishiga zamin yaratgan.

2. Arab tili rasmiy tarzda badiiy adabiyotning asosiy ifoda vositasi sifatida ham amal qilgan. Mahalliy ijodkorlar o'z davrida adabiy asarlarini arab tilida yaratganlar. Arab tilidagi adabiyot bilan tanishish va undan foydalanish turkiy tillarga arab tilining chuqurroq ta'sir etishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

3. Mazkur davrda arab tili O'rta Osiyo va Sharq xalqlari uchun ilm-fan hamda madaniyat tili sifatida e'tirof etilgan. Arablar hukmronligi davrida barcha ilmiy asarlar, fan va madaniyatga oid risola hamda to'plamlar arab tilida yozila boshlagan. Mahalliy xalqdan chiqqan olim va ulamolar ham o'z asarlarini fanning rasmiy tili sifatida keng tarqalgan arab tilida yozishgan. Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi mahalliy xalq olimlari o'z ilmiy va badiiy asarlarini arab tilida yozishdi. Bu hol arab tilining fan va madaniyat tili sifatida mahalliy xalq tiliga ta'sir etishiga olib keldi.

4. Arab tili o'sha davrning ta'lim tili ham edi. Maktab va madrasalarda ta'lim ishlari arab tilida olib borildi. Yozuv ishlari va savod chiqarish ham arab yozuvi va tilida olib borildi. Bu vaziyat mahalliy xalqning arab tilini egallashiga, uni bilishiga xizmat qildi. Xorijiy tilni bilish esa qo'sh tillilikning muhim omilidir.

5. Arab tili hukmron xalqlarning markaziy nutq vositasi, rasmiy va majburiy til bo'lgan. Yuridik me'yorlar, diniy hamda ma'naviy e'tiqodlar qanday majburan singdirilgan bo'lsa, arab tili ham mahalliy aholi orasida shunday tarqatilgan. Bu, ayniqsa, hukmron tabaqaning arablashtirilishi va arab tilida so'zlashga majburlanishida namoyon bo'ldi. Natijada, hukmron qatlam orasida arab tilida muloqot qilish va nutq yuritish odat tusini oldi. Ushbu omillar esa, ularning tiliga arab tilining ta'sirini ko'chaytirishga sabab bo'ldi.

6. Arab tilining turkiy tillarga ta'siri ma'lum darajada uning lingvistik xususiyatlari bilan bog'liq edi. O'sha davrda O'rta Osiyoda keng tarqalgan klassik arab tili so'z boyligi, ilmiy atamaları hamda poetik uslub leksikasining xilma-xilligi bilan ajralib turardi. Bu tilda qadimgi yunon madaniyati durdonalarini mutolaa qilish mumkin edi. Xullas, arab tili adabiy til sifatida juda mukammal va sayqal topgan til hisoblangan. Aynan shu fazilatlar arab tilida ilmiy asarlar yaratishni ancha yengillashtirgan. Masalaning ana shu jihati ham arab tiliga e'tiborni oshirgan, uni o'rganish va bu tilda ijod qilishga da'vatni kuchaytirgan bo'lishi mumkin.

7. Turkiy tillarga arabcha so'zlarning kirib kelishiga ta'sir qilgan omillardan biri arab va turkiy tilli xalqlarning bevosita muloqotga kirishganidir. Bosqinchilarning katta sonli askarlari, shubhasiz, mahalliy turkiy xalqlar bilan to'qnashgan va ular bilan turli shakllarda aloqa o'rnatgan. Bundan tashqari, arablar o'z piyoda qo'shinlari va maxsus guruhlarini bo'ysundirilgan hamda islomni qabul qilgan xalqlardan ham shakllantirgan. Ana shunday omillar natijasida arab va turkiy tillar harbiy lagerlar, qarorgohlar hamda boshqa turar joylarda o'zaro aloqa qilgan. Harbiy baza va qarorgohlar arab tilining mahalliy xalqlar orasida tarqalishida muhim omillardan biri bo'lgan.

Forscha o'zlashmalar esa, asosan, og'zaki nutq orqali kirib kelgan bo'lib, xalq tili va adabiyot orqali keng tarqalgan. Bu jarayonda turkiy-forsiy madaniy aloqalar, tarixiy voqealar va savdo-sotiq katta rol o'ynagan. Shu sababli, arabcha so'zlar ko'proq diniy, ilmiy va ma'muriy terminlar sifatida o'zlashgan bo'lsa, forscha so'zlar kundalik hayot, san'at, hunarmandchilik va tabiat bilan bog'liq qatlamda uchraydi.

Fors tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zlashish jarayonini uch bosqichli davr asosida shakllanganini ko'rishimiz mumkin:

1) qadimgi davr;

2) o'zbek tilining fors adabiy tili bilan uzviy aloqasi bo'lgan davr

(IX-X, XI-XV asrlar);

3) o'zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi davri (qadimdan to hozirga qadar); [5]

Tahsil va natijalar. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (V jildli, 2020)da uch yarim mingga yaqin (3473 ta) arabcha so'z izohlangan. Ularning salmoqli qismi ta'lim-tarbiya va madaniy-ma'rifiy mazmundagi birliklardir. Arabcha va forscha so'zlarning o'zbek tiliga juda tabiiy tarzda singib ketgani, o'zbek xalqi esa ularni ona tilidagi so'zlar qatorida qabul qilgani – inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Chunki so'zlovchilar kundalik hayotda qo'llayotgan ayrim so'zlarning aslida arabcha yoki forscha ekanini sezmaydilar, ularni o'z tilining tarkibiy qismi sifatida qabul qiladilar.

Hozirgi leksika sistemadagi arabcha-forscha o'zlashmalar so'z o'zlashtirishda tarixiy-an'anaviy tamoyilga asoslangan [2].

Shu o'rinda arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tilida tutgan o'rni haqida ham aytib o'tishimiz lozim. O'zbek tili leksikasi bugungi kungacha ham mazkur tilning yozma manbalarida ilgari mavjud bo'lgan eski, arabcha va forscha so'zlarni yangicha mazmun va shaklda qayta qo'llash orqali boyib borayotganini ko'rish mumkin. Bu jarayonda yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, tarjimonlar hamda boshqa ijodkorlarning hissi beqiyosdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til o'ziga xos ichki qonuniyatlarga ega bo'lib, u lingvistik va nolingvistik omillar bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, yangi so'zlarning paydo bo'lishi va so'z o'zlashishi bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar bo'lsa-da, ular bir-birini inkor etmaydi va yonma-yon kechuvchi hodisalardir. Bu jarayonlar til taraqqiyotining turli bosqichlarida faollashib, o'zaro almashib boradi. Bizningcha, chet tillaridan yangi so'zlarning kirib kelishini butunlay to'xtatish til va jamiyat

rivojlanish qonuniyatlariga zid bo'lar edi. Ushbu hodisalarni tilning yashashga bo'lgan intilishi sifatida ham baholash mumkin. Shu bilan birga, chet tilidan ortiqcha so'zlarning kirib kelishi bir qator xavfli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu jarayon hozirgi paytda sezilarli darajada jadallashgani bilan ajralib

turadi. Shuning uchun tilshunoslardan jamiyat hayotiga yaqinroq yondashishni talab etadi va tilga ta'sir qiluvchi o'zgarishlarni tez hamda oqilona belgilab beruvchi yo'nalish – sotsiolingvistikaga katta e'tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. I jild – Toshkent, 1960. – B.406.
2. Mirtojiyev M. O'zlashgan so'z – payvand kurtagi. –Toshkent: O'zbekiston: 1988. –B. 3.
3. Tursunov U., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B.86.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1981. – B.84.
5. Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (mustaqillik davri)- Filol. fan. dok. diss. –Qarshi. –2022. –B. 31



Zebo HAMZAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: hamzayevazebo1016@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti, Xorijiy tillar kafedasi katta o'qituvchisi f.f.f.d, PhD Sh. Qurbonova taqrizi asosida

“TESS D'URBERVILLAR” VA “BONU” ROMANLARIDA SOF VA JAMIYATDA USTUVOR AXLOQIY TAMOYILLAR ZIDDIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz adibi Tomas Hardining “Tess d'Urbervillar” romani va o'zbek yozuvchisi Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari tahlil etilib, ushbu asarlarda aks etgan sof axloqiy qadriyatlar va jamiyatda ustuvor bo'lgan axloqiy me'yorlar o'rtasidagi ziddiyat ochib beriladi. Ikkala asarda ham bosh qahramonlar – Tess va Bonu – o'zining sof qalbi, pok niyatlari, halol hayotga intilishi bilan jamiyatdagi nosog'lom, ikkiyuzlama axloqiy qarashlar va adolatsiz ijtimoiy tizim bilan to'qnash keladi. Maqolada qahramonlarning ichki dunyosi, ularning ruhiy iztiroblari, axloqiy tanlovlar va hayotiy kurashlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mualliflarning davr va makon jihatidan farqli bo'lishiga qaramay, ularning asarlarida insoniylik, ayol sha'ni, jamiyatdagi ijtimoiy bosim va axloqiy qadriyatlar mavzularining o'xshash talqinda berilgani ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Tomas Hardy, Iqbol Mirzo, Tess, Bonu, axloqiy ziddiyat, sof qalb, jamiyat tanqidi, adabiyotda ayol obrazi, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolatsizlik, ayollar taqdiri, zamonaviy tahlil.

THE CONFLICT OF PURE AND SOCIETAL MORAL PRINCIPLES IN THE NOVELS 'TESS OF THE D'URBERVILLES' AND 'BONU'

Annotation

This article analyzes Thomas Hardy's novel Tess d'Urbervilles and Iqbol Mirzo's Bonu, focusing on the conflict between pure moral values and the dominant moral principles in society as portrayed in these works. In both novels, the main characters—Tess and Bonu—struggle to reconcile their pure hearts, good intentions, and desire for an honest life with the unhealthy, hypocritical moral views and unjust social systems of the society. The article delves into the internal worlds of the protagonists, their emotional torments, moral choices, and life struggles. Furthermore, despite the different historical and cultural contexts of the authors, their works present similar themes of human dignity, female honor, social pressure, and moral values.

Key words: Thomas Hardy, Iqbol Mirzo, Tess, Bonu, moral conflict, pure heart, social criticism, female image in literature, moral values, social injustice, fate of women, contemporary analysis.

КОНФЛИКТ ЧИСТЫХ И ОБЩЕСТВЕННЫХ МОРАЛЬНЫХ ПРИНЦИПОВ В РОМАНАХ 'ТЭСС ИЗ РОДА Д'ЭРБЕРВИЛЛЕЙ' И 'БОНУ'

Аннотация

В данной статье анализируются романы Томаса Харди «Тэсс из рода д'Эрбервиллей» и Икбола Мирзо «Бону», рассматривающие конфликт между чистыми моральными ценностями и преобладающими моральными нормами в обществе. В обоих романах главные герои – Тэсс и Бону – сталкиваются с противоречием между их чистыми сердцами, добрыми намерениями и стремлением к честной жизни с одной стороны, и с несправедливыми, лицемерными моральными взглядами общества с другой. В статье анализируется внутренний мир героев, их эмоциональные страдания, моральные выборы и жизненные испытания. Также, несмотря на различия в историческом и культурном контексте, в произведениях авторов раскрываются схожие темы человеческого достоинства, чести женщин, социального давления и моральных ценностей.

Ключевые слова: Томас Харди, Икбол Мирзо, Тэсс, Бону, моральный конфликт, чистое сердце, социальная критика, образ женщины в литературе, моральные ценности, социальная несправедливость, судьба женщин, современный анализ.

Kirish. Adabiyotda insonning sof va jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy tamoyillar o'rtasidagi ziddiyatlar ko'plab asarlarda markaziy mavzu bo'lib xizmat qiladi. Bu ziddiyatlar shaxsning ichki qadriyatlari va ijtimoiy kutishlar o'rtasidagi muvozanatni topishga bo'lgan urinishlarida namoyon bo'ladi. Thomas Hardy ning Tess d'Urbervilles va Iqbol Mirzo ning Bonu romanlari aynan shu axloqiy kurashni chuqur tahlil qiladi. Har ikki romanda asosiy qahramonlar – Tess va Bonu – sof axloqiy qadriyatlar bilan jamiyatning axloqiy me'yorlari o'rtasida qattiq ziddiyatga duch kelishadi. Tessning pokligi va jamiyat tomonidan unga qarshi qo'yilgan qat'iy hukmlar, Bonuning ichki axloqiy iztiroblari va uning jamiyatdagi o'rnini topishga bo'lgan urinishlari asarlarning asosiy g'oyalardan biridir. Ushbu maqolada, Tess d'Urbervilles va Bonu romanlarida sof va jamiyat axloqiy tamoyillari o'rtasidagi ziddiyatlarning qanday tasvirlanganini o'rganib chiqamiz va bu ziddiyatlarning qahramonlarning hayoti va taqdiri uchun qanday hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sof va jamiyatdagi axloqiy tamoyillar o'rtasidagi ziddiyatlar adabiyotda ko'p yillardan beri o'rganilayotgan muhim mavzulardan biridir.

Thomas Hardy ning Tess d'Urbervilles va Iqbol Mirzo ning Bonu romanlari ushbu axloqiy kurashning tasvirini taqdim etadi, ammo ularning har biri o'zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlariga asoslanadi.

Thomas Hardy ning Tess d'Urbervilles romani Viktoriya davrining qat'iy axloqiy va ijtimoiy normalariga qarshi kurashayotgan bir qahramonning tarixini tasvirlaydi. Hardy, asarida, jamiyatning o'ziga xos yuksak axloqiy me'yorlari bilan birga, uning shaxsiy axloqiy qadriyatlarini muvozanatlashga intilgan Tessni ko'rsatadi. Hardy ning asari ko'p yillar davomida feminist adabiyotshunoslik va moral falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Misol uchun, Judith Lowder Newton (1995) o'zining Feminist Approaches to the Victorian Novel asarida Tessning jamiyat tomonidan ayblanib, undan yuzaga kelgan tragediyani feminist tahlilga asoslanib ko'rib chiqqan. Hardy ning romani, shuningdek, jamiyatning qat'iy axloqiy hukmlarini shaxsiy axloqiy tanlovlar bilan solishtirishda amalga oshirilgan sinovlar sifatida qaraladi.

Ushbu tahlillar va ilmiy ishlar, Tess d'Urbervilles va Bonu romanlarida axloqiy ziddiyatlarni tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi. Romanlardagi axloqiy kurashni o'rganish,

adabiyotshunoslikda feministik, realizm va postmodernizm yondoshuvlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ilmiy tadqiqotning ko'p qirrali metodologiyasidan foydalanadi, uning asosiy yondoshuvlarini adabiyotshunoslik, madaniyotshunoslik va tarixiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotda, ayniqsa, sof va jamiyatdagi axloqiy tamoyillar o'rtasidagi ziddiyatlarning tasvirlanishi tahlil qilinadi. Maqola doirasida Tess d'Urbervilles va Bonu romanlarining qahramonlari orqali axloqiy kurashlarning adabiy yoritilishi, realist va postmodernistik nuqtai nazaridan chuqur o'rganiladi. Tadqiqotda lingvistik, stilistik va semantik analiz texnikalari qo'llanilib, qahramonlarning ichki axloqiy iztiroblari va jamiyat tomonidan qo'yilgan me'yorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganiladi. Maqola, shuningdek, urush va jamiyat axloqi o'rtasidagi aloqalarni tasvirlash orqali jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, xususan, patriarxat va gender tengsizligi, ijtimoiy normalar ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan. Postmodernizm va realizmning dialektik munosabatlari, shuningdek, tarixiy-madaniy kontekstdagi tafovutlar tahlil qilinadi.

'Tess d'Urbervillar' Romanida Sof va Jamiyat Axloqi O'rtasidagi Ziddiyat. Thomas Hardy ning Tess d'Urbervillar romani, Viktoriya davrining qat'iy axloqiy me'yorlari bilan shaxsiy, sof axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatni mukammal tarzda tasvirlaydi. Romanda, asosan, Tessning sof axloqiy qadriyatlarini va jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy me'yorlar o'rtasidagi kurash o'rganiladi. Hardy, bu ziddiyat orqali Viktoriya jamiyatining kattalashgan ijtimoiy va axloqiy strukturalariga tanqidiy yondashadi.

Jamiyat, Viktoriya davrining qat'iy axloqiy talablariga javob beradigan ayolni tasvirlashga intiladi. Tessning o'zgacha va tabiiy qiyofasi, uning jinsiy tarixidan keyin jamiyat tomonidan kiritilgan ayblovlar, uni to'liq yengib chiqaradi. Jamiyatning Tessga qarshi qo'ygan hukmlari uning ichki kurashlariga qarshi qarshilik ko'rsatadi. Masalan, u, Alec d'Urberville bilan munosabatda bo'lganidan so'ng, o'zini oxirgi muddatga qadar ma'naviy yo'qotilgan deb biladi, lekin uning uchun o'zining sof va ichki axloqiy qadriyatlarini saqlash katta ahamiyatga ega.

'Bonu' Romanida Sof va Jamiyat Axloqi O'rtasidagi Ziddiyat

Iqbol Mirzo ning Bonu romani o'ziga xos tarzda sof va jamiyat axloqiy tamoyillari o'rtasidagi ziddiyatni tasvirlaydi. Romandagi qahramon Bonu o'zining ichki axloqiy qadriyatlarini saqlashga intilgan, biroq jamiyatning patriarxal va qat'iy axloqiy me'yorlariga moslashishning og'irligini his qilgan ayol sifatida namoyon bo'ladi. Asar davomida Bonu o'zining ichki axloqiy tamoyillari bilan jamiyatning o'ta qat'iy va patriarxal tuzilmalariga qarshi kurashadi.

Tahlil va natijalar. Sharq va G'arb adabiyotida suitsid obrazining taqdimoti turlicha bo'lishi, har bir madaniyatdagi falsafiy va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. G'arb adabiyotida, ayniqsa ekzistensializm va modernizm ta'sirida, suitsid ko'pincha insonning mavjudligi va jamiyatga qarshi norozilikni ifodalaydi. Hamlet, Meursault va Svidrigaylov kabi obrazlar shaxsiy krizis, ma'naviy tanazzul va ontologik iztiroblarni aks ettiradi. Sharq adabiyotida esa, asosan tasavvuf va metafizik tafakkur asosida, suitsid fidoyilik va ilohiy muhabbatning timsoli sifatida ko'riladi, masalan, Farhod va Majnun o'z joniga qasd qilishi. Shu tariqa, maqolada adabiyotdagi suitsid obrazining turli madaniyatlardagi o'ziga xosligi va ularning falsafiy-estetik talqini ochib berildi.

Xulosa va takliflar. Sharq va G'arb adabiyotida suitsid obrazining talqini har bir madaniyatga xos falsafiy-estetik va ijtimoiy-ma'naviy paradigma asosida shakllanadi. G'arb yozuvchilari, ayniqsa ekzistensialistlar va modernistlar asarlarida suitsid, ko'pincha insonning ichki kollapsi, jamiyatdan begonalashuvi va ontologik maqsadsizlik holati sifatida aks ettiriladi. Hamlet, Meursault, Svidrigaylov kabi qahramonlar timsolida hayotning izohsizligi, tanlov erksizligi va ruhiy inqiroz suitsid orqali dramatik badiiy yakunga olib kelinadi. Bu holatda suitsid — nafaqat o'z joniga qasd, balki mavjudlikni rad etishning falsafiy shakli bo'lib namoyon bo'ladi [9].

Sharq adabiyotida esa suitsid ko'proq axloqiy yuksalish, fidoyilik va ilohiy muhabbat bilan uzviy bog'liq. Farhodning muqaddas sevgi yo'lida hayotdan voz kechishi, Majnun jamiyat normasiga zid ruhiy tanlovi yoki Hofizda o'zini ilohiy ishqqa topshirish — bularning barchasi suitsidni ruhiy poklanish akti sifatida talqin etishga olib keladi. Sharq adabiyotida o'z joniga qasd qilish, g'arbliklar uchun tushkunlik belgisi bo'lib tuyulgan holatda, Sharqona ma'rifat, sabr va ruhiy komillikka yetishish yo'lining yakuniy bosqichiga aylanadi [10].

Shu tariqa, suitsid motivi nafaqat shaxsiy ruhiy ahvol ifodasi, balki har bir madaniyatning hayot, oʻlim, muhabbat va mavjudlik haqidagi qadriyatlar tizimining badiiy ifodasidir. Gʻarb suitsidni yoʻqotish, Sharq esa qurbonlik sifatida talqin etadi. Bu qarama-qarshi yondashuvlar orqali yozuvchi va shoirlar inson

mohiyatiga doir chuqur falsafiy savollarni koʻtaradilar. Mazkur maqola ana shu murakkab semantik qatlamlarni qiyosiy tahlil etish orqali, suitsid obrazining adabiyotdagi ontologik vazifasini ochib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Shakespeare, W. Hamlet. London: Oxford University Press, 1603.
2. Camus, A. L'Étranger (Begona). Paris: Gallimard, 1942.
3. Dostoevsky, F. Prestuplenie i nakazanie (Jinoyat va jazo). Moskva: Nauka, 1866.
4. Navoiy, A. Farhod va Shirin. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1980.
5. Fuzuliy. Layli va Majnun. Boku: Elm, 1979.
6. Mishima, Y. Kinkaku-ji (Oltin ibodatxona). Tokyo: Shinchosha, 1956.
7. Frankl, V. Man's Search for Meaning. Boston: Beacon Press, 1946.
8. Said, E. Orientalism. New York: Vintage Books, 1978.
9. Schopenhauer, A. On the Suffering of the World. London: Penguin Classics, 2004.
10. Nasr, S. H. Islamic Life and Thought. London: Routledge, 1981.



Baxora ERGASHOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ergashova.baxoram@gmail.com
Giuseppe MAUGERI,
Urbino Universiteti professori

O'zDJTU dotsent, f.f.n L.Xoliyrov taqrizi asosida

TIL O'RGANISHNING IKKI MUHIM OMILI: OLIY TA'LIM TALABALARINING TAJRIBASI

Аннотация

Mazkur maqola xorijiy tillarni o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikki omil — o'rganish makoni va sinf muhitini tahlil qilishga bag'ishlangan. YA'ni, til o'qitiladigan xonalarning qanday tashkil etilgani va sinfdagi umumiy muhit sifati o'rganuvchilarning ruhiy holatiga, tilni o'zlashtirishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida so'z yuritiladi. Maqolada til o'qitish bo'yicha olib borilgan so'nggi ilmiy tadqiqotlar asosida tahlillar beriladi hamda o'rganish muhitini yanada qulaylashtirish, salbiy va xavotir uyg'otuvchi holatlarning oldini olishga qaratilgan inklyuziv, ya'ni barcha o'rganuvchilarni qamrab oluvchi yangi yondashuv va boshqaruv uslublari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: makon va muhit omillari, xorijiy til o'rganish, formalistik yondashuv, gumanistik yondashuv, inklyuziv yondashuv.

TWO KEY FACTORS IN LANGUAGE LEARNING: THE EXPERIENCE OF HIGHER EDUCATION STUDENTS

Annotation

This article focuses on two essential factors in the process of teaching foreign languages: the learning environment and classroom atmosphere. The article discusses how the spatial organization of learning spaces and the quality of classroom atmosphere can influence learners' psychological well-being and language acquisition. Based on recent scientific literature and research in the field of language teaching, the article provides analyses and proposes new inclusive management approaches aimed at improving the learning environment and minimizing anxiety-inducing and negative conditions.

Key words: Spatial and environmental factors, foreign language learning, formalistic approach, humanistic approach, inclusive approach.

ДВА ВАЖНЫХ ФАКТОРА В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА: ОПЫТ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу двух важных факторов в процессе преподавания иностранных языков — образовательного пространства и атмосферы в классе. В статье рассматривается, каким образом пространственная организация учебных помещений и качество атмосферы в классе могут повлиять на психологическое состояние обучающихся и на процесс усвоения языка. На основе последних научных исследований в области методики преподавания языков предложен анализ и представлены новые инклюзивные подходы к управлению учебной средой, направленные на её оптимизацию и снижение негативного и тревожного воздействия.

Ключевые слова: Пространственные и средовые факторы, изучение иностранного языка, формалистский подход, гуманистический подход, инклюзивный подход.

Kirish. Glottodidaktika sohasidagi adabiyotlarda talabalar farovonligi bilan sinf muhitining o'zaro bog'liqligi chuqur o'rganilgan (Maugeri, 2017). Tadqiqotlarning asosiy nazariy g'oyasi shundan iboratki, til o'rganish obyektlari talabalarni rag'batlantirish, ularning psixologik, ijtimoiy va jismoniy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'quv muhiti ta'lim jarayonining muhim va strategik qismi sifatida qaraladi, chunki bu muhit talabalar tilni qanday o'zlashtirishi va uni tajribalar orqali mustahkamlashini belgilaydi. Sinf xonasi esa, o'z navbatida, har xil qobiliyat va qiziqishlarga ega bo'lgan talabalarga qulay bo'lgan, ularga xorijiy tilni o'rganishda ijtimoiylashish va til amaliyoti olib borish imkoniyatini beradigan obyekt tarzida tashkil etilishi kerak. Biroq, amaliyotda ko'plab til o'qitish jarayonlari hanuzgacha an'anaviy didaktik uslublarga tayangan holda olib borilmoqda. Bu formal yondashuvda esa sinf muhitining o'zi, uning qanday tashkil etilgani yetarlicha e'tiborga olinmaydi. Natijada, o'quv muhitini yaxshilash, uni zamonaviy talabalar asosida qayta tashkil etish va talabalar uchun qulay sharoit yaratish zarurati ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. An'anaviy o'qitish uslublarida sinf xonasi odatda oldinga yo'naltirilgan va qat'iy qoliqli shaklda tashkil etiladi. Bunday sinflar, odatda, standart ko'rinishda, o'ziga xos xususiyatlardan xoli va tematik jihatdan boyitilmagan bo'ladi. Natijada, talabalar uchun barcha sinflar deyarli bir xil ko'rinadi: bir xil o'lcham, bir xil rang, bir xil jihoz. Bunday o'quv muhitlari o'zgarishning, ritmning va yondashuvning yo'qligi bilan tavsiflanadi; sinf

tuzilmasi esa moslashuvchan emas, ya'ni u o'zgaruvchan dars shakllari yoki interaktiv faoliyatlarga moslasha olmaydi. Bu holat nafaqat o'qituvchini, balki talabalarni ham bir xil pozitsiyada va fikrlash tarzida ushlab turadi — hatto kommunikativ mashg'ulotlar yoki amaliy topshiriqlarda ham buni yaqqol sezish mumkin. Bunday sinf tuzilmasi o'qituvchining markaziy, ustun mavqei kuchaytiradi: u dars muhitda ham, darsning hajmi va sifati bo'yicha ham yetakchi rolni egallaydi. O'qituvchining vazifasi — bilim berish va talabalar faoliyatini nazorat qilishdan iborat bo'ladi. Talabalarga esa ko'pincha faqat tinglash va avtomatik tarzda topshiriqlarni bajarish imkoniyati beriladi. Bunday sinf tuzilmasi talabalarni harakatsiz, qat'iy tartibga solingan va ierarxik joylashuvda ushlab turishga intiladi. Bu statik muhit ko'proq o'qituvchining tushuntirishiga asoslangan, grammatikaga urg'u beradigan va talabalarni yodlashga yo'naltirilgan an'anaviy o'qitish uslubiga mos keladi. Bunday yondashuvda talabaga mustaqil subyekt yoki faol ishtirokchi sifatida emas, balki faqat baholashga mo'ljallangan obyekt sifatida qaraladi. Ushbu uslubda shakllangan o'quv muhiti talabalar uchun faol, ijobiy, interaktiv va dinamik o'rganish jarayoni yaratib bermaydi. Sinf makoni yangi g'oya va resurslar almashinuvi sodir bo'ladigan ochiq va moslashuvchan makon emas, aksincha, an'anaviy modelga asoslangan holda quriladi. Bu model esa talabalar faoliyatidagi statiklikni afzal ko'rib, ko'pincha o'qituvchining nutqini tinglashga, diktant va tarjima kabi turli mashqlarga asoslangan bo'ladi. Natijada, talabalar roli passiv

ijrochi darajasida qoladi; ular o'z joylarida izolyatsiyalangan holda o'tirishga moyil bo'lishadi va sinfda interaktiv faoliyatlar yetarli darajada bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gumanistik va hissiy yondashuvlarning asosiy konseptual qolipi (Stevinck, 1980, 1990; Rogers, 2019; Balboni, 2020) mexanik o'rganish sxemasidan farq qiladi va sinf muhitini insonparvarlashtirishni afzal ko'radi. Bunday yondashuvda sinf o'quvchilarga moslashtirilgan va til o'rganish uchun qulay sharoitlarni yaratadigan makon sifatida qaraladi. Gumanistik yondashuvda o'rganuvchi ijtimoiy va o'rganish kontekstlarini yaratishda markaziy obraz sifatida ko'riladi. Bu yondashuvda sinfni tashkil etishda har bir talabani individual xususiyatlari (D'Alonzo, Sala, 2023) va o'rganish uchun zarur bo'lgan jismoniy sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Har bir talabani o'rganish holatini tahlil qilish va sinfda o'zini tutishi va o'rganish usullarini baholash muhimdir. Madaniy, tahliliy va hissiy ma'lumotlarga asoslanib, o'qituvchi sinf muhitini farqlash va mos til darajasini kiritish va tushuntirish usullarini o'zgartirish strategiyalarini aniqlaydi (Comoglio, Cardoso 1996). 2. Sinfning ko'p o'lchovlilik xususiyati, talabalarining til va madaniyatdagi xilma-xilligi, har bir talabani etnik, dialogik o'ziga xosligi va o'rganish muhitidagi madaniyatlararo vaziyatni o'z ichiga oladi. Har bir sinf o'ziga xos bo'lib, uning muvaffaqiyati har bir a'zo va guruhning xilma-xillikni boshqarish va qadrlash qobiliyatiga ega ekanligiga bog'liqdir. Edulingvistik o'rganish muhitida gorizontal va asimmetrik munosabatlar, individual va guruh munosabatlari, shaxsiy va jamoaviy qarorlar, inson ehtiyojlariga e'tibor va ziddiyatlar mavjud. Ushbu kontekst o'qituvchi ishining murakkabligini ko'rsatadi, chunki u sinf va o'rganish muhitini samarali boshqarish uchun edulingvistik xatti-harakatlar va nuqtai nazarlarni oqilona tanlashi kerak. Sinfning ijtimoiy konteksti va o'qituvchining metodologik tanlovlari quyidagi natijalarga olib keladi:

Ichki muhit va uning imkoniyatlaridan didaktik maqsadlarda foydalanish.

Sinfda mavzuga mos muhit yaratish.

O'rganishning aniq nuqtai nazari va usullarini tushunish.

Ma'lum ish usullarini qabul qilish.

Mavjud imkoniyatlarni qadrlash.

Tadqiqot metodologiyasi. Gumanistik yondashuvga muvofiq, fizik makon o'qituvchilar va til o'rganuvchilari uchun o'zgaruvchan, moslashuvchan makon sifatida qaraladi. Bu inklyuziv, immersiv va shaxsiylashtirilgan muhit bo'lib, ma'lum bir mavzuga bag'ishlanadi. Ushbu tadqiqot ishida asosan eksperimental, kvalifikatsion, kvantifikatsion hamda kuzatish metodlaridan foydalaniladi. Talabalarining til o'rganishdagi shaxsiy va jamoaviy ishtiroki tahlil qilinadi. Har bir o'qituvchi sinfda tilga oid o'ziga xos qarashni targ'ib qiladi, bu qarash o'rganish makonlarida shakllanadi. Bunday qarashga asoslanib, o'qituvchi sinfda o'rganish va tilni mulohazaga qo'llashning yangi perspektivasini yaratishda faol ishtirok etadi. Shu sababli, o'qituvchining o'rganish muhitining ba'zi afzalliklari va kamchiliklarini anglashi juda muhimdir, chunki bu makon tanlangan glottodidaktik yondashuvni sinfda tilni o'rgatish uchun qanday ishlatishni belgilaydi. Rekonstruktiv qarashlar doirasida, sinfning gumanistik tajribasi o'quvchilarga qiymat berishi kerak. Buning uchun o'rganish tajribasini qo'llab-quvvatlovchi vositalarning qulayligi va funksionalligi kabi mezonlarga asoslanish lozim. (Wang, Minor 2008). Demak, sinfdagi har bir jismoniy element o'quvchilarning kerakli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. To'g'ri makon tashkil etilishi sinfda fikr almashish va g'oyalarni birgalikda baham ko'rish imkoniyatlarini yaratishda sinergiya va mulohotni qo'llab-quvvatlaydi va o'qituvchi qo'llaydigan metodiga asoslangan didaktik ehtiyojlarga javob berishi kerakligini taqozo etadi. Yuqoridagi qarashlardan shuni tushunishimiz mumkinki, ta'lim tizimi tashkilotchiligi va didaktik muhitning shakli o'rtasidagi bog'liqlik qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Tahlil va natijalar. O'qituvchi dars uchun foydalaniladigan barcha didaktik vositalarni (stollar, o'rindiqlar, ularning sifati, balandligi, qalinligi, og'irligi) to'g'ri tanlashi muhimdir. Bu vositalar didaktik tuzilishga va belgilangan o'quv maqsadlariga mos bo'lishi kerak. Ulardagi sifat tushunchasi

materiallar, jihozlar va ranglarning tanlovi bilan bog'liq bo'lib, tadqiqotchilar, jumladan, Trevisani (2001) va Buiatti (2014) sinfxonalardagi qizil va sariq rangdagi devorlarni tavsiya etmaydilar, chunki bu ranglar tinchlantiruvchi muhit yaratishga xalaqit beradi. Boshqa bir muhim element – bu mavzularni belgilashdir: har bir makon mavzuga asoslangan yoki shaxsiylashtirilgan bo'lishi mumkin. Didaktik makonlar, o'quvchilar uchun tanlangan materiallarda yoki "realia" – tilni o'rganish bilan bog'liq madaniy jihatdan ahamiyatli buyumlar joylashtirilgan joylarda o'quvchining til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi yanada oshadi. Yana bir muhim jihat – funksionallik. Noqulay va funksionalligi past bo'lgan sinf, o'quvchilarga psixologik va fiziologik farovonlikni ta'minlay olmaydi, bu esa o'quv muassasasi haqida salbiy fikr yuritishga olib keladi. Shu sababli, sinf xonaning bu jihatlari didaktik nuqtai nazardan o'ylab ishlab chiqilishi kerak. Bu jihatlar o'quvchiga yaxshiroq ishlash, jarayonlarga e'tibor berish va kommunikativ samaradorlikni oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga yordam beradi. Didaktik makonlar - shaxsiy buyumlar, materiallar va raqamli materiallarni joylashtirish uchun moslashtirilishi, qulay va xavfsiz bo'lishi, turli fazoviy kompozitsiyalarni o'z ichiga olganligi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi frontal taqdimotlar uchun joy bo'lishi ish va individual fikr yuritishda asosiy e'tibor qaratilishi lozim xususiyatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, sinfdagi o'quvchining qulayligini oshirishga yordam beradigan boshqa elementlar quyidagilardir:

Sinf atmosferasi: havo sifati talabani diqqatini chalg'itmasligi uchun mos ravishda saqlanishi kerak. Bu nuqtada, havo dimligi yoki asosan konditsionerlar tizimidan kelayotgan havo atrof-muhitga xalaqit berib, tomoqni quruqlashtirishi mumkin;

Yorug'lik sifati: xonadagi yorug'lik ko'zni olar darajada yoyilmasligi kerak. Shu tarzda, yorug'lik va havo sinfning mikroiklimida muhim komponentlaridan hisoblanadi. Yomon havo va yorug'lik sifati sinfda bajariladigan ishning noto'g'ri tasvirlarini yaratadi, shuningdek, jihozlarning samaradorligi va funksionalligini to'g'ri ko'rishga xalaqit beradi. Yoritish tizimi imkon qadar tabiiy yoritish bilan cheklanishi kerak. Yorug'lik manbai oynalar yoki derazalar bo'lib, ular kunning ma'lum vaqtlarida quyoshning maksimal ta'sirida yorug'likni filtrlaydi;

O'simliklar: o'simliklar va gullar xonaning estetik go'zalligini va havoni yangilashga yordam beradi.

Hozirgacha tahlil qilingan jihatlar o'quvchining shaxs sifatida o'rganish sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Fizik-arxitektura elementlarining taqsimoti o'quvchini til va hamkasblari bilan o'zaro aloqalarini o'rnatishga tayyorlaydi. Yuqoridagi bo'limlarda noto'g'ri sinf boshqaruvi til o'rganishga qanday to'siq bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqdik va bir narsa ayonki, noto'g'ri makon talabalarida salbiy hissiyotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jihatdan glottodidaktik tadqiqotlar sinfdagi psixologik muammolarni til o'rganishdagi kamchiliklar bilan bog'laydi. Krashen (1981) o'z tadqiqotlarida stress, tashvish va qo'rquvga asoslangan o'qitish sharoitlari talabalarining affektiv filtrini oshirishga olib kelishini ta'kidlab o'tgan. Ya'ni, bu talabalarining til o'rganish qobiliyatini pasaytiradigan psixologik to'siqdir. O'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lgan talaba o'zining imkoniyatlari va bilimlariga nisbatan darajasi juda yuqori yoki murakkab o'quv vazifasini bajarishda o'zini tahdid ostida his qiladi va ushbu emotsional holat haqiqiy xavf hisoblanib, talaba yangi ma'lumotlarga e'tibor bermaydi va mavjud bilimlarini qayta ishlashga intilmaydi. Bunday holatda uning yagona maqsadi til bilan sodir bo'lgan noqulay vaziyatdan qochish, o'z obro'sini saqlash va o'zini hurmat qilishdir. Xulosa qilib aytganda, salbiy emotsional holatlar va ularning kimyoviy va didaktik ta'siri talabani til o'rganish bo'yicha muvaffaqiyatli yo'lni yakunlash imkoniyatidan mahrum qilishi mumkin. Shaxsiga yo'naltirilgan glottodidaktika affektiv va kognitiv neyrobiologiya tadqiqotlaridan chetda qolmagan holda ko'pincha talabalarida salbiy emotsional holatlarni keltirib chiqaradigan sabablarni tushuntiradi. (Pessoa, 2009; Damasio, 1995) Tashvish va stressning manbai ortiqcha qiyinchiliklar, talabalarining til darajasiga mos kelmaydigan faoliyatlar yoki emotsional jihatdan ahamiyatsiz mashqlar bo'lishi mumkin. Boshqa bir tanqid

vaziyat shundaki, o'qituvchi talabalarning xatolarini salbiy baholaydi va shu bilan ularning jarayoniga emas, balki natijalariga e'tibor qaratadi. Shunday qilib, talaba til o'rganishda hech qanday motivatsiyaga ega bo'lmaydi va foydali va ijobiy tajriba yaratishga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi. Sinfda asosiy va dominant hissiyot darsga kelishdan afsuslanish, o'zini kerakli joyda bo'lmaganligini his qilishdir. Bunday motivatsion holat uning harakatlari, qarashlari, harakat qilish va hamkorlik qilishga tayyorligi, kognitiv va affektiv resurslari va ijro etish qobiliyatiga muqarrar ravishda ta'sir qiladi. Ushbu nuqtai nazardan, til o'rganish tajribasi ijtimoiy va madaniy jihatdan kamchilik sifatida ko'riladi; bu talaba tomonidan o'zini o'rgatish metodologiyasi, o'qituvchining kommunikatsiya uslubi, foydalanish kerak bo'lgan operatsion modellar, muomala qilish kerak bo'lgan mavzular, bajarilishi kerak bo'lgan ahamiyatsiz faoliyatlar, o'qitish usullari va topshiriqlarni bajarish metodlari kabi faktorlarga bog'liq emas, va ularni tahdidli deb hisoblaydi. Gumanistik yondashuv talabalarning hissiyotlari rolini ta'kidlab, o'qituvchining metodologiyasini qoralaydi, chunki u talabalarning o'zini hurmat qilishini xavf ostiga qo'yadi va affektiv filtrni faollashtiradi. Ushbu didaktik sharoitda talaba noto'g'ri ko'nikmalarni kashf qiladi va faoliyatlar uni mamnun qilmaydi, balki aksincha unda tashvish va qo'rquv holatlarini keltirib chiqaradi. Gorvitzning ta'kidlashicha, tashvish bu qo'rquv hissi bo'lib, "avtonom nerv tizimining qo'zg'alishi bilan bog'liq" (Gorvitz va boshqalar, 1986: 125). U talabalar uchta shaklda namoyon bo'ladi: muloqotga tayyorlik, testdagi tashvish va baholanishdan qo'rqish. Farné (2003) qo'rquv va tashvish o'rtasida farq mavjudligini aytib o'tadi. Qo'rquv, biz muayyan obyekt yoki tahdidli vaziyatni belgilaganimizda faollashadi. Bu holatda talaba nima tahdid qilayotganini va undan qanday qo'rqishini biladi (Mitchell va Greening, 2012). Qo'rquvdan farqli o'laroq, tashvish emotsional holat bo'lib, undagi tahdid aniqlanmagan va identifikatsiya qilinmagan. Shuning uchun, xavfning haqiqiy holatini aniqlash mumkin emas va talaba u qachon bo'lishi, qancha davom etishi va o'zini qanday himoya qilish kerakligi haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Lang va McTeague (2009) ning fikriga ko'ra, yuqori darajada tashvish va qo'rquv o'ziga xos emotsional, taktil va fiziologik holatlarni keltirib chiqaradi.

Fiziologik nuqtai nazardan yuqori darajadagi tashvish va qo'rquv energiya resurslarini boshqarish uchun zarur bo'lgan simpatiya nervlarini faollashtiradi. Shu bilan birga bu tizim nerv

tizimi orqali tananing muayyan ehtiyojlarini boshqaradi, jumladan qonga adrenalin va noradrenalin chiqarishni nazorat qiladi. Twarkowski va Manahan-Vaughan (2016) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki ushbu gormonlar hatto ular juda katta miqdorda bo'lsa ham to'g'ridan-to'g'ri miya ichiga kirib bora olmasalar ham talabaga ta'sir qilishi mumkin. Intensiv va uzoq davom etgan xavf natijasida kortizol gormoni chiqariladi va u miya funksiyalarini shu bilan birga xotirani buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu kortizolning amigdala, neyokorteks va hipokampusdagi retseptorlarga bog'lanadi; bunday stimullar odamning xulq-atvorini, ijtimoiy aloqalarni (o'zini va boshqalarni qabul qilish, hamkorlik) kognitiv (diqqat, xotira, o'zini baholash) va motivatsion (niyat) jihatlarida favqulodda holatni yuzaga kelishiga olib keladi.

Umumiy olib qaralganda, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki stress va qo'rquv holatlarida talamik va kortikal kirishlar himoya mexanizmlarini faollashtiradi va ularni maxsus fiziologik javoblar orqali ifodalaydi, masalan amigdala va ish xotirasi hamda uzoq muddatli xotiralar o'rtasidagi aloqaning uzilishi. Natijada yuqori darajadagi tashvish va qo'rquv talabalarning til ko'nikmalariga salbiy ta'sir qiladi. Shunday qilib bu ikki salbiy emotsional holatning yuqori chastotasi, davomiyligi va intensivligi talabalarida noqulayliklarni yaratishi shu bilan bir qatorda til o'rganish jarayonini buzishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot talabalar o'rtasida til o'rganish jarayonida ular duch kelishi mumkin bo'lgan murakkab vaziyatlarda ongli ravishda ishlatish uchun samarali bo'lishi mumkin bo'lgan usullar va muhitlarni qayta ko'rib chiqdi. Til o'qituvchisining harakati bu ayrim tanqidiy vaziyatlarni yanada konstruktiv ravishda boshqarish, talabani shaxs sifatida markazga qo'yish borasida asosiy o'rin egallaydi. Bunday harakatlar darslar davomida joylashuv va vaqtni asosiy o'ringa qo'ygan holda, talabaniy sinfda kommunikatsiyaga kirishishga bo'lgan yuqori moyilligini rag'batlantiradi. Shu nuqtai nazardan, sinfxonalar va xavfsiz bo'lgan o'qitish texnikalari talabaniy psixoeffektiv va kognitiv ehtiyojlariga yanada yaqin bo'lgan kontekstli o'qitishni yuzaga keltirishi mumkin. Bu yondashuv talabalarga o'zlarini erkin his qilish va til o'rganishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ruhiy va intellektual muhitni yaratadi. Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha to'g'ri yondashuv va metodlarni tanlash, xona sig'imi va holatini hisobga olish, albatta ta'lim sifatiga ta'sir etadi.

ADABIYOTLAR

1. Al-Khasawneh, F.M. (2016). «Investigating Foreign Language Learning Anxiety: A Case of Saudi Undergraduate EFL Learners». *Journal of Language and Linguistic Studies*, 12, 137-48.
2. Balboni P.E., 2020, «Conoscenze e competenze nell'educazione linguistica». *EL.LE*, 9(3), 333-44. <http://doi.org/10.30687/ELLE/2280-6792/2020/03/001>.
3. Buiatti, E., 2014, *Forma Mentis*. Milano: FrancoAngeli.
4. Comoglio, M.; Cardoso, M.A. (1996). *Insegnare ad apprendere in gruppo. Il Cooperative Learning*. LAS, Roma.
5. Damasio, A. (1995). *Descartes' Error: Emotion, Reason and the Human Brain*. Londra: Picador.
6. D'Alonzo L., Sala R., 2023, *Il profilo d'apprendimento, Scholé*, Milano.
7. Farné, M. (2003). *L'ansia*. Bologna: il Mulino.
8. Horwitz, E.K.; Horwitz, M.B.; Cope, J. (1986). «Foreign Language Classroom Anxiety». *The Modern Language Journal*, 70, 125-32.
9. Krashen S.D., 1981, *Second Language Acquisition and Second Language Learning*. Oxford: Pergamon.



Elyor YULDASHEV,

Urganch innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi,

E-mail: yuldashevelyor@urgiu.uz

Filologiya fanlari doktori D.Yuldashev taqrizi asosida

KOMIL XORAZMIY IJODIDAGI O'XSHATISHLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida qo'llangan o'xshatishlar, xususan, ularni hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar, ularning o'xshatish etaloniga ko'ra tasnifi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Komil Xorazmiy, o'xshatish, analogiya, lingvopoetika, asos, etalon, tashbeh, komparativ tropalar.

ANALYSIS OF SIMILES IN THE WORKS OF KOMIL KHOREZMI

Annotation

This article discusses the use of similes in the works of Komil Khorezmi, with particular attention to the lexical and grammatical means by which they are formed, as well as their classification based on the standard of comparison.

Key words: Komil Khorezmi, simile, analogy, linguopoetics, base, standard, tashbeh, comparative tropes.

АНАЛИЗ СРАВНЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ КОМИЛА ХОРЕЗМИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются сравнения, используемые в творчестве Комила Хорезми, в частности, лексические и грамматические средства их образования, а также классификация сравнений в зависимости от эталона.

Ключевые слова: Комил Хорезми, сравнение, аналогия, лингвопоэтика, основа, эталон, ташбех, сравнительные тропы.

Kirish. O'xshatish – analogiya tasviriy ifodaning eng qadimiy shakllaridan bo'lib, Aristotel poeziyasi o'xshatish san'ati deb ataydi. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi, hatto dastlabki bilimlarni u o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi. Simile (o'xshatish) terminini Aristotel imago tarzida qo'llagan, uzoq yillar davomida o'xshatish notiqlik (ritorika)da nutq vositasi tarzida atroflicha o'rganilgan, lekin uning grammatik tomonlari tadqiqi ancha orqada qolgan. Mantiq fanidagi analogiyaga xulosa chiqarishning maxsus shakli sifatida qarab, N.Mahmudov quyidagi izohni qayd qiladi: "Analogiya deb o'xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o'xshash belgilariga ega ekanligini ko'rsatishga aytiladi. Birinchi narsa yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun tanish. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba'zi bir belgilarinagina bilamiz. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o'xshatamiz" [5].

Rus tilshunosligida o'xshatish tahliliga oid tadqiqotlar XVIII asrda yuzaga kelgan. Jumladan, M.V.Lomonosov birinchilardan bo'lib mazkur muammoni ritorik qatlamda, shuningdek, grammatik qatlam nuqtayi nazaridan ham o'rganadi [1]. XIX asr boshlaridan tadqiqotchilar o'xshatishning mohiyatini tadqiq qilishga, XX asrda esa o'xshatishning sabablari hamda turli xalqlardagi o'xshatishlarning o'xshash va farqli jihatlarga e'tibor qaratildi. Aytish mumkinki, ayni shu davr tasviriy o'xshatishga F.I.Buslayeva, A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya kabi olimlar nomlari bilan bog'liq yangicha yondashuvni boshlab berdi. Jumladan, A.A.Potebnya "bugungi olimlari oldida til va tafakkurning rivojlanishida o'xshatish shakllarining paydo bo'lishi sabab va omillarini aniqlash vazifasi turibdi", deb qayd qilgan edi [9]. Tilshunoslikda keng ma'noda qo'llanuvchi "funktional yondashuv" (uslubiy figura va troplarining mohiyatini anglashga imkon beradigan yondashuv) o'xshatishga nisbatan uning badiiy muloqotni amalga oshirishdagi roli va vazifasi nuqtayi nazaridan qarash demakdir. V.M.Jirmunskiy bu holatni "jiddiy tahlil u yoki bu badiiy san'atni qayd etish bilan cheklanmasdan, o'sha san'atning estetik funksiyasi, mohiyati, ayni shu san'at nimani ifodalayotganini tushunishni nazarda tutadi" tarzida izohlaydi [2]. O'xshatish badiiy matnda kitobxon yoki tinglovchiga representativ (informatsiya yetkazish),

ekspressiv (informatsiyaga hissiy munosabatni ifodalash), appelyativ (o'quvchiga muayyan ta'sir o'tkazish) maqsadlarning hammasiga birdek xizmat qiladi. J.Lakoff va M.Jonsonlar nazariyasiga ko'ra, inson ongidagi konseptual tizim (bilimlar jami) bevosita tajriba orqali erishilgan konseptlar asosida vujudga keladi [3]. Bu esa yangi bilimlar oldingi bilimlar asosida hosil qilinadi, demakdir.

Metodologiya. Darhaqiqat, har qanday badiiy matnning lingvopoetik tahlilining metodologiyasi dialektik tafakkur qonuniyatlariga asoslanadi. Jumladan, bu jarayonda 1) shakl va mazmun birligi; 2) makon va zamon birligi; 3) xususiylikdan umumiylikka o'tish kabi bir qancha tamoyillarga tayaniladi. Tahlil usullari sifatida esa badiiy matn tahlili metodistlari tavsiyasiga ko'ra, lisoniy tabdil, matn variantlarini qiyoslash, lug'atlarga asoslanish, lisoniy birliklar indeksini tuzish kabilar tavsiya qilinadi [12]. Ushbu maqolada biz Komil nazmda qo'llangan o'xshatishlarning o'ziga xosliklarini ochib berishda shakl va mazmun birligi tamoyiliga asoslandik hamda lisoniy tabdil usuli (bu usuldan asar tilining badiiyligi va muallif mahoratini aniqlashda foydalanildi) va lug'atlarga asoslanish usuli (bu usuldan Komil she'rlaridagi ayrim so'z va iboralarning ma'nosini izohlashda foydalanildi)ga tayandik. Shuningdek, har qanday badiiy asar lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish talabini qo'llab-quvvatlaymiz.

Muhokama va natijalar. O'xshatishlar dunyo filologiya ilmidagi, to'g'rirog'i, Panini grammatikasida (er.av. IV asr) poetik vosita sifatida qaralgan va u to'rt unsurdan tashkil topishi ta'kidlangan [8]. O'zbek tilshunosligida o'xshatishning ilk tadqiqotchisi – M.Mukarramov o'xshatishning uch asosdan iboratligi, o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning asosi ekanligi hamda o'xshatish vositasi asos sifatida hisobga olinmasligini ta'kidlaydi [7]. O'xshatishlar haqida maxsus tadqiqot olib borgan D.Xudoyberganova o'xshatishlar to'rt komponentdan iborat ekanligini, ayrim o'xshatish konstruksiyalarida bu komponentlarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishini ko'rsatadi [11].

O'xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: kibi (kabi), go'yo (go'yoyi), yanglig' (yonglig'), misli, o'ylaki (o'ylakim), navi'kim, sifat kabilar. Quyida ushbu vositalar ishtirokiga "Комил. Девон"dan bittadan misol keltiramiz (maqoladagi

barcha misollar ushbu devondan olingani uchun faqat beti ko'rsatildi):

- Aylaguncha san kibi Iso nishon birla vido',
Qilg'oy erdim kosh man dilxasta jon birla vido'... (90);
Ayirmassen ko'zung mir'oti husnidin dame, go'yo –
Yering shakkariston-u, ham taoming shakkar, ey to'ti...
(164);
Tun-u kun tor yanglig' yor edum tanbur-u qonuna,
Navo qilsam, navo bandan judo ul sozlardurlar... (57);
Ashhabing g'uboridin, ey Azizi mulki Misr,
Ko'zlarim qilib biyno, misli piri Kan'on qil... (113);
Iki gul o'ylaki bir shoxdin ochilmishdur,
Fig'onim ayladilar bulbulona ul iki sho'x... (51);
Komil ustiga qilur g'amalar hujum ul nav'kim,
Lashkari Sayyid Muhammadshoh qo'ng'iro't ustina...
(151);
Ajal o'qidin qutulmag'ungdur, agar Masihosifat
maqoming... (62)
2. O'xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir: -day
(-dek), -vash, -cha, -ona, -so, -omuz, -namo, -yi kabilar. Quyida
ushbu vositalarga bittadan misol keltiramiz:
Buxl zangini qira olmas temirday ko'nglidin,
Gar itiklik ichra bo'lsa o'ylakim so'hon, so'zung... (108);
Bo'l tajarrudpesha, qat' aylab taalluq rishtasin,
Gar chiqay desang Masihodek samuvot ustina... (151);
Munavvar bo'ldi hajrida qarorg'on baytul-ahzonim,
Chu ul yusufvashim ruxsor ochib, xurshidson keldi...
(159);
Ulki qilmaydur maoni bahrig'a g'avvosliq,
Ko'rmagay minchoqcha gar bo'lsa durri g'alton
so'zung... (108);
Mani gado nechuk istay alar tamoshosin,
Harifi bazmgahi xisravona ul iki sho'x... (51);
Quyosh, quyosh, quyoshoso jamolin ul dilbar,
Ochib, ochib, ochib olamni ayladi anvar... (203);
Nigohi marhamatomizing etma kam yiroqdinkim,
Mani mahjur xud qurbing'a yetmakning yo'q imkoni...
(161);
Masihoyi labi anfosidin jon topg'usi jismim,
Nechukkim subhidamdin bog' erur ruhi ravon, g'uncha...
(148);
Chun anda bo'ldi yuz-u la'ling aksi jilvanamo,
Ko'rar yuzin gul o'zin la'lnob oyina... (145);
Dili roston zeri koxi balo,
Alifvor gashta sutun, alg'iyos... (41).
Yuqoridagi o'xshatishlarda inson holati yorqin
ifodalangan va o'y-kechinmalarning narsa-hodisaga munosabati
orqali aniq ta'riflangan. Ayrim o'rinlarda bunday o'xshatishlar
personaj kayfiyatini ko'rsatuvchi, unga bir paytlar sodir bo'lgan
allaqanday voqeaga eslatib turuvchi vosita vazifasini bajargan.
Hech kimga sir emaski, bugungi lingvokulturologik
tadqiqotlarda o'xshatishlarga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan,
V.A.Maslova "muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi, xususan,
o'sha xalq tilida qo'llanuvchi o'xshatishlarda ham yaqqol
namoyon bo'lishi"ni ta'kidlaydi [4]. Olimaning bu fikrini
D.Xudoyberganova ham tasdiqlaydi: "O'zbek tili
o'xshatishlarning izohli lug'ati" uchun yig'ilgan materiallar
shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi,
harakat-holatga munosabati, assosiativ fikrlash tarzi
o'xshatishlarda ham namoyon bo'ladi... o'zbek tilida so'zlovchi
til egalari ko'proq insonning harakat-holatini obrazli tarzda
ifodalash"ga moyil [11].
Ma'lumki, har qanday o'xshatishda o'xshatish etaloni –
o'xshatish obrazi alohida ahamiyatga ega. "Bu unsur
o'xshatishning markazini, mag'zini tashkil etadi, boshqa unsurlar
(o'xshatish subyekti, o'xshatish asosi) ayni shu etalon atrofida
birlashadi. Ayni paytda boshqa unsurlar implitsit ifodalana olgani
holda o'xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog'i shart,
aniqroq aytganda, o'xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega
bo'lmasa, o'xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmaydi. Eng
muhammi shuki, xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi
o'ziga xoslik, ya'ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ
ma'lumot bevosita ayni shu o'xshatish etalonida tajassum topadi
[6]".

Biz yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda Komil
Xorazmiy devonidagi xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining
mahsuli sanaluvchi o'xshatishlarni etalonlariga asoslangan holda
quyidagicha mazmuniy guruhlariga ajratishni ma'qul topdik:

- Jonli narsalarga o'xshatish:
a) insonlar – bu tip aksariyat o'xshatishlarda o'xshatish
etaloni sifatida "Komil, Navoiy, Masih, Ya'qub, Yusuf, Piri
Kan'on, Halil, Qorun, Xisrav, Layli, Majnun" kabi real tarixiy
shaxslar, payg'ambarlar va adabiy qahramonlar qatnashgan.
Masalan: Komildek rozi-yu sobir bo'lub (28), Masihoyonglig'
mo'jizbayon (159), Qorundek o'lsa maxzaning (208), Majnundek
subh-u shom yig'lag'uchi (79), yig'laram Ya'qubdek (118),
yusufvashim kelajak (99), hiloloso nihon ul ikki qosh (76),
Xisravona ul iki sho'x (51) kabi.
Komilning ayrim misralarida atoqli otlar bilan birga,
"atfol, gado, o'lik, mardum, begona" kabi turdosh leksik birliklar
o'xshatish etaloni sifatida qatnashgan: atfoldek yig'lar (45),
gadodekki dargohi sulton aro (25), o'lukoso og'iz qurubon (203),
ko'z uyida mardumdek makon etkil (112) kabilar.
Shuningdek, shoir bir qancha o'xshatishlarida "men
(man), sen (san), u (o)" kishilik olmoshlarini o'xshatish etaloni
sifatida faol qo'llagan: vafo bog'ida mendek aylamaydur oshiyon
(111), seningdek diliston keldi (159), oningdek rayhon (134)
kabilar.
b) hayvonlar – bu tip o'xshatishlarda shoir "andalib,
bulbul, mo'r, qush (qanotli qush, gulshan qushlari), kabki dari,
parvona, miyno" kabilarni o'xshatish etaloni sifatida faol va
o'rinli qo'llaydi: oh-u fig'on andalibdek (135), bulbuldek shaydo
o'ldilar (115), mo'rdek ojiz etdi (128), qushdek qilmog'ing parvoz
(163), gulshan qushlari yanglig' chiqarg'ay bol-u par (133), kabki
daridek yurushing (97), parvonadek aylanib (107), miyno yonglig'
etgil qulqul (162) kabilar.
2. Jonsiz narsa-tushunchalar:
a) aniq narsalar o'xshatish etaloni sifatida tanlangan
misra-baytlarda Komil ba'zan "ko'z, lab, qomat, qad, xat (sabz
xati)" kabi inson tana a'zolari (somatizmlar)dan:
Ko'zumdek nedin bo'ldi labrez ashk,
Labingg'a emas bo'lsa sog'ar fido... (21);
Qadingdek yo'q nihole, lablaringdek g'unchay xandon,
Qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim... (171)
kabi;
ba'zan "gul, g'uncha, lola (lola bargi), suman, sarv,
za'faron" kabi o'simliklardan:
Bu gulshan ichra xandon bo'lmoq etsa orzu guldek,
Topib subhi jamolin, qilsun oni imtihon g'uncha... (148)
Gulshani bazmim aro zulfi sumanso kelajak,
Og'zi g'uncha, yuzi gul, qomati zebo kelajak... (100)
kabi;
ba'zan "quyosh, xurshid, mehr, yulduz (kavokib), charx,
shafaq, shabnam, bulut (abr), qyun, zarra, unsur" kabi osmon
jismlari va tabiat hodisalarini ifodalovchi tushunchalardan:
quyoshdek yuz (159), bulutdek tiyralik bo'lsa (131) kabi;
ba'zan "minchoq, alif, jom, o'q, girihgir, temir, la'l, xum,
oyina, simob, ko'zgu, shisha, sham, tor, guhar, nigin" kabi
kundalik turmushimizdagi real jihozlardan juda faol va mohirona
foydalana olgan: minchoqcha durri g'alton so'z (108), mahfuz
o'lay xumdek (149), siymobdek iztirob aylar (152), guhar
yonglig' e'tibor (23), nigin yonglig' yuz qaro qildi (18) kabilar.
b) mavhum tushunchalar – bu tip o'xshatishlarda shoir
"o'tlug' ko'ngul, Iso nafasi, umr, baxt, ruh, visol, yolg'on, pari,
hur-u g'ilmon, so'z, maqom, Falotun hikmati, nigoh, marhamat,
jilva" kabi tushunchalarni o'xshatish etaloni sifatida mahorat bilan
qo'llagan va tashbehning go'zal namunalari yaratgan: o'tlig'
ko'nguldek oh chekmoq (66), anfosi Isavidek jon bermoq (121),
umrdek shitob o'lmish (79), ruhdek maqom tutmoq (221), hur-u
g'ilmon yonglig' aylab ijtimoi' (91), qomating yonglig' ravon
ermas (75), mardumdek manzil-u makon etkil (112) kabi.
d) o'rin-joy – Komil Xorazmiy ba'zan o'xshatish etaloni
sifatida "Farqad, changaliston, jamol bog'i, gulshan uyi" kabi
o'rin-joy nomlari va otlaridan foydalangan: du chashmi man du
Farqad dod (55), changalistoncha yo'q Mahmud (23), jamoling
bog'idek rayyon (171), gulshan uyidek bom-u dar bo'lg'ay (110)
kabi.

e) harakat-holat – bu tip o'xshatishlarda shoir “vido qilmoq, munglashmoq, ravshan etmoq, adam qilmoq, zavar bo'lmoq, ko'zgu bo'lmoq, oftob bo'lmoq” kabi harakat-holat fe'llarini o'xshatish etaloni sifatida mohirona istifoda etgan: xazon birla vido' qilg'ondek (90), munglashgudek yor-u ulfat (19), sham'i nujum ravshan etkondek (216), vujudimni go'yo adam qildilo (156), shomimg'a misli oftob o'lmish (79) kabi.

f) Komil ba'zan butun bir jarayonni o'xshatish uchun etalon sifatida tanlagan, ya'ni bunda aksariyat hollarda butun bir gap etalon vazifasini o'taydi:

Xoni vaslig'a raqibidin inoyat istamak,
Aylagan yonglig' gado ilgidagi nondin tama'... (88);
Komil ustiga qilur g'amlar hujum ul nav'kim,
Lashkari Sayyid Muhammadshoh qo'ng'iro't ustina...

(151);

Ayirmadi sitamin mandin, aylamish go'yo –
Jafosi tig'ig'a ko'ksun niyom ul gulrux... (50) kabi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Komil Xorazmiy nazmida o'xshatishlar alohida o'rin tutadi. Shoir lirik qahramonning holati, tashqi belgi-xususiyatlarini yorqinroq ko'rsatish maqsadida o'xshatish (tashbeh)lardan mahorat bilan va o'rinli foydalangan. Individual-muallif o'xshatishlari shoirning badiiy-poetik talqini, badiiy didi mahsuli sifatida yuzaga kelgan o'xshatish bo'lib, originalligi, yangicha talqini bilan kishini o'ziga jalb qiladi va o'z navbatida, badiiy matnning badiiy emotsional-ekspressivligini oshiradi. Shoirning o'xshatish hosil qilishdagi mahorati oddiy, lekin betakror. Shoir o'xshatish etalonlarini ustozlar an'anasidan, tabiatdan, kundalik turmushning o'zidan topa olganki, beixtiyor kishini hayratda qoldirishi aniq. Qisqasi, Komil Xorazmiy devonidagi komparativ troplar sanaluvchi va obrazli tafakkur mahsuli bo'lmish o'xshatishlar ham batafsil o'rganilishi, ularning struktur-semantik hamda lingvopoetik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Григорьева О.Н. Стилистика русского языка. – Москва, 2000.
2. Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. Курс лекций. – Москва: Едиториал УРСС, 2004.
3. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём // В книге: Теория метафоры. – Москва, 1990.
4. Маслова В.А. Человек в зеркале сравнение. // <http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php/>
5. Махмудов Н. Ўхшатишлар образли тафаккур маҳсули. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3.
6. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1978.
8. Невелова С.Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – Москва: Наука, 1979.
9. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990.
10. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2020.
11. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
12. Шодмонов Э. Бадий матннинг лингвистик таҳлили. // “Мактабда ўзбек, рус тиллари ва адабиёти”. – Тошкент, 1991. – №8.
13. Ўринбоев Б., Қўнгулов Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
14. Комил. Девон. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.